F.A.Axmedjanova

STANDARTLASHTIRISH

O‘QUV QO‘LLANMA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

F.A.Axmedjanova

STANDARTLASHTIRISH

6011703 – "Logistika" ta'lim yo'nalishi bakalavrlari uchun "Standartlashtirish" fanidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi

Samarqand – 2024

UO'K: 551.4(075)
A 90
KBK: 30.10ya73

F.A. Axmedjanova
Standartlashtirish *[Matn]:* ***o'quv qo'llanma*** */ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024 - 208 bet.*

Ushbu o'quv qo'llanma "Standartlashtirish" fanidan olingan nazariy bilimlarni mustakamlash uchun va amaliy mashg'ulotlarini bajarish uchun yordam beruvchi vosita sifatita mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi texnik jihatdan tartibga solish agentligining tashkiliy tuzilmasi, Standartlashtirish asoslari: standartlashtirish davlat tizimi, standartlashtirishning maqsadi va vazifalari, standartlashtirishning asosiy tamoyillari, xalqaro standartlashtirish tashkilotlari. Metrologiya asoslari: metrologiyaning asosiy vazifalari, fizikaviy kattaliklar qiymatlari, birliklari va xalqaro birliklar tizimi, O'lchash turlari va uni natijalarini baholash usullari keltirilgan.

Shu asnoda O'zbekiston Respublikasi muvofiqliqlatirish milliy tizimi: muvofiqliqlatirishning maqsadi va vazifalari, muvofiqliqlatirish milliy tizimining tamoyillari, Muvofiqlashtirish idoralari va ularning vazifalari, Muvofiqlashtirish sxemalari. Mahsulot sifatini ta'minlash xizmati, Mahsulot sifatini boshqarish, sifatni boshqarish tizimlariga alohida e'tibor berilgan.

Taqrizchilar:
R.N. Normahmatov – SamISI "Servis" kafedrasi professori, t.f.d.
K. A. Murodov – "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasi Samarqand filiali raxbari.

O'quv qo'llanma institut Kengashining 2024 - yil 27 - sentyabrdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-702-15-0

© F.A. Axmedjanova, SamISI. 2024 y.
© "STEP-SEL" MChJ nashryoti. 2024 y.

MUNDARIJA

KIRISH 5

I BOB. STANDARTLSHTIRISH ASOSLARI 8

1.1. O'zbekiston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligining tashkiliy tuzilmasi 8

1.2 O'zbekiston Respublikasining milliy standartlashtirish tizimi 15

1.4. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirishning maqsadi va vazifalari 21

1.5. O'zbekiston Respublikasi "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonunining mazmuni va mohiyati 23

1.6. Standartlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari 24

1.7. Standartlashtirish tamoyillari va ularning ahamiyati 27

1.8. Стандартларнинг тоифалари ва турлари 28

1.9. O'zbekiston milliy standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartibi 30

1.10. Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari va ularning vazifalari 35

1.11. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, akkreditasiya, sifatni boshqarish tizimlari sohasida faoliyat ko'rsatadigan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar 41

II BOB. METROLOGIYA ASOSLARI 44

2.1. Metrologiyaning asosiy faoliyati 44

2.2. O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g`risida" gi qonuni 45

2.3. Fizikaviy kattaliklar qiymatlari, birliklari va xalqaro birliklar tizimi 56

2.4. Fizikaviy kattaliklar qiymatlari va birliklari 58

2.5. O'lchash turlari va uni natijalarini baholash usullari 62

2.6. O'lchash natijalarini baholash usullari 65

2.7. O'lchash vositalarini qiyoslash, kalibrlash, davlat sinovidan o'tkazish va ular ustidan davlat metrologik nazorati 67

III BOB. TEXNIK JIXATDAN TARTIBGA SOLISH XIZMATI 72

3.1. "Texnik jixatdan tartibga solish xizmatining maqsadi va vazifalari 72

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 74046

3.2. O'zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida»gi qonuni, uning mazmuni va mohiyati 73
3.3. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi va davlat organlarining vakolatlari 75
3.4. Texnik reglamentlarning turlari va mazmuni 79
3.5. Texnik reglamentlarning mazmuni 79
3.6. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi 81
IV BOB. O'zbekiston Respublikasi muvofiqlikni baholash milliy tizimi 84
4.1. Muvofiqlikni baholashning maqsadi va vazifalari 84
4.1. Muvofiqlikni baholashning maqsadi va vazifalari 85
4.2. Muvofiqlikni baholash milliy tizimining tamoyillari 87
4.3. Muvofiqlikni baholash milliy tizimining asosiy atamalari va ularning tariflari 88
4.4. Muvofiqlikni majburiy va ixtiyoriy ravishda tasdiqlash 89
4.5. Sinov laboratoriyalarining vazifalari 91
4.6. Xorijiy sertifikatlarni tan olish qoidalari 92
4.7. Muvofiqlikni baholash sxemalari va ularning qo'llanilishi 96
5 BOB. MAHSULOT SIFATINI TA'MINLASH VA BOSHQARISH XIZMATI 99
5.1. Mahsulot sifatini ta'minlash xizmati haqida tushuncha 99
5.2. Mahsulot sifati to'g'risida tushuncha 101
5.3. Mahsulot sifatini boshqarishuning mazmuni va ahamiyati 103
5.4. Sifatni boshqarish tizimlari 106
5.5. Mahsulot haqidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash ... 109
GLOSSARIY 117
ILOVALAR 124

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining ortib borayotgan eksport salohiyati hamda mahalliy mahsulotni sotish bozorlarini kengaytirish zarurligi tashqi savdo yo'nalishlarini yanada diversifikasiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan, O'zbekiston Respublikasining eksport mahsuloti istiqbolli xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlaydigan maksimal darajada samarali, muqobil tranzit yo'laklarini shakllantirish borasida qo'shimcha choralar ko'rilishini taqozo etmoqda.

Shuni qayd etish zarurki, hozirgi vaqtda respublikaning mavjud salmoqli tranzit salohiyati to'liq darajada ishga tushirilmagan. Vujudga kelgan tranzit va tarif siyosatidagi nomaqbullik qo'shimcha ravishda tranzit yuk oqimini jalb etishga to'sqinlik qilmoqda.

Yangi transport-tranzit yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha ikki tomonlama shartnomaviy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va xalqaro almashuvlarni amalda ro'yobga chiqarish, yaqin qo'shni mamlakatlarda O'zbekiston Respublikasining yuklarini samarali tashish va ishlov berish uchun shart-sharoitlarni shakllantirish ham eng muhim vazifa hisoblanadi. Aynan shu vazifani bajaruvchi –logistika xizmati hisoblanadi. Logistika – bu birinchi navbatda, tovarlar bilan muomala qilish, mahsulotlar zaxirasini shakllantirish, bozor infratuzilmasini yaratish kabi sohalarning barqaror faoliyatini o'z ichiga olgan ishlab chiqaruvchidan to iste'molchiga yetkazib bergungacha tovarlarning oqilona harakatlanishini tashkil etish bo'yicha jarayonlar majmuasidir. Shuning uchun ulgurji bozorlar sotuvchi va sotib oluvchilarning nafaqat mahsulotlarni sotish yoki sotib olish, balki to'liq xizmat spektrlarini olish, jumladan sotish uchun tovarlarni tayyorlash, to'lovlarni o'tkazish, transport xizmatlari, tovarlar bo'yicha narxlar to'g'risida bilish, yangi texnologiyalar to'g'risida maslahat xizmatlaridan axborotlar olish bo'yicha yuqori xizmat ko'rsatuvchi markazlarga aylantirilishi shart.

Ma'lumki, xizmatlar sifatini ta'minlash, uning jahon bozorida raqobatbardorshligini oshirish va uni boshqarish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlaridan biri

hisoblanadi. Xizmatlar sifati va xavfsizligiga qo'yiladigan talablar standartlar orqali belgilanadi. Standartda fan, texnika va xalqaro tajribaning ilg'or yutuqlari shakllanadi, chunki standartlarni tuzishda xizmatlar ko'rsatish sifatiga, inson hayoti, mol-mulki va atrof muhit uchun qo'yiladigan xavfsizlik talablari belgilanadi.

Hozirgi kunda yangi ishlab chiqariladigan va amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga mos keladigan logistik xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Logistik xizmatlar o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lishi bilan birga, bu xizmat turlari iste'molchilarning talablariga qarab kun-sayin o'zgarib boradi va to'xtovsiz rivojlanadi. Shu sababdan logistik xizmatlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va jaxon talablariga moslashtirish murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, logistik xizmatlarini standartlashtirish va sertifikatlashtirish ko'p hollarda majburiy bo'lmagan, ya'ni ixtiyoriy shaklda olib borilgan, chunki bozor va unda mavjud bo'lgan jiddiy raqobat ushbu xizmatlarni o'z-o'zidan bir qolipga solib qo'yadi.

Me'yoriy hujjatlarda iste'molchilar xavfsizligiga dahldor bo'lgan ko'rsatkichlar majburiy va sifat ko'rsatkichlariga mansub bo'lgan talablari ixtiyoriydir. Shuning uchun, logistik xizmatlar ikki xil sertifikat, ya'ni majburiy, me'yoriy hujjat talablariga mos kelishini tasdiqlovchi muvofiqlik sertifikatiga hamda xalqaro standart talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi sertifikatga ega bo'lishlari kerak. Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan davlatlarda esa, aksincha holatni kuzatish mumkin. Hukumat o'z zimmasiga javobgarlikni olib huquqiy va me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda logistik xizmatlari strategik quvvatga ega bo'lgani sababli ularni tartibga solib boshqarib turadi. Bunda standartlashtirish va sertifikatlashtirish majburiy tarzda olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasida xam hozirgi kunda amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga mos keladigan logistik xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda, bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Transport sohasida davlat

boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son qarori, "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o'rganish markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasi qarori misol bo'lishi mumkin.

Sertifikatlashtirish borasida logistika xizmatlarini amalga oshiruvchi korxonalar oldida muammo bo'lgan bir masala normativ hujjatlar talablarini o'zlarining ishlarida tadbiq qilish. Ushbu muamoni hal etishda akkreditasiya qilingan sertifikatlashtiris idoralari, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari logistika xizmatlarini amalga oshiruvchi korxonalariga maslahatlarini berish bilan shug'ulansalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu yo'nalishda ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlarni tashkil etib, aktual mavzuga oid maqolalar e'lon kilib, logistika xizmatlarini amalga oshiruvchi korxonalar bilan tez - tez seminar mashg'ulotlari o'tkazib kelishlari kerak.

Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalaridan biri yangi logistik xizmatlarni amalga oshirish uchun yangi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni tashkil etishi xisoblanadi.

I BOB. STANDARTLSHTIRISH ASOSLARI

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligining tashkiliy tuzilmasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyundagi «Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to‘g`risida» PF-6240-son Farmoniga asosan O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tashkil etildi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya sohalarida davlat siyosatini amalga oshiruvchi respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi «O‘zstandart» agentligining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligining tashkiliy tuzilmasiga quydagilar kiradi:

1. **«O‘zbekiston standartlar instituti» davlat muassasasi.** Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti" va "Axborot-ma'lumot markazi" davlat korxonasi negizida tashkil etildi.

«O‘zbekiston standartlar instituti» davlat muassasasi davlat muassasasi standartlashtirish bo‘yicha tarmoq texnik qo‘mitalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlarni, shu jumladan, shartnoma asosida xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar va boshqa tashkilotlarning arizalari bo‘yicha ishlab chiqish va realizatsiya qilish, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha bazaviy tashkilot etib belgilandi.

2. **«O‘zbekiston milliy metrologiya instituti» davlat muassasasi.** «Milliy metrologiya instituti» davlat muassasasi,

«Metrologiya xizmatlari ko‘rsatish markazi» davlat korxonasi va «Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti» davlat muassasasining metrologik bo‘linmalari negizida «O‘zbekiston milliy metrologiya instituti» davlat muassasasi («O‘zMMI» DM) tashkil etildi.

«O‘zbekiston milliy metrologiya instituti» davlat muassasasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlariga quydagilar kiradi:

- metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, biriktirilgan hududlarda va o‘lchash turlari bo‘yicha o‘lchashlar birliligi va ishonchliligini ta’minlash;
- yuqori aniqlikdagi chiquvchi va namunaviy o‘lchash vositalarini saqlash va tegishli darajada saqlab turish;
- davlat metrologiya xizmatini rivojlantirish;
- mavjud yuqori aniqlikdagi o‘lchash vositalari va usullarini takomillashtirish, yangilarini yaratish, o‘lchash, nazorat va sinash vositalarini standartlashtirish;
- o‘lchash vositalari turini tasdiqlash maqsadida davlat sinovlari bo‘yicha ishlarni tashkil qilish;
- o‘lchash vositalarini metrologik attestatlash, qiyoslash va kalibrlash ishlarini tashkil qilish;
- yuridik shaxslarning metrologik xizmatlarini o‘lchash vositalarini kalibrlash va ta’mirlash huquqiga akkreditlash.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi.

Davlat nazorati organlarining vakolatlari, ularning texnik reglamentlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratiga doir faoliyatini muvofiqlashtirish tartibi, shuningdek davlat nazorati organlarining akkreditatsiya organi bilan hamkorligi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat nazorati organlarining huquq va majburiyatlari

Davlat nazorati organlari quyidagi huquqlarga ega: ishlab chiqaruvchidan, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilidan, sotuvchidan va import qiluvchidan muvofiqlik sertifikatining yoki muvofiqlik

to‘g‘risidagi deklaratsiyaning ro‘yxatdan o‘tkazish raqami haqida axborot taqdim etilishini, agar bunday hujjatlarning mavjud bo‘lishi tegishli texnik reglamentda nazarda tutilgan bo‘lsa, talab qilish; qonunchilikda belgilangan tartibda nazorat tadbirlarini amalga oshirish;

texnik reglamentlar talablarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to‘g‘risida ishlab chiqaruvchiga, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakiliga, sotuvchiga va import qiluvchiga ko‘rsatmalar berish;

muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to‘xtatib turish yoki tugatish zarurligi to‘g‘risidagi axborotni sertifikatni bergan muvofiqlikni baholash organiga va maxsus vakolatli davlat organiga yuborish;

muvofiqlikni baholash organiga muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘risida, deklaratsiyani qabul qilgan shaxsga muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki tugatish haqida ko‘rsatma berish hamda muvofiqlik sertifikatining, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoxud tugatish haqida ko‘rsatma berilganligi to‘g‘risidagi axborotni akkreditatsiya organiga yuborish;

ishlab chiqaruvchini, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilini, sotuvchini va import qiluvchini ushbu Qonunda hamda qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikka tortish;

ishlab chiqaruvchidan, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilidan, sotuvchidan va import qiluvchidan mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligini majburiy tasdiqlashni amalga oshirish chog‘ida foydalanilgan dalillar hamda boshqa hujjatlar taqdim etilishini talab qilish;

muvofiqlik sertifikatining, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning amal qilishini qonunchilikda belgilangan tartibda to‘xtatib turish, tugatish haqida qaror qabul qilish;

texnik reglamentlar talablariga javob bermaydigan mahsulotni muomalaga chiqarishni taqiqlash yoki to‘xtatib turish, muomaladan chiqarish yoki chaqirib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish hamda ushbu qaror haqida o‘z vakolatlariga muvofiq tegishli davlat nazorati organlarini xabardor qilish va (yoki) ushbu mahsulotdan foydalanishni

qoidabuzarliklar bartaraf etilguniga qadar taqiqlash; qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralarni zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qo‘llash.

Davlat nazorati organlari: nazorat tadbirlari davomida texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llash bo‘yicha tushuntirish ishlarini amalga oshirishi, mavjud texnik reglamentlar haqida xabardor qilishi; tijorat sirini va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni oshkor etmasligi; qonunchilikda belgilangan nazorat tadbirlarini amalga oshirish va bunday tadbirlar natijalarini rasmiylashtirish tartibiga rioya etishi; texnik reglamentlar talablarining buzilishlari oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tadbirlari natijalariga asosan choralar ko‘rishi; mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to‘g‘risidagi axborotni ishlab chiqaruvchiga, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakiliga, sotuvchiga va import qiluvchiga yuborishi shart.

“O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” davlat muassasasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g`risida”gi qaroriga asosan Akkreditatsiya markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o‘tkazishda akkreditatsiya jarayonining betarafligi va xolisligini ta’minlagan holda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;

- Akkreditatsiya bo‘yicha Osiyo-Tinch okeani hamkorligiga (ARAS), laboratoriyalar akkreditatsiyasi bo‘yicha xalqaro tashkilotga (ILAC) va akkreditatsiya bo‘yicha xalqaro forumga (IAF) to‘laqonli a’zo sifatida kirish;

- akkreditatsiya milliy tizimini xalqaro normalar va mezonlarga muvofiq doimiy ravishda rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ISO/IEC 17011 xalqaro standarti talablariga rioya qilish;

• akkreditatsiya tartib-taomillariga taalluqli zarur axborotni, shu jumladan, o'zining rasmiy veb-sayt orqali erkin olish imkoniyatini yaratish;

• O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida akkreditatsiya bo'yicha ishlar natijalarining xorijiy mamlakatlar tomonidan e'tirof etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralar ko'rish;

• akkreditatsiyadan o'tkazilgan tashkilotlar va ularning akkreditatsiya sohasi to'g`risidagi ma'lumotlar bazasining shakllantirilishi va dolzarb holatda saqlanishini, shuningdek, tegishli axborotning maxfiyligiga rioya qilgan holda jamoatchilikning ulardan foydalanishini ta'minlash.

"Shtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi" davlat korxonasi.

"Shtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi" davlat korxonasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

• turli tashuvchilar va firmaga oid o'zi yopishadigan etiketka va yorliklarda shtrixli kodlarning original-maketlarini tayyorlash;

• original-maket va upakovkalarda shtrixli kodlar verifikatsiyasi;

• etiketka, upakovka va tovarda shtrixli kodlar bosilishining sifatini tekshirish;

• O'zbekiston Respublikasida chiqarilgan mahsulotning shtrixli kodlarini Davlat reestriga kiritish;

• avtomatik tarzda identifikatsiyalash va shtrixli kodlash sohasidagi masalalar bo'yicha seminar, yig`ilishlar o'tkazish;

• shtrixli kodlash texnologiyalarini qo'llagan holda avtomatlashtirilgan tizimlarni loyihalashtirish va joriy qilish.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish sohasida:

• idorada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, axborotni saqlash va ishlash, axborotlashtirish sohasida avtomatlashtirish bo'yicha kompleks dasturlarini olib borish;

• axborot tizimlari va manbalari bo'yicha o'zaro munosabatlarni ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlari va aholiga interaktiv davlat

xizmatlarini ko‘rsatish, shuningdek ma’lumotlarsiz ishlab chiqishni ta’minlaydigan idora infrastrukturasini shakllantirish va rivojlantirish;

• idoraning hamma bo‘limlarini rivojlantirish jarayonining me’yoriy-huquqiy, texnologik va axborot –tahlil materiallari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlash;

• idoraning rasmiy veb-saytini takomillashtirish va uning ishlashini doimiy ta’minlash;

• idora axborot manbalarini va axborot tizimlarini himoya qilish bo‘yicha texnik infrastrukturani joriy qilish va rivojlantirish;

• zamonaviy axborot texnologiyalarini, dasturli mahsulotlarni, ma’lumotlarni ishlash apparat vositalarini, aloqa vositalari va ma’lumotlarni uzatishni rivojlantirish va ularni qo‘llash masalalari bo‘yicha takliflar tayyorlash, axborot havfsizligini ta’minlash va ularni idora rahbariga taqdim qilish ;

• ishlab chiqarish jarayonini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini avtomatlashtirish tizimini joriy qilish va rivojlantirish bo‘yicha biznes reja va harajatlar smetasining alohida bandlariga tegishli takliflarni ishlab chiqish va hodimlar malakasini oshirish;

• korporativ tarmoq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy–apparat vositalari, almashish vositalarini ishlab chiqish va ma’lumotni saqlash bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqish va yuritish.

“O‘zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasi. Standartlashtirish sohasini yanada jonlantirish, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish va mahalliy mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiq baholash orqali savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish kabi masalalarni echish borasida Prezidentimiz tomonidan 2019 yilning 15 avgust kuni “O‘zbekiston Respublikasida muvofiqlikni baholash tizimini yanada takomillashtirish va sinov laboratoriyalari kompleksini rivojlantirish to‘grisida”gi qaror qabul qilindi. Qarorga ko‘ra “O‘zstandart” agentligining “Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi” davlat korxonasini 2020 yil 1 yanvardan “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat korxonasiga, keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 28

fevraldagi "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"PQ -91 son qaroriga asosan "O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasiga aylantirildi.

Korxonaning asosiy vazifalari va funksiyalari:

- Iste'molchini sifatsiz, shu jumladan fuqarolarning xayoti, sog`ligi va mol-mulkiga xavf tug`diruvchi, atrof muxitga zarar etkazuvchi o'zaro almashinuvchanlik va moslashuvchanlik talablarini ulchash uslublari va yorliqlash qoidalari birliligini ta'minlamaydigan mahsulotlardan himoyalash;
- mahsulotlarni va xizmatlarni muvofiqlashtirishini tashkil etish va uni o'tkazishda respublika standartlari va xalqaro standartlarni qo'llash asosida mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablarni uyg`unlashtirish, sifat tizimlarini joriy qilish va ularni muvofiqlashtirish; xalqaro bozorda mahsulotlarning raqobatbardoshliligiga ko'maklashish;
- bir turdagi mahsulotlarni muvofiqlashtirish tizimlarini yaratishda qatnashish, shu hisobda muvofiqlashtirish milliy tizimi doirasida o'tkaziladigan muvofiqlashtirish natijalarini chet elda tan olinishi uchun sharoitlar yaratish; mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda va xizmatlar ko'rsatadigan idora va tashkilotlarda xalqaro standartlar talablari asosida sifat tizimlarini joriy qilish;
- xalqaro standartlar talablari asosida sifat tizimini ishlab chiqish va yunalish bo'yicha o'quv kurslarini tashkillashtirish, o'tkazish, respublika va xalqaro mikyosida seminarlar, konferensiyalar tashkillashtirish xizmatlarini ko'rsatish;
- hududiy sinov va muvofiqlashtirish korxonalarida sifat menejment tizimi hujjatlari asosida ichki auditni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha o'quv kurslarini olib borish;
- hududiy sinov va muvofiqlashtirish korxonalarining faoliyatiga rahbarlik qilish va uni muvofiqlashtirish;
- korxonaning laboratoriyalarida sinash tizimini rivojlantirish hamda ularning muvofiqlashtirish milliy tizimida akkreditatsiyalanishiga tayyorlanishini ta'minlash;

• me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq mahsulotlarni sinash protseduralarini takomillashtirish va o'tkazish; standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlashtirish va sinash masalalari bo'yicha korxonaning kadrlar tarkibini doimiy, tizimli tayyorgarligi va malakasini oshirish chorasini ta'minlash;

• Muvofiqlashtirish milliy Idorasi topshirig`i bo'yicha yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalarini akkreditatsiyalashda qatnashish;

• sinash va muvofiqlashtirish bo'yicha ishlar jarayonida olinadigan axborotni sir saqlanishini ta'minlash;

• sinash muvofiqlashtirish bo'yicha hujjatlar va ishchi materiallarning hisobi vaqlanishini ta'minlash.

1.2 O'zbekiston Respublikasining milliy standartlashtirish tizimi

Ma'lumki, standartlashtirish bilan bog`liq bo'lmagan bironta faoliyat yo'q. Standartlashtirish mahsulot sifatini yaxshilash, tabiiy boyliklarni tejash, boshqarish usullarini takomillashtirish, aholi iqtisodiy ahvolini yaxshilash, mamlakat iqtisodiyotini yanada mustahkamlash, savdo-sotiq ishlarini yaxshilash, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni va do'stlikni mustaqkamlash uchun xizmat qiladi.

Mahsulot sifati, o'z navbatida, mamlakatda standartlashtirish davlat tizimining to'liq shakllanganligi, mahsulotni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan standartlarda qo'yilgan me'yor, qoida va talablarning dunyodagi ilmiy- texnika rivoji darajasiga mos kelishi bilan bog`liq. Shu boisdan ham mahsulotlarga qo'yilgan me'yoriy hujjatlar xalqaro, mintaqaviy va sanoati bo'yicha eng rivojlangan xorijiy mamlakatlarning me'yoriy hujjatlari bilan doimo uyg`unlikda bo'lishlari lozim.

Respublikada standartlashtirish ishlari milliy standartlashtirish tizimi talablari asosida olib boriladi. Standartlashtirish milliy tizimi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning standarlashtirish bo'yicha milliy hamda dunyo ilmiy-texnika rivojiga asoslangan.

Standartlashtirish milliy tizimi deganda respublikada standartlashtirish ishlarini tashkillashtirish, standartlashtirish bo‘yicha idora va xizmatlarni tashkil qilish, O‘zbekiston Respublikasi standartlarini, texnik shartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, rasmiylashtirish, ularga o‘zgartirishlar kiritish, bekor qilish va amaldagi standartlar talablari asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ustidan nazorat o‘tkazish qonun- qoidalarini o‘z ichiga olgan me’yoriy hujjatlar majmui tushuniladi.

Respublika standartlashtirish milliy tizimi standartlashtirish bo‘yicha asosiy atama va tushunchalarni, standartlashtirishning maqsadi va vazifalarini, tamoyillarini, standartlashtirish bo‘yicha ishlarni . tashkil qilish idoralarini va standartlashtirish bilan shug`ullanadigan tashkilotlarning nomlarini va vazifalarini, standartlashtirish ob’ektlarini, standartlashtirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni qo‘llash, ular to‘g`risidagi ma’lumotlarni chop etish, ma’lumotlar bilan ta’minlash, me’yoriy hujjatlar ustidan davlat nazoratini o‘tkazish, milliy standartlashtirish va nazorati bo‘yicha ishlarni mablag` bilan ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish bo‘yicha ishlarda xalqaro hamkorlik qilish qoida va tartiblarini o‘z ichiga oladi.

O’zbekiston Respublikasining milliy standartlashtirish tizimini quyidagilar tashkil etadi:

O’zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi - huzuridagi O’zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi;

Standartlashtirish bo’yicha milliy organ;

davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari;

standartlashtirish bo’yicha texnik qo’mitalar.

O’zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining standartlashtirish sohasidagi vakolatlari:

-standartlashtirish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

- standartlashtirish rejasining bajarilishi monitoringini amalga oshiradi;

-standartlar talablariga, shuningdek standartlashtirish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

-zamonaviy boshqaruv uslublariga asoslangan yagona integrasiyalashgan standartlashtirish tizimining yaratilishini amalga oshiradi;

-standartlashtirish bo'yicha milliy organ huzurida Apellyasiya komissiyasini tuzadi va uning faoliyatini tashkil etadi;

-standartlashtirish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Standartlashtirish bo'yicha milliy organning vakolatlari:

-standartlashtirish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni, konsepsiyalarni, shuningdek strategiyalarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

-standartlashtirish tizimini raqamlashtirishni zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini va innovasion texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan amalga oshiradi;

-standartlashtirish rejasini amalga oshiradi;

-standartlashtirish bo'yicha tarmoq texnik qo'mitalarini tashkil etish, ularning faoliyatini to'xtatib turish va tugatish haqida manfaatdor taraflarning murojaatlariga binoan, shuningdek o'z tashabbusiga ko'ra qarorlar qabul qiladi, ushbu qo'mitalar to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi va xalqaro amaliyot asosida ularni rivojlantirishga ko'maklashadi;

-standartlashtirish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ifodalaydi;

-xorijiy mamlakatlarning standartlashtirish bo'yicha milliy organlari bilan bitimlar tuzadi va ular bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

-milliy standartlarni tasdiqlaydi va ro'yxatdan o'tkazadi, ularni bekor qilish haqida, shuningdek ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

-xalqaro (mintaqaviy) standartlarni, xorijiy mamlakatlarning standartlarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartishlarni O'zbekiston

O'ZBEKISTON STANDARTLASHTIRISH, METROLOGIYA VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 74046

Respublikasi hududida amalga kiritish va ularning amal qilishini bekor qilish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

-manfaatdor taraflarning yangi standartlarni ishlab chiqishga, amaldagi standartlarni qayta ko'rib chiqishga doir ishlarini muvofiqlashtiradi;

-milliy standartlarni xalqaro (mintaqaviy) standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini hisobga olgan holda uyg'unlashtirish yuzasidan manfaatdor taraflarga tavsiyalar beradi;

-standartlashtirish bo'yicha tegishli texnik qo'mitalar mavjud bo'lmagan taqdirda standartlarni ishlab chiqadi;

-Standartlarning yagona axborot bazasini shakllantiradi va yuritadi;

-texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish hamda metrologiya sohasida kadrlarni qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradi, shuningdek ularning malakasini oshirish tizimini tashkil etadi.

-Standartlashtirish bo'yicha milliy organ qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining standartlashtirish sohasidagi vakolatlari: Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida:

-yangi standartlarni ishlab chiqishga, amaldagi standartlarga o'zgartishlar kiritishga, ularni qayta ko'rib chiqishga va bekor qilishga doir takliflarni tayyorlaydi hamda ularni standartlashtirish rejasiga kiritish uchun Standartlashtirish bo'yicha milliy organga taqdim etadi;

-standartlashtirish rejasida nazarda tutilgan vazifalarni bajaradi;

standartlar loyihalarini ishlab chiqish tashabbusi bilan chiqadi va ularni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

-standartlashtirish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida Standartlashtirish bo'yicha milliy organ bilan birgalikda ishtirok etadi;

-standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarni tashkil etish, shuningdek rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va ularni Standartlashtirish bo'yicha milliy organga kiritadi.

Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita: standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita standartlarning qabul qilinishidan hamda qo'llanilishidan manfaatdor bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hamda boshqa tashkilotlarning ixtiyoriy ishtiroki asosida, standartlashtirish bo'yicha milliy organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi. Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita vakolatlariga quydagilar kiradi:

-milliy standartlar loyihalarini ishlab chiqadi;

-faoliyat sohasiga muvofiq milliy standartlar loyihalarining muhokamasini tashkil etadi;

-yangi milliy standartlarni ishlab chiqishga, amaldagi milliy standartlarni qayta ko'rib chiqishga doir standartlashtirish rejasiga kiritish uchun takliflar tayyorlaydi;

-standartlashtirish rejasiga kiritilgan standartlarni ishlab chiqishni amalga oshiradi;

-o'z vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga murojaatlar yuboradi;

-faoliyat sohasiga muvofiq standartlarning axborot bazasini shakllantiradi va yuritadi;

-standartlashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etadi;

-standartlashtirish bo'yicha xalqaro, mintaqaviy tashkilotlarning standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalari ishida Standartlashtirish bo'yicha milliy organ bilan birgalikda ishtirok etadi hamda mazkur qo'mitalarning majlislarida O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini himoya qiladi.

-Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitaning faoliyati bilan bog'liq xarajatlar uni tashkil etish to'g'risidagi tashabbus bilan chiqqan subyektlarning, shuningdek standartlarning qabul qilinishidan va qo'llanilishidan manfaatdor bo'lgan boshqa tashkilotlarning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

1.3. Standartlashtirish bo'yicha atamalar.

Standartlashtirish bo'yicha atamalar (ma'lum bir tushunchalarning nomini bildiradigan so'z yoki so'z birikmasi) mavjud. Faqat

atamalarning mazmunini tushunish orqali ilmiy-texnikaviy va boshqa ma'lumotlarni o'zlashtira olish mumkin.

Standartlashtirish sohasida ham qator standartlashtirilgan atamalar qabul qilingan. Ular ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi, sotuvchi va iste'molchilar o'zaro tushunadigan mazmunda bo'lib, ilmiy-texnika rivojiga mos keladi va xalqaro talab me'yorlari bilan muvofiqlashtirilgan.

Atamalar O'zbekiston Respublikasining milliy standartlari, ishlab chiqaruvchi (ta'minlovchi) va iste'molchilar o'rtasida tuziladigan shartnoma, dalolatnoma, qaydnomalar va boshqa rasmiy hujjatlarning barcha turlarida, ilmiy-texnikaviy, o'quv va ma'lumotnoma adabiyotlarida qo'llanishi shart.

milliy standart — O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar instituti tomonidan qabul qilingan hamda keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan standart;

standart — faoliyatning har xil turlariga yoki ularning natijalariga taalluqli bo'lgan, umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni, umumiy prinsiplarni yoki tavsiflarni belgilaydigan hamda muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan hujjat;

standartlashtirish — muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan, haqiqatda mavjud bo'lgan yoki kutilayotgan vazifalarga nisbatan umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni belgilaydigan faoliyat;

Standartlashtirish bo'yicha milliy organ— O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar instituti;

standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita— faoliyatning yo'nalishlari bo'yicha standartlashtirish tizimini rivojlantirishni amalga oshirishda ishtirok etuvchi maslahat-kengash organi;

standartlashtirish obyekti — mahsulot, tovarlar, xizmatlar (bundan buyon matnda mahsulot deb yuritiladi), jarayonlar, menejment

tizimlari, atamalar, shartli belgilar, tadqiqotlar (sinash), o'lchash (shu jumladan namunalarni tanlash) hamda sinash usullari, tamg'alash, muvofiqlikni baholash tartib-taomillari va boshqa obyektlar;

xalqaro (mintaqaviy) standart — standartlashtirish bo'yicha xalqaro yoki mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va keng jamoatchilik doirasi uchun ochiq bo'lgan standart;

xorijiy mamlakatning standarti — xorijiy mamlakatning standartlashtirish bo'yicha vakolatli organi (tashkiloti) tomonidan qabul qilingan standart;

o'zaro kelishuv — ko'pchilik manfaatdor taraflarning mavjud masalalar bo'yicha e'tirozlari mavjud emasligi bilan tavsiflanadigan hamda barcha taraflarning fikrlarini inobatga olishga va mos kelmayotgan nuqtai nazarlarni yaqinlashtirishga qaratiladigan jarayon natijasida erishiladigan umumiy kelishuv.

1.4. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirishning maqsadi va vazifalari

Har bir sohaning aniq maqsadi va vazifalari bo'lganligi kabi, standartlashtirish bo'yicha faoliyat ham o'ziga xos maqsad, vazifalar va tamoyillarga ega. O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- mahsulot, xizmat va jarayonlar sifat bo'yicha aholi hayoti, sog'ligi va mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfsizlikni ta'minlash va resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar hamda davlat manfaatlarini himoya qilish;

- mahsulotning o'zaro bir-biriga mos kelishi va o'zaro almashuvini ta'minlash;

fan, texnika va texnologiya rivoji darajasiga javob bera oladigan hamda aholi va xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish;

- resurslarning barcha turlarini tejashga va ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ko'maklashish;

savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik to‘siqlarni bartaraf etish va jahon bozorida milliy mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashish;

- ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;

- tabiiy va texnogen fojialar va boshqa favqulotda holatlarni yuzaga kelishini hisobga olgan holda xalq xo‘jaligi ob’ektlarining xavfsizligini ta’minlash;

- iste’molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi va sifati to‘g‘risidagi to‘liq va ishonarli axborotlar bilan ta’minlash;

- mamlakat mudofaa qobiliyatini ta’minlash va uning safarbarlik tayyorgarligiga ko‘maklashish;

- ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijro etuvchi) ma’lum qilgan mahsulot sifati to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarni ta’minlash.

Standartlashtirishning asosiy vazifalari:

Standartlashtirish faoliyatining vazifalari uning asosiy maqsadidan kelib chiqadi va shu maqsadga erishishga qaratiladi. Standartlashtirish vazifalariga quyida ko‘rsatilgan ishlarni bajarish kiradi:

-fuqarolarning hayotini, sog’lig’ini va mol-mulkini muhofaza qilish;

-atrof-muhitni muhofaza qilish;

-mahsulotning sifati masalalarida iste’molchilarning huquqlarini va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoya qilish;

-mahsulotning o’zaro almashuvchanligini va moslashuvchanligini ta’minlash;

-aholining va iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun mahsulotning sifatini hamda raqobatbardoshliligini ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanish darajasiga qarab oshirish;

-barcha turdagi resurslarni tejashga ko’maklashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlarini yaxshilash;

-ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik dasturlarni hamda loyihalarni ro’yobga chiqarish chog’ida amaliy jihatdan ko’maklashish;

-O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini rivojlantirishga va ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko'maklashish;

-ishlab chiqariladigan mahsulotning nomenklaturasi va sifati to'g'risidagi axborotning ochiqligini hamda ishonchliligini ta'minlash;

-mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotning xorijiy bozorlarga olib chiqilishiga ko'maklashish;

-o'lchash birligini ta'minlash.

1.5. O'zbekiston Respublikasi "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonunining mazmuni va mohiyati

O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuni ilk marotiba 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan va u 1994 yilning 28 fevral oyidan boshlab kuchga kiritilgan edi. Ushbu qonun 4 bo'lim va 12 moddani o'z ichiga olgan edi. Standartlashtirish tizimida ko'p o'zgarishlar sodir bo'lganligi sababli, O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonunining yangi taxriri 2022 yil

3 noyabrda qabul qilingan bo'lib, 05.11.2023 kuchga kirdi. Qonun 31 moddadan tashkil topgan bo'lib, quydagi o'zgarishlarni o'z ichiga olgan.

Yangi qonun standartlar va standartlashtirishga doir hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va qo'llash, shuningdek ushbu sohada davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Hujjatga ko'ra quyidagilar milliy standartlashtirish tizimini tashkil etadi:

- Investisiya vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi;
- O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar instituti;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;
- standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar.

Qonun standartlarni quyidagi toifalarini belgilamoqda:

- milliy standartlar – O'zMSt;
- xalqaro (mintaqaviy) standartlar;
- xorijiy mamlakatlar standartlari.

Quyidagi standartlarni qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi:

• umummajburiy xususiyatga ega bo'lgan normalarni o'z ichiga olgan, fuqarolarning huquqlariga, erkinliklariga va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan standartlarni;

• amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga va texnik reglamentlarga zid bo'lgan standartlarni;

• mahsulotning erkin muomalada bo'lishiga to'siqlar yaratadigan, bozor raqobatini bartaraf etishga va cheklashga qaratilgan standartlarni.

• Uangi qonun kuchga kirishidan oldin qabul qilingan, O'zDSt abbreviaturasi bilan belgilangan amaldagi standartlar va tegishli hujjatlar milliy standartlar O'zMSt deb e'tirof etiladi.

1.6. Standartlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari

Standartlashtirish ob'ektlari deyilganda, fan va texnika, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, madaniyat sog'likni saqlash, xalqaro savdo va boshqa sohalarda ko'p martalab ishlatiladigan aniq mahsulot, me'yor, qoida, talab, uslublar, atamalar va boshqalar tushuniladi.

Standartlashtirish bo'yicha har bir me'yoriy hujjat o'ziga tegishli ob'ektga ega. Masalan, xalqaro standartlarning standartlashtirish ob'ektlari GOST 1.0 -92 (Pravila provedeniya rabot po mejgosudarstvennoy standartizatsii. Obshie polojeniya) va O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish ob'ektlari O·zDSt 1.0: 1998 (O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar)da ko'rsatilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlararo standartlarining ob'ektiga barcha hamdo'stlik mamlakatlarda iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar va jarayonlar kiradi.

O'zDSt 1.0:1998 ga asosan O'zbekiston davlat standartlarining ob'ekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- tashkiliy-uslubiy va umumtexnik me'yorlar va talablar;

- mahsulotga qo'yiladigan talablar, umumtexnik me'yorlar va qoidalar;

- tarmoqlararo qo'llanishga mo'ljallangan mahsulot;

- davlat ahamiyatiga ega bo'lgan xo'jalik ob'ektlarining elementlari, shu jumladan, bank tizimlari, foydalaniladigan tabiat resurslari,

mudofaa, transport, aloqa, energosistema va shunga o'xshashlarga qo'yiladigan talablar;

- davlat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik dasturlarining ob'ektlari.

Tashkiliy-uslubiy va umumtexnik me'yorlar va talablarning asosiy qismi quyidagilardan iborat:

- standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish va o'tkazish tartiblari;

- ma'rifat (bilim) va faoliyatning turli sohalaridagi terminologik tizimlar;

- mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda hamda qo'llashda ishlatiladigan yagona til, bir-biriga mos keladigan dasturlash, ma'lumotlar texnologiyasining texnik vositalari va texnik hujjatlar;

- texnik-iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni tasniflash va kodlash;

- texnika xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat gigienasi, ergonomika va texnik estetik talablar;

- tipik o'lchamlar qatorlari va umummashinasozlikda qo'llaniladigan buyumlarning o'ziga xos konstruksiyalari (sharik-podshipniklar, birkitish boltlari, asbob-uskunalar, detallar va boshqalar);

- mahsulot sifati va uni nazorat qilishni ta'minlash tizimlari va uslublari;

- o'lchash birligini ta'minlaydigan va metrologiya ta'minoti bilan bog'liq me'yorlar, qoidalar, talablar va tashkiliy ishlar tartibi;

- xom ashyo va materialarning konstantalari hamda asoslari to'g'risidagi axborotnoma ma'lumotlari.

Tarmoq standartlari davlatlararo va O'zbekiston davlat standartlariga kirmaydigan mahsulot (xizmat)lar va jarayonlar uchun ishlab chiqiladi. SHuning uchun ham tarmoq standarlashtirish ob'ektlariga davlatlararo va O'zbekiston davlat stanadartlari ob'ektlari bo'lmagan ishlab chiqarishni tashkil qilish, boshqarish va sifatni ta'minlash sohalaridagi me'yorlar, qoidalar hamda mahsulotlar kiradi.

Korxona standartlashtirish ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

- boshqa iste'molchilarga sotiladigan mahsulot;

- ishlab chiqarishni tashkil qilish, uni va mahsulot sifatini boshqarish qoidalari va me'yorlar;

- faqat ushbu korxonada yaratiladigan, qo'llaniladigan va ishlab chiqariladigan buyumlarning tarkibiy qismi bo'lgan detallar va qismlar;

- texnologik asbob-uskunalar va instrumentlar, texnologik me'yorlar, talablar va tipik-texnologik jarayonlar;

- korxonaning iste'molchilarga ko'rsatadigan xizmatlari.

Standartlashtirish sub'ektlari. Vazirlar Maxkamasining "O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish" to'g'risida 1992 yil 2 martdagi 93-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Vazirlar maxkamasi xuzuridagi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O'zbekiston davlat markazi (O'zdavstandart) - standartlashtirish bo'yicha milliy idora hisoblanadi va standartlashtirish sub'ektlaridan biridir.

Respublikada standartlashtirish bo'yicha ishlarning tashkil etilishini, mustaxkamlashtirilishini va ishlarning maqbul darajada olib borilishini quyidagi idoralar ta'min kiladilar:

1. Tarmoqlararo qo'llanishga belgilangan mahsulot bo'yicha O'zdavstandart.

2. Qurilish va qurilish sanoati bo'yicha, shu jumladan loyixalash va konstruksiyalashni ham qo'shgan holda-O'zbekiston Respublikasi Qurilish davlat qo'mitasi.

3. Tabiiy resurslardan foydalanishni yo'lga qo'yish, atrof-muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'siridan muhofaza qilish sohasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.

4. Tibbiyot yo'nalishidagi mahsulotlar, tibbiy texnika buyumlari, dorivor moddalar va respublika sanoati ishlab chiqaradigan mahsulot tarkibida inson uchun zararli moddalar bo'lishi sohasida - O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash vazirligi.

O'zbekiston Rspublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlari O'zdavstandart tomonidan standartlashtirish bo'yicha texnika qo'mitalari (TK), korxonalar, birlashmalar va boshqa manfaatdor

tashkilotlarning bo‘lajak rejalari (dasturlari) tuziladigan yillik rejalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Respublika standartlashtirish rejasiga birinchi navbatda milliy standartlar talablari bilan uyg‘unlashishni, kishilarning xayoti va sog‘ligi uchun xavfsizlikni, atrof-muhitning muhofaza qilinishini, iste’molchilar huquqining himoya qilinishini, milliy sotsial-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarning amalga oshirilishini ta’minlaydigan milliy standartlarni ishlab chiqish kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish sub’ektiga O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish sohasidagi tadqiqot va mutaxassislar tayyorlash oliygohini va viloyatlardagi hududiy markazlarni ham kiritish mumkin.

1.7. Standartlashtirish tamoyillari va ularning ahamiyati

Har qanday faoliyatning rejalashtirilishi va amalga oshirilishi ma’lum bir tamoyillarga asoslanadi. Standartlashtirish ishlarini tashkil qilish va o‘tkazishning asosida ham qator tamoyillar yotadi. Standartlashtirishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat.

Qonuniylik tamoyili.—qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan huquqiy hujjatlarga barcha davlat organlari, mansabdor va boshqa shaxslarning og‘ishmay amal qilishi. Qonuniylik demokratiya va huqukiy davlatnnng elementlaridan biri.

Qonun va qonunga asoslangan hujjatlarga to‘la rioya etishni ta’minlovchi vosita va sharoitlar Qonuniylikning kafolatlari hisoblanadi. Bunday kafolatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, mafkuraviy, maxsus yuridik jihatlari bor. Jamiyatning iqtisodiy riuvojlanish darajasi, turli shakldagi mulkchilik. jamiyatdagi iqtisodiy erkinliklar Qonuniylikning ijtimoiy-iqtisodiy kafolati bo‘ladi. Siyosiy hurfikrlilik, ko‘ppartiyaviylik, davlat tuzumining demokratik tamoyillarga mosligi Qonuniylikning siyosiy kafolatini belgilaydi. Qonun va qonunga asoslangan hujjatlarni tatbiq etish va ularning nazoratini ta’minlovchi samarali mexanizmning mavjudligi Qonuniylikning tashkiliy kafolatidan darak beradi. Aholining huquqiy

ongi darajasi, axloqiy tarbiyasi Qonuniylikka mafkuraviy kafolat beradi. Qonuniylikning ta'minlanishi uchun amaldagi qonunchilikda mavjud usul va vositalar maxsus yuridik kafolat vazifasini bajarad.

Milliy standartlarni ishlab chiqishda manfaatdor taraflarning o'zaro kelishuvi tamoyili.; O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Qonunga muvofiq standartlashtirish ishlarini o'tkazishda, milliy standartlarni ishlab chiqishda manfaatdor tomonlarning davlat boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari bilan olib boradigan hamkorlikdagi ishining shakl va usullarini belgilaydi.

Xolislik tamoyili. Har qanday qaror qabul qilinganda qaror qabul qiluvchi ma'lumotlarni xolislik bilan tahlil gilishi, uning chiqargan qarorida bir yoqlamalik. Xolislik bilan chiqarilgan qarorda hech bir tomonning manfaatlari alohida qaralmasltgi va qaror his tuyhularga berilmasdan chiqarilishi.

standartlardagi takrorlanishlarning va ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan hamjihatlik;

mahsulot kelib chiqqan mamlakatdan va (yoki) joydan, shuningdek ishlab chiqaruvchining mulk shaklidan qat'i nazar, mahsulotga nisbatan kamsituvchi munosabatga yo'l qo'ymaslik;

ochiqlik va shaffoflik.

1.8. Стандартларнинг тоифалари ва турлари

Стандартларнинг тоифалари жумласига қуйидагилар киради:
миллий стандартлар;
халқаро (минтақавий) стандартлар;
хорижий мамлакатларнинг стандартлари.

Me'yoriy hujjatlar toifalarining shartli belgilari

Tasdiqlangan standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga shartli belgilar beriladi. Me'yoriy hujjatlarning shartli belgisi uning indeksidan, ushbu hujjatning ro'yxatga olingan tartib raqamlaridan va tasdiqlangan yilidan iborat bo'ladi. Davlat toifasidagi me'yoriy hujjatlarning indeksi davlat va hujjat nomlarining qisqacha yozilgan

shartli belgilaridan, boshqa hujjatlarning indeksi esa faqat me'yoriy hujjatlarning qisqacha nomlaridan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining lotin alifbosiga o'tishi munosabati bilan barcha toifadagi me'yoriy hujjatlarning va ular majmuining indeksi lotin abbreviaturasida (qisqacha shartli shaklida) ifodalanadi, masalan; davlat toifasidagi me'yoriy hujjatlarning indeksi:

O'zMST -O'zbekiston milliy standarti;

O'zMT -Umumdavlat tasniflagichi;

O'zRN - O'zbekiston rahbariy hujjati;

O'zT - tavsiyalar;

O'zStMT- O'zbekiston standartlashtirish milliy tizimi;

O'zSMT- O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi;

O'zO'MT - O'zbekiston o'lchashlar birligini ta'minlash milliy tizimi;

Tarmoq toifasidagi me'yoriy hujjatlar indeksi:

TST - tarmoq standarti;

TT - tarmoq tasniflagichi;

RH - rahbariy hujjat;

T - tavsiyalar.

Ma'muriy-hududiy toifasidagi me'yoriy hujjatlar indeksi:

Shuni ta'kidlash kerakki, hujjat nomi lotin alifbosida faqat davlat tilida yoziladi. Rus tilidagi davlatlararo standartlarning abberviaturasi eskichaligida, masalan, ГОСТ, saqlanib qolinadi.

Agar xalqaro regional standartlar asosida O'zbekiston Respublikasi milliy standartlari ishlab chiqilgan bo'lsa, uning shartli belgisini ko'rsatishda O'zMSt abberviaturasida ko'rsatiladi.

Standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga shartli belgilar ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish davrida beriladi.

Me'yoriy hujjatlarnung turlari

Standartlashtirish ob'ektlarining o'ziga xos xossasi va ularga qo'yiladigan talablarning mazmuniga qarab standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

asos bo'luvchi standartlar;

mahsulotga (xizmatga) qo'yiladigan standartlar;

jarayonga qo‘yiladigan standartlar;

nazorat (sinash, o‘lchash, tahlil qilish) uslublariga qo‘yiladigan standartlar.

Asos bo‘luvchi standartlar faoliyatning ma’lum bir sohasi bo‘yicha umumiy tashkiliy-uslubiy qoidalarni fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining o‘zaro tushunilishini, texnikaviy birligini va mahsulotni yaratish, qo‘llash, atrof- muhitni himoya va mehnatni muhofaza qilish jarayonlarida har xil ilmu-fan sohalarining, texnika va ishlab chiqarishning o‘zaro bog`liqligini ta’minlaydigan va boshqa umumtexnikaviy talablarni belgilaydi.

Mahsulotga (xizmatga) qo‘yiladigan me’yoriy hujjatlar bir turdagi mahsulot (xizmat) guruhlariga yoki aniq bir mahsulotga (xizmatga)talablar qo‘yadi.

Jarayonlarga qo‘yiladigan me’yoriy hujjatlar mahsulotni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, saqlash, tashish, foydalanish, ta’mirlash va utilizatsiya qilish, texnologik jarayonlarda turli ishlarni bajarish uslublariga (usullariga,tartibi, me’yori va sh.o‘.) talablar qo‘yadi.

Nazorat usullari (sinovlar, tahlil qilishlar, o‘lchashlar, ta’riflashlar) standartlari mahsulotning bitta yoki bir nechta turdosh guruhlariga ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni sinash uchun namunalarni tanlash tartibini, mahsulotning sifat ko‘rsatkichini baholash birligini ta’minlash maqsadida foydalanishni, ta’riflarini nazorat qilish (sinash, tahlil qilish, ta’riflash, o‘lchash) usullarini, shuningdek mahsulotni yaratish, nazorat qilish, sertifikatlashtirish va foydalanish chog`ida sinab ko‘rish usullarini belgilaydi.

1.9. O’zbekiston milliy standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartibi

O’zbekiston milliy standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartiblari asoslda Standartlarni ishlab chiqish to‘rt bosqichdan iborat bo‘ladi:[1]

[1]RST Uz 1.1-92 Стандартлаштириш миллий тизими. Ўзбекистон давлат стандартларни ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва жорий этиш тартиблари.

1 - bosqich - zarurat tug'ilganda standartni ishlab chiqishda texnikaviy topshiriq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

2 - bosqich - standart loyixasini ishlab chiqish (birinchi taxriri) va uni fikr-muloxazalar olish uchun yuborish.

3 - bosqich - fikr-muloxazalar ustida ishlash, standart loyixasini (oxirgi taxririni) ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashga taqdim etish;

4 - bosqich - standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Standart uchun texnik topshiriq faqat zarurat tug'ilganda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Qolgan hollarda birdaniga standart loyihasining birinchi tahriri ishlab chiqiladi.

Standart loyihasini ishlab chiqish va uni fikr mulohazalar olish uchun yuborish. Standart loyihasi texnik qo'mita ish rejasi, tasdiqlangan standartlashtirish jadvali, yangi mahsulot turlarini yaratish rejasi, manfaatdor tashkilotlar taklifi va boshqa ishlab chiqaruvchi korxonalarning tashabbusiga asosan ishlab chiqiladi.. Agar standart loyihasini ishlab chiqish jarayonida muomaladagi o'zaro bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish yoki bekor qilish lozim topilsa, u holda etakchi ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqish, o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha asoslangan takliflar tayyorlanadi va ular asosiy tadbirlar rejasiga kiritiladi.

Standart loyihasini ishlab chiqishda uning toifasi, turi va bo'lishi zarur bo'lgan elementlari e'tiborga olinadi va ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- titul varag'i;
- so'z boshi;
- kirish qismi;
- mundarija;
- standartning nomi;
- qo'llanish doirasi;
- me'yoriy havolalar;
- umumiy qoidalar;
- belgilanish va qisqartirishlar;
- talablar (me'yorlar);
- ilovalar va biografik ma'lumotlar.

Standart loyihasini ishlab chiqish bilan bir vaqtda standart loyihasiga tushuntirish xati ham tuziladi va ma'qullansa standartni joriy qilish bo'yicha asosiy tashkiliy-texnik tadbirlar rejasining loyihasi ishlab chiqiladi.

Agar ishlab chiqarilayotgan standart loyihasi standartlashtirish rejasiga kiritilmagan bo'lsa, u holda yuqori idoraning ushbu standartni ishlab chiqish uchun asos qilib olingan hujjati asos bo'ladi. SHuning bilan birgalikda standart loyihasi kelishishni talab etmasa, u holda tushuntirish xatida standartning kelishilishi shart emasligi ko'rsatiladi va asoslab beriladi.

Standart loyihasi korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgandan so'ng, o'z fikr-mulohazalarini standart loyihasini ishlab chiquvchi tashkilotga 15 kun ichida (qabul qilgan kundan boshlab) kechikmasdan yuboradilar va fikr-mulohazalar oxirida korxona hamda tashkilotlar o'zlariga kerakli standart sonini ko'rsatadilar.

Fikr-mulohazalar ustida ishlash, standart loyihasining so'ng tahririni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashga taqdim etish. Korxona va tashkilotlar tomonidan yuborilgan standart loyihasi bo'yicha fikr-mulohazalar bilan etakchi tashkilot tanishib chiqqandan so'ng, ularga asosan fikr-mulohazalar majmuini tuzadi. Belgilangan vaqtdan so'ng yuborilgan fikr-mulohazalar etakchi tashkilotning ixtiyoriga ko'ra ko'rib chiqiladi va ma'qul bo'lsa fikr-mulohazalar majmuiga qo'shiladi. Fikr-mulohazalar majmuiga asosan standart loyihasining so'ngi tahriri ishlab chiqiladi va asosiy tadbirlar rejasi hamda tushuntirish xatiga aniqliklar kiritiladi.

Agar ishlab chiqaruvchi tashkilot bilan boshqa manfaatdor tashkilotlar o'rtasida standart loyihasi yoki asosiy tadbirlar rejasi loyihasi bo'yicha nizolar paydo bo'lsa, u holda etakchi ishlab chiquvchi tashkilot nizolarni muhokama qilish maqsadida kengash chaqiradi va manfaatdor tashkilotlar hamda iste'molchilarning vakillari ishtirokida uning majlisi o'tkaziladi. Etakchi tashkilot kengash qatnashchilariga kengash boshlangunga qadar 10 kun oldin oladigan muddatda fikr-mulohazalar majmuidan ko'chirma va kengash taklifnomalarini yuboradi. Kengash qarori uning barcha qatnashchilari imzo chekkan bayonnoma bo'yicha rasmiylashtiriladi. Kengashda qabul qilingan qaror asosida standart loyihasi, tushuntirish xati

va asosiy tadbirlar rejasining oxirgi tahriri tuziladi va u birinchi tahrirdek iste'molchilar va manfaatdor tashkilotlar bilan kelishib olinadi.

Kelishilgan standart yoki kelishilganlik to'g'risidagi xat etakchi ishlab chiquvchi tashkilotga yuborilishi shart.

Standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish

Standart loyihasini oxirgi tahririni tasdiqlashga yuborishdan oldin tayanch tashkilot yoki standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita standartni ilmiy-texnik va huquqiy ekspertizadan o'tkazadi.

Ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan standart loyihasi tasdiqlash uchun quyidagi to'plam shaklida beriladi:

- ilova xati;
- standart loyihasining oxirgi tahririga tushuntirish xati;
- asosiy tadbirlar rejasining loyihasi;
- standart loyihasining 4 ta nusxasi;
- standart loyihasi to'g'risida fikr-mulohazalar majmui;

Respublika standartini davlat ro'yxatiga olish . Texnik jihatdan tartibga solish agentligining "O'zbekiston standartlar instituti" davlat muassasasi (Standartlar instituti) tomonidan amalga oshiriladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun standart 4 nusxada (2 nusxa asli va 2 nusxa ko'chirma) topshiriladi.

Standartni ro'yxatga olgan idora uning asl nusxasi va ikkinchi nusxasini standartni ishlab chiqqan tashkilotga qaytaradi, ikkinchi nusxasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligining . Texnik jihatdan tartibga solish agentligining "O'zbekiston standartlar instituti" davlat muassasasi (Standartlar instituti) da qoladi. Standart ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng 15 kun ichida uning bir nusxasi Respublika ilmiy-texnik kutubxonasiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi milliy standarti, Qurilish davlat Qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi nomenklatura bo'yicha o'zlariga tegishli standartlarning loyixalari va xujjatlarini ko'pi bilan 15 kun mobaynida ko'rib chiqilishini, shuningdek davlat ekspertizasidan o'tkazilishini ta'minlaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi milliy standarti, Qurilish davlat qo‘mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi standart loyihalarini ko‘rib chiqadi va uni tasdiqlash yoki kam-ko‘stini to‘ldirib, qayta ishlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Standart uni tasdiqlagan tashkilotning qarori bilan tasdiqlanadi va joriy qilinadi. Standart muddati cheklanmagan yoki muddati cheklangan tarzda tasdiqlanadi. Standartni tasdiqlash chog‘ida asosiy tadbirlar rejasi loyihasiga binoan ishlarni amalga oshirishni hisobga olgan holda standartni joriy qilish sanasi yoki standartning amal qilish muddati, shuningdek birinchi tekshiruv muddati va keyingi tekshiruvlarning qachon bo‘lishi belgilab ko‘yiladi.

Qullanish muddati tugashi bilan standart huquqiy kuchini yo‘qotadi. Respublika standartini davlat ro‘yxatiga olishni Texnik jihatdan tartibga solish agentligining “O‘zbekiston standartlar instituti” davlat muassasasi (Standartlar instituti) (Standartlar instituti) tomonidan amalga oshiradi.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun standart 4 nusxada topshirilishi lozim; asl nusxasi, ikkinchi nusxasi va 2 ta ko‘chirma.

Standart 5 kundan oshmagan muddatda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak. Standartning qaysi tashkilot tomonidan tasdiqlanishidan kat’iy nazar, standartga rakamli belgini Texnik jihatdan tartibga solish agentligining “O‘zbekiston standartlar instituti” davlat muassasasi (Standartlar instituti) beradi.

Ro‘yxatga oluvchi asl nusxa, ikkinchi nusxasi va ikkita ko‘chirmaning birinchi betiga o‘zining nomi ko‘rsatilgan to‘rt burchak muxrini bosadi, sana va davlat ro‘yxatining nomerini yozib qo‘yadi. Ikkinchi nusxa va ko‘chirmaning bitta nusxasi. Texnik jihatdan tartibga solish agentligining “O‘zbekiston standartlar instituti” davlat muassasasi (Standartlar instituti) da qoladi.

Asl nusxa va ko‘chirmaning ikkinchi nusxasi ishlab chiquvchiga qaytariladi. Texnik jihatdan tartibga solish agentligining “O‘zbekiston standartlar instituti” davlat muassasasi (Standartlar instituti) standartni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin 15 kun davomida

ko‘chirmaning bitta nusxasini Respublika ilmiy-texnikaviy kutubxonasiga yuborishi kerak.

1.10. Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari va ularning vazifalari

ISO tashkiloti va uning asosiy vazifalari.

Hozirgi kunda jahonda standartlashtirish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan xalqaro tashkilotlaridan ISO xalqaro tashkiloti yirik tashkilotlardan biri bo‘lib hisoblanandi va 100 ga yaqin mamlakat uning a’zosi hisoblanadi. SHu jumladan, O‘zbekiston ham 1994 yilning 1 yanvaridan boshlab ISO xalqaro tashkilotining teng huquqli a’zosi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ISO xalqaro tashkiloti o‘zining faoliyatida 400dan ortiq har xil sohadagi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va aloqa bog‘lab turadi. Uning qo‘mitalari, ya’ni a’zolari standartlashtirish bo‘yicha milliy tashkilotlar hisoblanadi. SHu narsani alohida qayd etish joizki, ISO tashkilotiga har bir mamlakatdan faqat bitta standartlashtirish milliy tashkiloti a’zo qilib qabul qilinadi, chunki ba’zi mamlakatlarda standartlashtirish bo‘yicha bir necha milliy tashkilotlar faoliyat ko‘rsatadi.

1964 yilda ISO kengashi ayrim davlatlarda milliy standartlashtirish tashkilotlari hali tashkil etilmaganligini e’tiborga olgan holda, bu mamlakatlardan ISOga a’zolikka muhbir a’zo qilish haqida qaror qabul qildi. Muhbir a’zolarning huquqiy holati (statusi) bo‘yicha ular ISO byudjetiga a’zolik badallarini to‘lab turgan holdagina ISOning xalqaro standartlari va axborotlaridan foydalanishga haqlidir. SHuning bilan birgalikda muhbir a’zo bo‘lgan davlatlar ISOning texnik qo‘mitalari yig‘ilishlariga o‘zlarining vakillarini faqat kuzatuvchi sifatida qatnashish uchun yuborishlari mumkin.

ISOning organlariga quyidagilar kiradi:

- Bosh assambleya;
- Kengash;
- Kengash qo‘mitalari;

Kengash (sovet) prezidenti, vitse-prezident, xazinachi va 18 ta a’zolardan iborat bo‘ladi va har 3 yilda qaytadan saylanadi. Kengash ISO

faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni ko'rib chiqadi va tegishli qarorlar qabul qiladi. Kengash yig'ilishiga a'zolar har yili kamida bir marta to'planishadilar. ISO va uning Markaziy kotibiati tashkilotning tashkil topgan vaqtidan hozirgi kunga qadar o'z faoliyatini Jeneva shahrida olib bormoqda. Tashkilot tili ingliz, fransuz va rus tillari hisoblanadi va texnik qo'mitalar ishlari hamda tashkilot yozishmalari ushbu tillarning birida olib boriladi. ISOning kengashi qoshida standartlarning ayrim jihatlarini malakali tarzda ko'rib chiqilishini ta'minlovchi bir necha maslahatchi qo'mitalar mavjud, inson salomatligini saqlash va tabiatni muhofaza qilish masalalariga qaratilgan.

Keyingi vaqtlarda barcha mamlakatlarda xalqaro standartlar talablari asosida standartlashtirish ishlarini olib borish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday e'tibor ko'plab rivojlangan mamlakatlarning standartlashtirish bo'yicha ishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, Buyuk Britaniyadagi mavjud 9600 standartning 2647 tasi ISO tashkiloti bilan hamkordir. Fransiyadagi 1099 ta standartdan 428 tasi belgilangan talablar bo'yicha ISO xalqaro standartlashtirish tashkilotining talablariga javob beradi.Xalqaro standartlar quyidagi bosqichlarda ishlab chiqiladi:

- xalqaro standartlarni ishlab chiqish bo'yicha texnik qo'mitaning takliflarini ko'rib chiqish va ularni dasturga kiritish;
- ishchi loyihani maxsus tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan ishlash;

kotibiat tomonidan loyihani texnik qo'mitalar, kichik texnik qo'mitalar va faol a'zolarga yuborish hamda texnik qo'mitaning xalqaro yig'ilishini o'tkazish;

- loyiha to'g'risidagi fikrlarni rasmiylashtirilgandan so'ng ularni ISOning Markaziy kotibiatiga (sekretariatiga) berish va loyihani TQ va KQlarga ovoz berish uchun yuborish;
- ovoz berilgandan so'ng loyihani qabul qilish;

Markaziy kotibiat tomonidan xalqaro standartni chop etish.

Birinchi bosqichda xalqaro standartlarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar kotibiat tomonidan barcha texnik qo'mitalarga standartni ishlab chiqish maqsadga muvofiq yoki nomuvofiqligini bilish maqsadida yuboriladi. Agar texnik qo'mitalar va kichik qo'mitalar ushbu takliflar bo'yicha

ijobiy fikrlar bildirishsa, u holda hujjatning ishchi loyihasini ishlashga kirishiladi

Ikkinchi bosqichda hujjatning ishchi loyihasi ko'p hollarda maxsus tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan qayta ishlanadi. Ishchi loyihalar ma'lum bir davlat tomonidan ham texnik qo'mitalar, ham kichik qo'mitalarga ko'rib chiqish uchun yuborilishi mumkin. Ushbu ishchi loyiha umum kelishuvdan so'ng texnik qo'mita yig'ilishida yoki xatlar orqali ISOning Markaziy kotibiatiga xalqaro standartning loyihasi sifatida qayd etish uchun topshiriladi, unga maxsus tartib raqami (nomer) beriladi va bu tartib raqami xalqaro standart chop etilganga qadar o'zgartirilmaydi.

Uchinchi bosqichda loyiha kotibiat tomonidan texnik qo'mitalar, kichik qo'mitalar va faol a'zolarga yuboriladi hamda texnik qo'mitaning xalqaro yig'ilishi o'tkaziladi. Albatta bir martadagi yig'ilishda loyiha bo'yicha yaxlit bir qarorga kelishish qiyin. SHuning uchun qo'mitaning bir necha yig'ilishlarini o'tkazishga to'g'ri keladi. Har bir yig'ilishdan so'ng hosil bo'lgan hujjat 1-, 2- va 3- loyiha deb nomlanadi. SHuning uchun ham xalqaro standartlarni ishlab chiqish muddatini qisqartirish maqsadida loyihalarning soni uchtadan ortiq bo'lmasligi belgilanib qo'yilgan.

To'rtinchi bosqichda loyiha to'g'risidagi fikrlarning ijobiyligiga eri shilgandan so'ng, ISO talabi bo'yicha rasmiylashtirilgan loyiha ISOning Markaziy kotibiatiga xalqaro standartning loyihasi sifatida qayd etilishi uchun topshiriladi va loyiha TQ va KQ a'zolariga ovoz berish uchun yuboriladi. Ushbu loyiha texnik qo'mita a'zolari ijobiy ovoz berganliklari to'g'risidagi hujjat bilan birgalikda Qo'mitalarga – ISO a'zolariga, ya'ni standartlashtirish bo'yicha milliy idoralar (organlar)ga jo'natiladi. Ishni tezlatish uchun ikkala jarayonni bi rgalikda qo'shib, bir vaqtning o'zida ovoz berish uchun yuborish ham mumkin.

Xalqaro standartlarni ishlab chiqish juda murakkab jarayon, shuning uchun ham ularni ishlab chiqish muddati o'rtacha 5-6 yilga teng, ayrim hollarda ularni ishlab chiqish hatto 10 yil va undan ortiq vaqt ham talab etadi. ISO xalqaro standartlarni ishlab chiqishga doir butun asosiy faoliyatini uzining texnik qo'mitalari (ISO/TK) va kachik qo'mitalari

(ISO TK/PK) orqali amalga oshiradi, ularning har biri muayyan soha bo'yicha ixtisoslashgan. Har bir texnik qo'mita uning ishini va ixtisoslashuvini aks ettiradigan tartib rakami va nom beradi. Masalan, ISO/TK 23 "Qishloq xo'jaligi traktorlari", ISO/TK 34 "Qishloq xo'jalik oziq-ovqat mahsulotlari" va boshqalar.

Texnik qo'mitaning ish sohasi juda katta va ko'p qirrali bo'lgan hollarda uning muvaffakiyatli ishlashi uchun qo'mita doirasida birmuncha tor sohadagi masalalarni xal qiladigan kichik qo'mitalar va ishchi guruxlari (IG) tashkil etiladi. Kichik qo'mitalar va ishchi guruhlari, odatda, cheklangan muddatga tashkil qilinadi va ko'yilgan vazifalar bajarilganidan keyin tarqatib yuboriladi. Har bir texnik qo'mita kengash tomonidan ushbu qo'mitaning mazkur (TKning) kotibiyatini yuritish xoxishini bildirgan faol a'zolari hisobiga tayinlanadigan kotibiyatga ega bo'ladi. ISO ning texnik qo'mitalari ular olib boradigan ish natijalaridan manfaatdor bo'lgan boshqa xalkaro va mintakaviy tashkilotlar bilan faol aloo'a olib boradi. Nizomga binoan uz mamlakatlarida eng nufuzli bo'lgan, nizomga va rusm- qoidalarga rioya qilish xoxishini bildirgan va rusum- qoidalarga ko'ra belgilangan tartibga binoan tashkilotga qabul qilingan standartlash bo'yicha milliy tashkilotlar ISO a'zolari bo'lishi mumkin.

Uzlarida standartlash bo'yicha maxsus tashkilotlar xali tashkil etilmagan, lekin standartlash bo'yicha xalkaro tashkilot ishida qatnashishni xoxlaydigan mamlakatlar uchun muxbir a'zolar muassasalari tashkil qilingan. Muxbir a'zolar TK ishida faol qatnashmaydi, ular ovoz berish xuquqiga ega emas, biroq TK da olib boriladigan ishlar xaqida to'liq axborotni olishadi. ISOning ko'pchilik muhbir a'zolari rivojlanaetgan mamlakatlardir.

Kengash qonunda bir necha maslahat ko'mitalari tashkil qilingan bo'lib, ular standartlashning ayrim jixatlarining malakali tarzda kirib chiqilishini ta'minlaydi, ular quyidagilardir.

1. Standartlashtirishning ilmiy prinsiplarini o'rganish bo'yicha Komitet-STAKO hisoblanadi, ISO/STAKO. Bu qo'mita standartlashtirish prinsiplari, uning samaradorligi, halkaro standartlarni qo'llash va boshqa ishlarni olib boradi.

2. Sertifikatsiya bo'yicha komitet (ISO/SERTIKO) – bu komitet mahsulotlarni sertifikatlashtirish masalalarini o'rganadi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqadi. Komitetning faoliyatiga mamalakatlarning milliy sertifikatsiya tizimi, milliy va xalkaro sertifikatsiya qonunlariga asosan ular xavfsizlik, inson salomatligini saqlash, tabiatni muhofoza qilish masalalariga karatilgan bo'lsa, uzaro tan olish va tavsiyalar ishlash masalalari bilan shug'ullanadi.

3. Axborotlashtirish qo'mitasi - INFKO, ISO/INFKO. Bu qo'mita standartlashtirish bo'yicha axborotlashtirish markazlarining ishlarini uyg'unlashtirish va koordinatsiyalashtirish masalalari bilan shug'ullanadi. Masalan, standartlarga va boshqa xujjatlarga avtomatik ishlovini tashkil etish uchun guruhlash va indeksatsiya masalalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi, xalkaro standartlarni abxorotlashtirish tizimlarida qo'llashni tashkil etadi va xokazolar.

4. Iste'mol masalalari qo'mitasi - KOPOLKO, ISO/KOPOLKO. Bu qo'mita qqo'yidagi funksiyalarni bajaradi:

a) iste'molchilarning milliy va xalkaro standartlashtirishda keng ishtiroq etishini ta'minlash bo'yicha tegishni tadbirlar o'tkazadi;

b) standartlashtirish nuqtai nazaridan iste'molchilarni axborot bilan ta'minlash, ularning xaq- xuquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha ishlar olib boradi;

v) iste'molchilarning xalk iste'mol tovarlari bo'yicha xalqaro standartlashtirish ishlarida qatnashishi bo'yicha yig'ilishlar o'tkazadi;

g) iste'molchilar manfaati bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha ISOning boshqa organlari bilan aloqalar olib boradi.

MEK tashkiloti va uning asosiy vazifalari.

Xalqaro elektrotexnik komissiyasi – MEK 1906 yilda tashkil etilgan bo'lib, 45 dan ortiq mamlakatni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda MEKning a'zolari bo'lgan mamlakatlarda er qirrasining 80% aholisi yashaydi va 95% dunyodagi ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatining iste'molchisi hisoblanadi. MEK ingliz, fransuz va rus tillarida ish olib boradi. Uning 80 dan ortiq texnik qo'mitalari mavjud, shulardan 4 tasi uy

xo'jaligi, elektr asbob-uskunalari (priborlari) va radioelektron apparatlari bo'yicha qo'mitalar hisoblanadi.

MEK xalqaro bozorda sotiladigan tovarlarning elektr xavfsizligi bo'yicha standartlar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Jumladan, hozirgi kunga qadar MEK tomonidan 1600dan ortiq standartlar ishlab chiqilgan.

MEK xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISOdan so'ng eng nufuzli xalqaro tashkilot hisoblanadi. MEK standartlari milliy qo'mitalar tomonidan qayta ishlanadi va standartlami ishlab chiqish uchun milliy qo'mitalar taklif kiritadilar. Standartlar loyihasini ishlash haqidagi oxirgi qaror texnik qo'mitaning yig'ilishida qabul qilindi. Undan so'ng MEK standartlarini ishlab chiqish uchun ishchi guruhlar tuzadi va bularga har bir mamlakatning mutaxassislari kirishi mumkin. Ishchi guruhlar standart loyihasini ishlab chiqib, yig'ilishda ko'rib chiqadi va umum kelishuvdan so'ng texnik qo'mitaning kotibiatiga topshiradi. SHuning bilan birgalikda MEK standartining loyihasi sifatida qandaydir bir mamlakatning milliy standarti ham qabul qilinishi mumkin.

Davlatlarning loyiha bo'yicha fikr - mulohazalari texnik qo'mitada ko'rib chiqiladi va fikr-mulohazalar ma'qul deb topilsa, u holda ular kotibiatga topshiriladi. Davlat vakillarining kelishuvidan so'ng kotibiat loyihani ovoz berishga yuboradi. Davlatlarning milliy qo'mitalari 6 oy mobaynida byulletenlarni to'ldirishib Markaziy byuroga jo'natishlari kerak, chunki kotibiat 6 oy o'tgandan so'ng hisob-kitob qiladi. Agar loyihaga ovoz beruvchilarning 1/5 qismi qarshi bo'lmasa, u holda loyiha qabul qilinadi.

MOZM tashkiloti va uning asosiy vazifalari.

Yana bir standartlashtirish bo'yicha halkaro tashkilot - MOZM - Metrologiya qonuniyati bo'yicha xalqaro tashkilot (mejdunarodnaya organizatsiya zakonodatelnoy metrologii) deb yuritiladi. Bu xalqaro tashkilot 1955 yilda tashkil topgan edi.

MOZM ning faoliyatining asosiy yo'nalishi quyidagilarga qaratilgan: a) MOZM ga a'zo mamlakatlar uchun o'lchov vositalari metrologik tavsifining yagona birligini ta'minlash;

b) tekshiruv jixozlarini, etalon, namuna, ishchi o'lchov vositalarining uygunligini ta'minlash;

v) xalqaro masshtabda o'lchashning yagona birligini ta'minlash;

g) metrologik xizmatining optimal shakllarini ishlab chiqish;

d) rivojlanayotgan mamalakatlarga metrologik xizmatni tashkil etish va uyushtirish borasida ilmiy-texnikaviy hamkorlikni amalga oshirish va texnik vositalar bilan jixozlashda yordam ko'rsatish;

j) metrologiya sohasida har xil darajadagi kvalifikatsiya berishda kadrlar tayyorlashning yagona prinsipini o'rnatish va boshqalar.

MOZM ning raxbarlik oliy organi metrologiya bo'yicha Xalkaro konferensiya hisoblanadi va u 4 yilda 1 marta chaqiriladi. Konferensiya va komitetlar ishi Xalkaro byuro tomonidan amalga oshiriladi. Byuroning direktor, direktor o'rinbosalari, injenerlari va xizmatchilari mavjud. Byuro Parijda joylashgan.

1.11. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, akkreditasiya, sifatni boshqarish tizimlari sohasida faoliyat ko'rsatadigan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar

CEN-European Committee for Standardization – Yevropa standartlashtirish qo'mitasi. Yevropa standartlashtirish qo'mitasi tomonidan nashr yetilgan standartlarning qisqartmasi va o'ziga xos belgisi. Ushbu tashkilot Yevropa Ittifoqi va EFTA - Evropa erkin savdo uyushmasi tomonidan tasdiqlangan ixtisoslashgan spesifikasiya agentliklaridan biridir.

ETSI-European Telecommunications Standards Institute – Telekommunikasiya sohasida Yevropa standartlashtirish institute 1988 yilda tashkil etilgan. Bosh qarorgohi: Sophia Antipolis, Frantsiy. Evropa telekommunikatsiya standartlari instituti Evropadagi telekommunikatsiya sanoati uchun standartlashtirish bo'yicha mustaqil notijorat tashkilotdir. ETSI GSM uyali aloqa tizimini va TETRA professional mobil radio tizimini muvaffaqiyatli standartlashtirdi. ETSI 3GPP yaratuvchilardan biri hisoblanadi. Ta'sischisi: CEPT

ITU-International Telecommunication Union –Xalqaro elektroaloqa birlashmasi. Xalqaro elektraloqa ittifoqi (ITU, inglizcha:

International Telecommunication Union, ITU) telekommunikatsiya va radio sohasida tavsiyalarni belgilaydigan, shuningdek, radiochastotalardan xalqaro foydalanish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotdir (radiochastotalarni belgilangan manzillar bo'yicha taqsimlash va mamlakat bo'yicha). 1865 yilda Xalqaro Telegraf Ittifoqi sifatida tashkil etilgan bo'lib, u 1947 yildan beri BMTning ixtisoslashgan agentligi hisoblanadi. ITU tarkibiga 193 mamlakat va 700 dan ortiq sektorlar va uyushmalar (ilmiy va sanoat korxonalari, davlat va xususiy aloqa operatorlari, radioeshittirishlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar) kiradi.

CODEX ALIMENTARIUS FAO-WHO - 1943 yilda asos solingan va hozirda dunyoning 197 tadan ziyod davlatlari a'zo hisoblangan BMTning FAO (Food and Agriculture Organization) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli me'yorlarni belgilaydi; CODEX ALIMENTARIUS FAO tomonidan oziq-ovqat standartlarini ishlab chiqish bo'yicha qo'shma dasturi doirasida tashkil etilgan organdir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi vazifalari nimadan iborat?
2. «O'zbekiston standartlar instituti» davlat muassasasi. vazifalari nimadan iborat?
3. «O'zbekiston milliy metrologiya instituti» davlat muassasi faoliyatining asosiy vazifalarini aytib bering?
4. Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta`minlash departamentining asosiy vazifalari nimadan iborat?
5. "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasasining vazifalarini aytib bering?
6. "Shtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi" davlat korxonasi asosiy faoliyati nimadan iborat?

7. "O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasining asosiy funksiyalari nimadan iborat?

8. O'zbekiston Respublikasi "Standartlashtirish to'g`risida"gi qonuni mazmuni nechta bob va moddada izohlangan?

9. Standartlashtirish davlat tizimi deganda nimani tushunasiz?

10. Standartlashtirish deb nimaga aytiladi?

11. Standartlashtirish ob'ekti nima?

12. Standart so'zining ma'nosi nima?

13. Milliy standart nima?

14. Xalqaro standartlashtirish deganda nimani tushunasiz?

15. Mintaqaviy standartlashtirishga ta'rif bering?

16. Standartlashtirishning asosiy maqsadini aytib bering?

17. Standartlashtirishning vazifalari nimadan iborat?

18. Standartlashtirishning tamoyillariga nimalar kiradi?

19. Standarlashtirish ishlari qaysi miqyoslarda olib boriladi?

20. Standartlashtirish bo'yicha shug`ullanadigan idoralarga qaysi tashkilot kiradi?

21. Standartlashtirish idoralarining vazifalari nimadan iborat?

22. Standartlashtirish xizmatlarini aytib bering?

23. O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha qanaqa me'yoriy hujjatlar qo'llaniladi?

24. Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar turkumiga nimalar kiradi?

25. Standartlashtirish bo'yicha xalqaro standartlashtirish tashkilotlari?

26. ISO tashkiloti va uning asosiy vazifalari nimadan iborat?

27. ISO xalqaro standartlashtirish tashkiloti tarkibida qanaqa texnik qo'mitalari (ISO/TK) mavjud?

28. ISO/STAKO ning asosiy faoliyati nimadan iborat?

29. ISO/SERTIKO ning asosiy faoliyati nimadan iborat?

30. ISO/INFKO ning asosiy faoliyati nimadan iborat?

31. MEK tashkiloti va uning asosiy vazifalari nimadan iborat?

32. MOZM tashkiloti va uning asosiy vazifalari nimadan iborat?

II BOB. METROLOGIYA ASOSLARI

2.1. Metrologiyaning asosiy faoliyati

Atrofimizdagi ixtiyoriy olinir obyekt (predmet, jarayon yoki xodisa) to'g'risida gap borganda, albatta ularni tavsiflovchi muayyan xossa (xodisalar)ni ko‘z oldimizga keltiramiz. Bu xossalar miqdoriy baholanishi mumkin. Odatda miqdoriy baholashni faqatgina o‘lchashlar amali orqaligina bajarish mumkin. 0 ‘lchashlar inson faoliyatining ajralmas bo‘lagi bo'lib, uning ongli hayotini asosini tashkil etadi. Kishi erta bilan uyg‘ongan zahoti birinchi navbatda vaqtni baholaydi, ishga, o‘qishga ketayotganda masofani baholaydi va h.k. Ona tabiat insonni shunday bir ajoyib xususiyat, hissiyot bilan ta’minlaganki, uni murakkab bir o‘lchash asbobi sifatida tushunishimiz mumkin. Ammo, shuni ta’kidlash zarurki, atrofdagi muhitni, borliqni faqat hissiyot vositasidagina bilish yyetarli emas, faqatgina ularni o‘lchashlar orqaligina bilib kerakli xulosalar chiqarib olishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda xech bir mutaxassis yo‘q-ki, u o‘z ish faoliyati mobaynida o‘lchashlarni qo‘llamasa. lining oldida turgan muammo qanchalik murakkab bo‘Isa, O‘lchashlarning ahamiyati shunchalik salmoqii boladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda inson faoliyatining 3000 dan ortiq sohasi aynan olchashlar bilan chambarchas bogliq ekan. Har bir ishda muayyan tartib-qoidalar bolgani kabi oclchashlarning ham o‘ziga xos bo‘lgan qoidalari, usullari va uslublari mavjud bo‘lib. bularnmg bari zining me’yoriy hujjatlari asosida biror bir tizimga keltiriladi. Olchash texnikalari, ayniqsa hisoblash vositalariga asoslangan o‘lchash qurilmalari ilm va fanning rivojlantiruvchi katalizatori hisoblanadi. Fan va texnikaning rivoji (taraqqiyoti) hamma vaqt olchashlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan va albatta o‘lchashlaming insoniyat taraqqiyotidagi o‘mil, ahamiyati beqiyosdir. Mashhur rus olimi D.I. Mendeleev o‘lchash haqida shunday degan edi: har bir fan, eng avvalo o‘lchash bilan boshlanadi”, “Bilish uchun olchash kerak, o‘lchash uchun esa o'lchovni bilish kerak”. Shuning uchun ham asosiy maqsad faqat o‘lchash emas, uning o'lchovini ham bilish zarurligini ko'rsatib o‘tgan. Galileo Galiley “0 ‘lchab boladiganini olchang, mumkin

bo‘lmaganiga imkoniyat yarating” kabi bashoratlari o‘lchashlaming ahamiyatini yanada yuqoriga ko‘targan.

Metrologiya fan sifatida o‘lchashlar, ularga bogliq va tegishli bo‘lgan qator masalalami o'z doirasiga oladi. Metrologiya aslida yunonchadan olingan bo‘lib, olchash, o'lcham, nutq, mantiq, ilm yoki fan ma’nolarini bildiradi. Umumiy tushunchasini oladigan bo'lsak metrologiya - olchashlar haqidagi fan. Zamonaviy metrologiya uchta asosiy bolimdan iborat: nazariy. qonuniashtiruvchi va amaliy metrologiya. Yuqoridagi atamalarni quyidagicha ta’riflash mumkin: Nazariy metrologiya - metrologiyaning fundamental asoslarini ishlab chiqish predmeti bo'lgan metrologiya bolimidir, ba'zi hollarda “fundamental metrologiya deb ham yuritiladi. Qonuniashtiruvchi metrologiya - metrologiya bo'yicha olchash usullari va birliklar, olchash vositalari va o‘lchash laboratoriyalariga davlat talablarini o‘z ichiga olgan metrologiya bolimi. Amaliy metrologiya — nazariy metrologiya ishlanmalarini va qonuniashtiruvchi metrologiya qoidalarini amalda qo‘llanish masalalari bilan shugullanuvchi metrologiya bo‘limi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g`risida” gi qonuni

O‘zbekiston Respublikasining «Metrologiya to‘g`risida»gi qonuni ham 1993 yilning 28 dekabrida qabul qilingan bo‘lib, 2020 yil 7 aprelda qayta ko’rib chiqib yangi tahriri qabul qilindi. Qonunning yangi tahriri 5-bob, 32- moddadan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oliadi:

1-bob. Umumiy qoidalar
2- bob. Metrologiyaga oid faoliyat sohasini tartibga solish
3-bob. Metrologiyaga oid faoliyatni tashkil etish
4-bob. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati
5-bob. Yakunlovchi qoidalar

Ushbu qonuning «Umumiy qoidalar» bo‘limida metrologiya qonunning maqsadi, metrologiya to‘g`risidagi qonunchilik,

metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar, metrologiyaga oid faoliyat sohasinining asosiy tamoilari izohlangan.

Qonunning maqsadi metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Metrologiya to'g`risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining metrologiya to'g`risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasida o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash; ishonchsiz o'lchash natijalarining oldini olish; xolis, ishonchli va solishtiriladigan o'lchash natijalariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish; o'lchash natijalarining milliy va xalqaro etalonlargacha metrologik kuzatiluvchanligini ta'minlash.

Metrologiyaga oid faoliyat sohasining asosiy tamoillari quyidagilardan iborat: qonuniylik; metrologiya tekshiruvi va nazorati natijalarining xolisligi; ilmiy asoslanganlik; o'lchash birliklari qo'llanilishida xalqaro birliklar tizimining ustuvorligi; boshqaruv tizimining yagonaligi; ma'lumotlarning oshkoraligi va ochiqligi.

"Metrologiyaga oid faoliyat sohasini tartibga solish" bobida metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi vakolatlari, O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati, maxsus vakolatli davlat organining metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi vakolatlari, maxsus vakolatli davlat organi Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bo'linmalarining vakolatlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlarining hamda yuridik shaxslar metrologiya xizmatlarining vakolatlari bayon etilgan.

Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: metrologiyaga oid faoliyatni xalqaro talablar asosida rivojlantirish; investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda

ularni ishlab chiqarish amaliyoti bilan integratsiya qilish; metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; ilg`or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishini rag`batlantirish; noto‘g`ri o‘lchash natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi vakolatlari quydagilardir: metrologiyaga oid faoliyat sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi; metrologiyaga oid faoliyat sohasida davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi; o‘z vakolatlari doirasida metrologiyaga oid faoliyat sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi; metrologiyaga oid faoliyat sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi; kattalik birliklarining nomlari va belgilari, ularni yozish va qo‘llash qoidalarini, metrologiya tekshiruvi va nazorati tartibini, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o‘tkazilgan o‘lchash vositalarini sinash va metrologik attestatsiyadan o‘tkazish, qiyoslash, kalibrlash natijalarini O‘zbekiston Respublikasida e’tirof etish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati. Metrologiyaga oid faoliyat sohasining davlat tomonidan boshqarilishini metrologiya bo‘yicha milliy organ —maxsus vakolatli davlat organi amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat metrologiya xizmatidan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlaridan, shuningdek davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hisoblanmaydigan yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlaridan iboratdir. Davlat metrologiya xizmati maxsus vakolatli davlat organi va uning Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bo‘linmalaridan, shuningdek O‘zbekiston milliy metrologiya institutidan iborat. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari

huzuridagi maxsus tashkil etilgan hamda akkreditatsiya qilingan bo‘linmalardan iboratdir.

Maxsus vakolatli davlat organining metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi vakolatlari: metrologiyaga oid faoliyat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; mamlakatda metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi mintaqalararo va tarmoqlararo tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi; milliy etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va ishchi holatda saqlab turish qoidalarini o‘rnatadi, shuningdek ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta’minlaydi; o‘lchash uslublari, vositalari va natijalariga qo‘yiladigan umumiy metrologik talablarni belgilaydi; davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini amalga oshiradi, shuningdek metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi harakatlarni muvofiqlashtiradi; davlat sinovlaridan o‘tgan va turi tasdiqlangan yoki metrologik attestatsiyadan o‘tkazilgan o‘lchash vositalarining davlat reestrini yuritadi; o‘z vakolatlari doirasida, shu jumladan boshqa davlat boshqaruvi organlari bilan hamkorlikda normativ-huquqiy hujjatlarni va normativ hujjatlarni qabul qiladi; ilmiy kadrlar va muhandis-texniklar tayyorlashni hamda qayta tayyorlashni tashkil etadi; O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi; o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning mutaxassislarini jalb etadi; o‘z vakolatlari doirasida xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etadi;

O‘zbekiston Respublikasining o‘lchashlar yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash tizimi ishlashi va rivojlanishini hamda uning xalqaro birliklar tizimi va boshqa mamlakatlarning kattalik birliklari tizimlari bilan uyg`unlashuvini ta’minlaydi; iste’molchilar huquqlarini, fuqarolarning sog`lig`i va xavfsizligini, atrof-muhitni hamda davlat manfaatlarini noto‘g`ri o‘lchash natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi; davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek tashkilotlardan o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotni oladi.

O‘zbekiston milliy metrologiya institutining vakolatlari: O‘zbekiston Respublikasi milliy etalonlar bazasini takomillashtiradi va rivojlanishini ta’minlaydi; etalonlarni va eng yuqori aniqlikdagi o‘lchash vositalarini saqlab turish hamda ularni xalqaro darajada solishtirish, shuningdek kattalik birliklarini saqlash va uzatish bo‘yicha ishlarni bajaradi; o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashga doir normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi; metrologiya tekshiruvi natijalarini o‘zaro e’tirof etish bo‘yicha xalqaro shartnomalarni ro‘yobga chiqarishda ishtirok etadi; metrologiya tekshiruvini va metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlarining hamda yuridik shaxslar metrologiya xizmatlarining vakolatlari: davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlarining hamda yuridik shaxslar metrologiya xizmatlari akkreditatsiya qilingan holda o‘lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash ishlarini bajaradi; o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashga doir normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi.

Metrologiyaga oid faoliyatni tashkil etish bobida: o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashga doir normativ hujjatlar, kattalik birliklari, kattalik birliklarining etalonlari, o‘lchash vositalari va sinov vositalari, o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlari bayon etilgan.

Metrologiya normalari va qoidalarini belgilovchi hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashga doir normativ hujjatlarni tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashga doir normativ hujjatlarning quyidagi turlari qo‘llaniladi: o‘lchash vositalarini qiyoslash uslubiyoti; o‘lchash vositalarini kalibrlash uslubiyoti; o‘lchashlarni bajarish uslubiyoti; sinov vositalarini attestatsiyadan o‘tkazish uslubiyoti. O‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashga doir normativ hujjatlar jumlasiga metrologiya tekshiruvini o‘tkazish tartibini belgilovchi

standartlashtirish bo'yicha hujjatlar ham kiradi. O'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash uslubiyotlari, sinov vositalarini attestatsiyadan o'tkazish uslubiyoti metrologik ekspertizadan o'tkazilishi lozim. O'lchashlarni bajarish uslubiyoti metrologik attestatsiyadan o'tkaziladi.

Kattalik birliklari. O'zbekiston Respublikasida xalqaro birliklar tizimining kattalik birliklarini belgilangan tartibda qo'llashga yo'l qo'yiladi. Kattalik birliklarining nomlari, belgilari, ularni yozish va qo'llash qoidalari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan xalqaro birliklar tizimiga kiritilmagan birliklarni qo'llashga ruxsat berilishi mumkin. Tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish chog`ida shartnoma shartlariga muvofiq o'zga kattalik birliklaridan ham foydalanish mumkin.

Kattalik birliklarining etalonlari. Kattalik birliklari etalonlar vositasida saqlanadi va qayta hosil qilinadi. Etalonlar orqali qayta hosil qilinadigan kattalik birliklari xalqaro birliklar tizimining birliklariga qadar metrologik kuzatiluvchanlikni ta'minlashi kerak. Maxsus vakolatli davlat organining qarori bilan milliy etalon O'zbekiston Respublikasi hududida muayyan kattalik birligining o'lchamini belgilash uchun birlamchi etalon sifatida e'tirof etiladi. Milliy etalonlarni xususiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o'rnatiladi.

O'lchashlarni bajarish uslubiyotlari. O'lchashlarni bajarish uslubiyotlari o'lchash natijalarining aniqlik ko'rsatkichlarini baholashni o'z ichiga olishi va o'lchash o'tkazishning mavjud sharoitlarida belgilab qo'yilgan aniqlikni ta'minlashi kerak. O'lchashlar belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazilgan o'lchashlarni bajarish uslubiyotlariga muvofiq amalga oshirilishi zarur. O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish o'lchashlarni bajarish uslubiyotining unga qo'yiladigan metrologiya talablariga muvofiqligini baholash hamda tasdiqlash maqsadida tadqiqotlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi. O'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini

ishlab chiqish va metrologik attestatsiyadan o'tkazish tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o'rnatiladi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati bo'limida: davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish, davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati ob'ektlari, davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan sohalar, davlat metrologiya tekshiruvi, davlat metrologiya nazorati, o'ramlarga, qadoqlangan tovarlar miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati, o'lchash vositalarining turlarini tasdiqlash, o'lchash vositalarini qiyoslash, o'lchash vositalarini kalibrlash, sinov vositalarini attestatsiyadan o'tkazish, metrologiya xizmatlarini, metrologiya ishlarini va xizmatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lish uchun akkreditatsiya qilish kabi masalalar yoritilgan.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan metrologiya to'g`risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati ob'ektlari bo'lib quydagilar hisoblanadi: etalonlar, o'lchash vositalari, sinov vositalari, standart namunalar, axborot-o'lchash tizimlari, o'lchashlarni bajarish uslubiyotlari, o'ramlarga qadoqlangan tovarlarning ularni maydalab qadoqlash va sotish chog`idagi miqdori, metrologiya normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa ob'ektlar.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan sohalar: Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati quyidagi sohalarda bajariladigan o'lchashlarga nisbatan qo'llaniladi: sog`liqni saqlash, veterinariya, atrof-muhitni muhofaza qilish; moddiy boyliklarni va yoqilg`i-energetika resurslarini hisobga olish; soliq, bojxona, savdo-tijorat, pochta va telekommunikatsiya; zaharli, tez alangalanuvchi, portlovchi va radioaktiv moddalarni saqlash, tashish hamda yo'q qilib tashlash; umumiy ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish, realizatsiya qilish va ushbu sohada xizmatlar ko'rsatish; aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, yong`in xavfsizligini, suv ob'ektlarida insonlarning

xavfsizligini ta'minlash; sanoat xavfsizligini ta'minlash; davlat mudofaasini ta'minlash; mehnat xavfsizligini va transport harakati xavfsizligini ta'minlash; sertifikatlashtiriladigan mahsulotning xavfsizligi va sifatini aniqlash; geodezik, kartografik va gidrometeorologik ishlarni bajarish; o'lchash vositalarini davlat sinovidan, qiyoslashdan, kalibrlashdan, ta'mirlash va metrologik attestatsiyadan o'tkazish; foydali qazilmalarni qazib olish; rasmiy sport musobaqalarini o'tkazish; mahsulot va xizmatlar muvofiqligini baholash bo'yicha ishlarni bajarish.

Davlat metrologiya tekshiruvi. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati ob'ektlarining metrologik, texnik tavsiflarini aniqlash va (yoki) tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya tekshiruvi amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya tekshiruvi: o'lchash vositalarining turini tasdiqlash maqsadida sinovdan o'tkazish; o'lchash vositalarini va o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish; o'lchash vositalarini, shu jumladan etalonlarni qiyoslash, kalibrlash; sinov vositalarini attestatsiyadan o'tkazish bilan bog`lik ishlarni amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya nazorati. Davlat metrologiya nazorati texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlarining metrologiyaga oid talablarga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladi. Davlat metrologiya nazorati: o'lchash vositalarining (shu jumladan etalonlar, standart namunalar, axborot-o'lchash tizimlari) ishlab chiqarilishi, ta'mirlanishi, prokatga berilishi, realizatsiya qilinishi, ularning holati va qo'llanilishi; o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarining qo'llanilishi; belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishi, shuningdek akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari, markazlari va laboratoriyalari faoliyati; o'ramlarga qadoqlangan tovarlarning ularni maydalab qadoqlash va sotish chog`idagi miqdori ustidan amalga oshiriladi. Davlat metrologiya nazoratini amalga oshiruvchi shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi qonunchilikda belgilanadi.

O'ramlarga qadoqlangan tovarlar miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati: O'ramlarga qadoqlangan tovarlarning ularni

maydalab qadoqlash va sotish chog`idagi miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati davlat metrologiya xizmatining vakolatli organlari tomonidan o‘tkaziladi. O‘ramlarga qadoqlangan tovarlar miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati o‘ram tarkibini o‘ramni ochmasdan yoki deformatsiya qilmasdan o‘zgartirish mumkin bo‘lmagan taqdirda, o‘ramdagi tovar miqdorini ko‘rsatuvchi massa, hajm, uzunlik, maydon yoki boshqa kattaliklar esa o‘ramda belgilangan hollarda amalga oshiriladi. O‘ramlarga qadoqlangan tovarlar miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati, suyuq holdagi qadoqlangan tovarlar uchun iste’mol idishi sifatida foydalaniladigan o‘lchamli idishlarga nisbatan ham tatbiq etiladi. O‘ramlardagi qadoqlangan tovarlarning miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati tekshiruv xaridi orqali amalga oshirilishi mumkin.

O‘lchash vositalarining turlarini tasdiqlash. O‘lchash vositalarining turlarini tasdiqlash o‘z ichiga davlat sinovlarini o‘tkazish orqali o‘lchash vositalarining metrologik va texnik tavsiflarini aniqlash, o‘lchash vositalarining metrologiya to‘g`risidagi qonunchilikka muvofiqligini belgilash hamda o‘lchash vositalarining turini tasdiqlash to‘g`risida qaror qabul qilish bo‘yicha ishlarni oladi. O‘lchash vositalarini metrologik attestatsiyadan o‘tkazish yagona nusxalarda ishlab chiqariladigan (yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga import bo‘yicha yagona nusxalarda olib kiriladigan) o‘lchash vositalarining xossalarini tadqiq etish asosida ular qo‘llash uchun yo‘l qo‘yilishini e’tirof etish maqsadida davlat metrologiya xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarilishi va import bo‘yicha olib kirilishi lozim bo‘lgan o‘lchash vositalari davlat sinovlaridan va turini tasdiqlashdan yoki metrologik attestatsiyadan o‘tkazilishi kerak. O‘lchash vositalarining davlat sinovlarini o‘tkazish, turini tasdiqlash va davlat reestriga kiritish maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Tasdiqlangan o‘lchash vositalariga yoki ularning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi davlat reestri belgisini qo‘yishi shart.

O‘lchash vositalarini qiyoslash akkreditatsiya qilingan davlat metrologiya xizmati hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining

akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. O'lchash vositalarini qiyoslaganda o'lchash vositalarining belgilab qo'yilgan metrologik talablarga ularning muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash bajariladigan operatsiyalar ketma-ketligini belgilovchi o'lchash vositalarini qiyoslash uslubiyoti asosida amalga oshiriladi. Qiyoslashdan o'tkazilishi lozim bo'lgan o'lchash vositalari turkumlarining ro'yxati maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O'lchash vositalarini kalibrlash akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. O'lchash vositalarini kalibrlashda o'lchash vositasining metrologik tavsiflarini aniqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositalarini qiyoslash uslubiyotidan foydalaniladi. Akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmati tomonidan bajarilgan o'lchash vositalarini kalibrlash natijalaridan o'lchash vositalarini qiyoslashda foydalanilishi mumkin.

Sinov vositalarini attestatsiyadan o'tkazish ularning normalangan texnik tavsiflari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Sinov vositalarini attestatsiyadan o'tkazish akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Sinov vositalarini attestatsiya qilishda sinov vositalarining normalangan texnik tavsiflari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash imkonini beruvchi sinov vositalarini attestatsiya qilish uslubiyotidan foydalaniladi.

Metrologiya xizmatlarini metrologiya ishlarini va xizmatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lish uchun akkreditatsiya qilish. Metrologiya xizmatlarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning metrologik ekspertizasini, sohalarda qo'llanilishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan o'lchash vositalarini, sinov vositalarini, o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish, o'lchash vositalarini qiyoslash, kalibrlash va sinashni amalga oshirish huquqiga ega bo'lishi uchun akkreditatsiya qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladi. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning metrologik

ekspertizasini sohalarda qo'llanilishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan o'lchash vositalarining, o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarining metrologik attestatsiyasini, sinov vositalarining attestatsiyasini, o'lchash vositalarini qiyoslashni, kalibrlashni, sinashni amalga oshiruvchi akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari faoliyatining inspeksiya nazorati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Sinov vositalarini attestatsiyadan o'tkazish. Sinov vositalarini attestatsiyadan o'tkazish ularning normalangan texnik tavsiflari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Sinov vositalarini attestatsiyadan o'tkazish akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Sinov vositalarini attestatsiya qilishda sinov vositalarining normalangan texnik tavsiflari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash imkonini beruvchi sinov vositalarini attestatsiya qilish uslubiyotidan foydalaniladi.

Yakunlovchi qoidalar bobida Davlat metrologiya xizmatini davlat tomonidan moliyalashtirish, metrologiya ishlari va xizmatlari uchun haq to'lash, nizolarni hal etish kabi masalalar yoritilgan.

Davlat metrologiya xizmatining quyidagi ishlari davlat tomonidan moliyalashtiriladi: metrologiyaga oid faoliyat sohasini rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish; metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy tashkilotlarning ishida ishtirok etish va metrologiya bo'yicha chet el milliy xizmatlari bilan ishlar bajarish; metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va normativ hujjatlarni, shuningdek xalqaro, mintaqaviy normalar hamda qoidalarni ishlab chiqish va ishlab chiqishda ishtirok etish; metrologiyaga oid faoliyat sohasi bo'yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni o'tkazish; etalonlar va o'lchash vositalarini ishlab chiqish, takomillashtirish, yasash, saqlash, qo'llash, olish hamda asrash, shuningdek ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash; standart namunalarni ishlab chiqish; davlat metrologiya nazoratini o'tkazish.

Metrologiya ishlari va xizmatlari uchun haq to'lash. O'lchash vositalarini sinash, turini tasdiqlash, metrologik attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash va kalibrlash, o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatsiyadan o'tkazish, texnik jihatdan tartibga solish va o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash sohasidagi normativ hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish, texnik jihatdan asosliligini hamda belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga muvofiqligini baholash, o'lchashlar va sinovlar bajarilishining sifatini baholashga doir metrologiya ishlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan xizmatlar, shuningdek metrologiyaga oid faoliyatning davlat tomonidan moliyalashtirish sohasiga kirmaydigan boshqa turlari uchun haq tuziladigan shartnomalar shartlariga muvofiq manfaatdor shaxslar tomonidan to'lanadi.

2.3. Fizikaviy kattaliklar qiymatlari, birliklari va xalqaro birliklar tizimi

Fizikaviy kattaliklar.

Ma'lumki, o'lchashning asosiy maqsadi o'lchanayotgan ob'ekt tavsiflari to'g`risida talab qilingan aniqlikdagi miqdoriy ma'lumotlarni olishdan iborat. Shu boisdan ham o'lchash ma'lumotlari natijalari tegishli raqamlar bilan ifodalanadi. Keng ma'noda o'lchash ob'ektlari deganda mavjud dunyoning o'lchanayotgan va sonlar orqali ifodalash mumkin bo'lgan qismi tushuniladi. O'lchanadigan ob'ektlar soni juda ko'p. Ilm-fan va texnikaning rivojlanishi ularning yana ham ko'payishiga olib keladi. Bunga quyidagilar yaqqol misol bo'la oladi: XX asrning ikkinchi yarmigacha insoniyat faqat yer shariga mansub ob'ektlarni o'lchash to'g`risida xabardor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda fazaga tegishli ob'ektlarning xossalari ham keng va chuqur o'rganilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ob'ektlarning o'zlari emas, faqat bironta tegishli son orqali ifodalash mumkin bo'lgan xossalari o'lchanadi. Ma'lumki, o'lchash ob'ektlarining xossalari juda ham ko'p. Faqat sifat tomonidan ko'pgina ob'ektlar uchun umumiy bo'lgan xossalari o'lchanadi. Ob'ektlarning miqdoriy jihatdan o'lchash mumkin

bo‘lgan bunday xossalarini fizikaviy kattaliklar deb atash qabul qilingan.

Fizikaviy kattalikning standartlashtirilgan ta’rifi quyidagicha tavsiflanadi: fizikaviy kattalik sifat tomonidan ko‘pgina fizikaviy ob’ektlarga (fizikaviy tizimlarga, ularning holatlariga va ularda o‘tadigan jarayonlarga) nisbatan umumiy bo‘lib, miqdor tomonidan har bir ob’ekt uchun xususiy bo‘lgan xossadir. Demak, fizikaviy kattalik deganda qandaydir fizikaviy, kimyoviy, biologik yoki texnologik ob’ektning o‘lchanadigan xossasi tushuniladi. Umuman olganda, fizikaviy kattalik har xil o‘lchash ob’ektlarining bir xil xossalarini bildiradi. Misol uchun, «massa», uzunlik yoki harorat, sabzavot, meva yoki insonga ham tegishli. Xuddi shuningdek, fizik kattalik bo‘lgan «massa» sifat tomondan barcha oziq-ovqat mahsulotlariga mansub. Lekin oziq-ovqat mahsulotlari turlarining har bir donasining massasi har xil bo‘lishi mumkin, misol uchun, bir dona buxanka nonning massasi 0,6kg, bitta «maktab bulochka»sining massasi 0,1 kg, yoki bir dona servelat kolbasasining massasi esa 0,5kg. Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, har bir mahsulot turi o‘ziga yarasha massaga ega bo‘ladi. Buni har bir ob’ekt uchun xususiy bo‘lishi deyishadi. Xususiy xossa biror ob’ektning xossasini ikkinchi ob’ektga nisbatan ma’lum marta kattaroq yoki kichikroq bo‘lishini ko‘rsatadi.

Har bir o‘lchash ob’ekti uning o‘lchanadigan xossalari orqali ifodalanadi. Ob’ektlarning soni qancha ko‘p bo‘lsa, ularning o‘lchanadigan xossalari ham shuncha ko‘p bo‘ladi. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan o‘lchanadigan fizik kattaliklar soni yana ham oshib boradi. Shu sababli ham tegishli hujjatlarda (me’yoriy, o‘quv, ma’lumotnomalar) ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli fizikaviy kattaliklarning sonini guruhlash hisobiga ularning xossalarini chegaralash qabul qilingan, misol uchun, fizikaviy, fizika-kimyoviy, kimyoviy, texnologik, reologik va boshqalar.

Bundan oldin keltirilgan fizikaviy me’yorlashtirilgan (standartlashtirilgan) «fizikaviy tizimlar» degan ibora ishlatildi. Bu ibora to‘liqchasiga fizikaviy kattaliklar tizimini bildiradi va o‘zaro munosabatda bo‘lgan kattaliklarning to‘plami degan ma’noni anglatadi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ham, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'lchash ishlari keng qo'lamda olib boriladi. Bu erda o'lchash ob'ekti sifatida nafaqat ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, bundan tashqari ularni tayyorlash uchun qo'llaniladigan texnologik (fizikaviy, fizika- kimyoviy, kimyoviy, issiqlik va boshqa) jarayonlar ham ob'ekt sifatida qaraladi, chunki oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari texnologik jarayonlar ham miqdor jihatdan o'lchash mumkin bo'lgan qator xossalarga ega. Ularning xossalarini fizikaviy kattaliklar emas, ko'pincha jarayonlar yoki mahsulotlarning parametrlari deb atashadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini belgilaydigan parametrlari sifat ko'rsatkichlari deyiladi.

Texnologik jarayonlarning parametlari nisbatan sekin o'zgarsa, lekin tayyor mahsulotning xossalari saqlash, tashish va muomalaga chiqarish davrida juda ham tez o'zgaradi. Shu boisdan ham oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hayotining barcha davriy sikllarida nazorat qilib boriladi.

Organoleptik kattalikning ta'rifida tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini davlat sinovlaridan (ishlab chiqarish laboratoriyasi ko'rigidan o'tkazish) va qiymatini texnikaviy vositalar va inson sezgi organlari yordamida ob'ektiv aniqlash va me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan miqdori bilan taqqoslash yotadi.

2.4. Fizikaviy kattaliklar qiymatlari va birliklari

Yuqorida ta'kidlanganidek, har bir ob'ektga tegishli fizikaviy kattalik o'zining miqdoriga ega. Ayrim modda, ob'ekt, tizim, hodisa yoki jarayonga tegishli bo'lgan fizikaviy kattalikning miqdoriga uning o'lchami deyiladi. Qabul qilingan birliklarning ma'lum bir soni bilan fizikaviy kattalikning qiymatini baholashni fizikaviy kattalikning qiymati deb atashadi. Har bir fizikaviy kattalik ma'lum bir absolyut qiymatga ega. Bunga fizikaviy kattalikning chinakam qiymati deyiladi.

Chinakam qiymatning standartlashtirilgan ta'rifi quyidagicha: chinakam qiymat ob'ektga tegishli xossalarning sifat va miqdoriy tomonlarini to'la ifoda qiladigan fizikaviy kattalikning qiymatidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda o'lchash ob'ektlarining chinakam qiymatini aniqlash imkoniyati yo'q. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- fizikaviy kattaliklar o'lchami turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi, amalda esa o'lchash jarayonlarini o'tkazish uchun ideal sharoit yaratish juda qiyin;
- ikkinchidan, bugungi kun ilm- fanining va o'lchash texnikalarining rivoji ob'ektlarning chinakam qiymatini aniqlashga qodir emas.

Amalda o'lchash usullarini va o'lchash jarayonini o'tkazish sharoitlarini standartlashtirish orqali o'lchash ob'ektlarining chinakam qiymatiga yaqin natija (qiymat) olinadi. Bunga fizikaviy kattalikning haqiqiy qiymati, ya'ni o'lchov orqali qayta ob'ekt xossasining o'lchangan qiymati uning haqiqiy qiymatiga teng.

Fizikaviy kattalikning haqiqiy qiymati uning chinakam qiymatiga maksimal yaqinlashgan bo'lishi kerak. Shu boisdan ham amalda turli xil maqsadlar uchun chinakam qiymat o'rnida ishlatiladi. Har bir o'lchash vositalarining aniqligini baholash va ularni qiyoslash ham ana shu tamoyilga asoslangan, chunki fizikaviy kattaliklarning haqiqiy qiymatlari na'munaviy yoki etalon o'lchash vositalarining ko'rsatkichlariga qarab aniqlanadi.

Aksariyat hollarda o'lchanayotgan fizikaviy kattalik xuddi shunga o'xshash fizikaviy kattalik bilan taqqoslanadi. Bir necha o'lchash ob'ektlarini bir xil fizikaviy kattaliklarning qiymati orqali taqqoslash uchun taqqoslash birligi bo'lishi kerak. Taqqoslash birligi sifatida fizikaviy kattaliklarning birliklari ishlatiladi.

Fizikaviy kattalik birligi deganda ta'rif bo'yicha soniy qiymati 1ga teng qilib olingan kattalik tushuniladi. Demak, fizikaviy kattalik birligi deganda bir xil kattaliklarni qiymat jihatdan taqqoslash uchun kelishilgan holda qabul qilingan belgilangan o'lchamli fizik kattalik tushuniladi. Misol uchun, bir dona buxanka nonining massasi 600 gr. bo'lsa va fizik kattalik bo'lgan massa birligi sifatida 1 kg qabul qilingan bo'lsa, buxanka nonining massasi 0,6 kg bo'ladi.

Fizikaviy kattalikning qiymatini belgilaydigan ma'lum son soniy qiymat deb ataladi. Yuqorida keltirilgan misolda 0,6 soniy qiymat hisoblanadi.

Xalqaro birliklar tizimi

Fizik kattaliklarning ma'lum guruhlari bir-birlari bilan doimo bog`liq bo'ladi. Misol uchun, tezlik va masofa, vaqt va tezlanish vaqt birligining ichida tezlikning o'zgarishi, kuch, massa, tezlanish va hokazo. Shu va boshqa tamoyillar asosida fizik kattaliklar birligining tizimi tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g`risida»gi qonuniga binoan respublika hududida fizikaviy kattaliklar birligining Xalqaro tizimi SI qo'llaniladi.

Xalqaro birliklar tizimida birliklar asosiy va hosilaviylarga bo'lingan. Tizimga kiradigan va shart bo'yicha tizimning boshqa kattaliklariga nisbatan mustaqil ravishda qabul qilib olingan fizikaviy kattaliklar asosiy kattaliklar deyiladi.

Tizimga kiradigan va tizimning kattaliklari orqali ta'riflanadigan fizikaviy kattaliklar esa hosilaviy fizik kattaliklar deb ataladi. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, hosilaviy kattaliklar tenglamalar yordamida asosiy birliklar orqali aniqlanadi.

Asosiy birliklarni tanlashda sifat tomondan ko'pgina fizikaviy ob'ektlarga nisbatan umumiy bo'lgan mavjud dunyo xossalari e'tiborga olingan. Misol sifatida: masofa va vaqtni keltirish mumkin. Mavjud dunyo ob'ektlari uchun umumiy bo'lgan asosiy xossalardan yana biri massadir.

Xalqaro fizikaviy birliklarning tizimi quyidagi 7-ta asosiy birliklarga asoslangan:

- uzunlik - metr (m);
- massa - kilogramm (kg);
- vaqt - sekunda (t);
- elektr toki kuchi - amper (A);
- termodinamik harorat - Kelvin (O);
- yorug`lik kuchi - kandala;
- modda miqdori - mol (mol).

Asosiy birliklardan tashqari, ikkita qo'shimcha birlik ham mavjud: yassi burchak - radian va teles burchak - steradian.

Asosiy va qo'shimcha birliklardan tashqari, birliklar tizimiga 17 ta hosilaviy birliklar kiritilgan. Ular qo'yidagilar:

- chastota .... - gers (Гц);
- kuch .... - Nyuton (H);
- bosim ..... - Paskal (Па);
- energiya, ish, issiqlik miqdori..... - Djoul (Дж);
- quvvat, energiya oqimi .....- Vatt (Вт);
- elektr miqdori, elektr zaryadi..... - Kulon (Кл);
- elektr kuchlanishi, elektr potensiali...- Volt (B)
- elektr sig`imi.....- Farada (Фа);
- elektr qarshiligi .....- Om (Ом);
- elektr o'tkazuvchanlik .....- simens (См);
- magnit induksiyasining oqimi.....- Veber (Вб);
- magnit induksiyasi .....- tesla (Тл);
- induksiyalanish.....- Genri (Гн);
- yorug`lik oqimi .....- Lyumen (Лм);
- yoritilganlik .....- lyuks (Лк);
- nuklid aktivligi .....- Bekkerel (Бк);
- nurlanish dozasi .....- Grey (Гр).

Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasida qo'yidagi fizikaviy kattaliklar o'lchamini qo'llashga ruxsat berilgan:

- Massa.....-tonna (10^3 kg);
- vaqt .....- minuta (daqiqa, hafta, oy, yil, asr,ming yil);
- yassi burchak..... - gradus, sekunda;
- yuza.....-gektar (ga);
- hajm..... -litr (l).

Shuningdek, o'lchamsiz fizikaviy kattaliklar (asosiy kattaliklarning darajasi o'lchamligida nolga teng bo'lgan kattalik) birliklarini ham qo'llash mumkin, masalan, protsent (10^2), promille - (10^3), million (10^6) va boshqalar.

2.5. O‘lchash turlari va uni natijalarini baholash usullari

O‘lchash turlari.

Ta’kidlanganidek, o‘lchash-bu fizikaviy kattalik qiymatini maxsus texnikaviy vositalar yordamida tajriba usuli bilan topishdir. Amalda o‘lchanayotgan kattalikni aksariyat hollarda shunga o‘xshash fizikaviy kattalik bilan solishtiriladi. Solishtirilayotgan kattalikka 1 teng qiymat beriladi.

Ta’rif bo‘yicha soniy qiymati birga barobar qilingan kattalikka fizikaviy kattalikning birligi deyiladi. Masalan, bir necha xil oziq-ovqat mahsulotlarini massasi bo‘yicha solishtirish uchun fizikaviy kattalik birligi - kg, turli predmetlarni uzunligi bo‘yicha solishtirish uchun kattalik birligi - metr olinadi.

O‘lchash ob’ektining har bir xossasi faqat unga mansub o‘lchamga ega bo‘ladi. Ayrim moddiy ob’ekt, tizim, hodisa yoki jarayonga tegishli bo‘lgan fizikaviy kattalikning miqdori shu kattalikning o‘lchami deb ataladi. O‘lchanayotgan fizikaviy kattalikning son qiymatining (Q) fizikaviy kattalik birligiga (g) nisbati ulchash natijasi (U) deb nomlanadi.

Standartlashtirilgan ta’rifga ko‘ra o‘lchash natijasi (U) - bu o‘lchash yordamida topilgan kattalikning qiymatidir. O‘lchash natijasini topishni quyidagi matematik formula orqali ifodalash mumkin:

$$U = \frac{Q}{g}$$

Ushbu formula o‘lchashning asosiy tenglamasi deb ataladi. Uning asl ma’nosi - o‘lchanayotgan kattalikda (Q) g birlikdan nechta borligini anglatadigan natijadan (U) iborat bo‘ladi. Agar o‘lchash natijasi (U) va fizikaviy kattalik birligi (g) aniq bo‘lgan paytlarda aynan o‘lchanayotgan fizik kattalikning son qiymati (Q) qo‘yidagicha hisoblab chiqiladi:

$$Q = U \cdot g.$$

O‘lchanayotgan kattalikning qiymati bir biridan tubdan farq qiladigan bevosita, bilvosita, majmui va birgalikda o‘lchash usullari yordamida aniqlanadi.

Standartlashtirilgan ta'rifga ko'ra o'lchash usuli deganda o'lchash qonun-qoidalari va o'lchash vositalaridan foydalanib, fizikaviy kattalikning qiymatini (Q) uning birligi (g) bilan solishtirish yo'llari tushuniladi.

O'lchanayotgan kattalikning sonli qiymatini topishning bir necha xil turlari (yo'llari) mavjuddir. Quyida shu yo'llar bilan tanishib chiqamiz.

Bevosita o'lchash - O'lchanayotgan kattalikning qiymatini tajriba ma'lumotlaridan bevosita topish. Masalan, oddiy simobli termometrda yoki lineyka yordamida o'lchash.

$$u = s \cdot x;$$

bunda: u - muayyan birlikda ifodalanyotgan o'lchanayotgan kattalikning qiymati; s - shkalaning bo'lim qiymati; x - shkaladan olingan qaydnoma.

Bilvosita o'lchash deganda bevosita o'lchangan kattaliklar bilan o'lchanayotgan kattalik orasida bo'lgan ma'lum bog`lanish asosida o'lchanayotgan kattalikning qiymatini topish tushuniladi. Bilvosita usullari o'lchanayotgan kattalikning qiymatini bevosita o'lchash usullari yordamida aniqlash mumkin bo'lmagan va aniq natijalar bermaydigan vaqtlarda qo'llaniladi. Bilvosita o'lchash usuli bo'yicha o'lchanish kerak bo'lgan kattalikning qiymatini topish uchun avval ushbu kattalik bilan bog`liq bo'lgan boshqa kattaliklar qiymatlari bevosita o'lchash uslubi yordamida aniqlanadi. Keyin esa topilgan qiymat formulaga qo'yilib, kerakli fizik kattalikning qiymati hisoblanadi. Misol, oziq-ovqat mahsulotlari quruq moddalarining qiymatini topish uchun avval bevosita o'lchashlar yordamida quritilmagan va quritilgan mahsulot namunasining massalari aniqlanadi, keyin ularni qo'yidagi formulaga quyib quruq moddalar miqdorining foyizi topiladi:

$$X = \frac{(m_2 - m)}{(m_2 - m_1)} 100$$

bu erda:

X- quruq moddalar miqdorining foyizi;

m_2-quritilgan namuna va idish (paket) vazni, g ;

m - idish (paket) vazni, g;

m_1- quritilmagan namuna va idish (paket) vazni, g.

Bilvosita o'lchash usuli yordamida mahsulotning solishtirma og`irliklari, zichligi va tarkibidagi moddalar miqdorining aksariyati aniqlanadi.

Majmui o'lchash - bu bir necha kattaliklarning birikmasini bir vaqtda bevosita o'lchashdan chiqqan tenglamalar tizimini yechib, izlanadigan qiymatlarni topish. Majmui o'lchash uslubi oziq-ovqat sanoatida ham keng qo'lamda qo'llaniladi, masalan, idishga solingan mahsulotning netto yoki brutto vaznini aniqlash uchun avval mahsulotning brutto vazni yoki idishning vazni (massasi) bevosita o'lchanadi va quyidagi tenglamaga qo'yilib mahsulotning netto vazni topiladi:

$$X_n = X_b - X_i;$$

bu erda:

X_n -mahsulotning netto massasi, kg;

X_b -mahsulotning brutto massasi, kg;

X_i -mahsulot idishining massasi, kg;

Birlikda o'lchash uslubi ham oziq-ovqat sanoatida keng qo'lamda texnologik jarayonlarni modellashtirishda qo'llaniladi. Misol uchun, mahsulot donasining o'lchamiga qarab, har xil o'lchamli mahsulotning pishish vaqtini aniqlash yoki issiqlikning mahsulotga ta'sir qilish muddatiga qarab, mahsulotning suvda eriydigan tarkibining uning atrofidagi suyuqlik muhitga o'tadigan miqdorini topish mumkin.

Keltirilgan misolardan ko'rinib turibdiki, bir xil nomli yoki nomdosh kattaliklar orqali ikkinchi xil kattalik qiymati aniqlanadi. Demak, birgalikda o'lchash - bu turli nomli ikki va undan ortiq kattaliklar orasidagi munosabatni topish uchun bir vaqtda o'tkaziladigan o'lchamlardir.

Majmuiy o'lchash - bir necha nomdosh kattaliklarning birikmasini bir vaqtta bevosita o'lchashdan kelib chiqqan tenglamalar tizimini echib, izlanayotgan qiymatlarni topish. Masalan, har xil tarozi

toshlarining massasini solishtirib, bir toshning ma'lum massasidan boshqasining massasini topish uchun o'tkaziladigan o'lchashlar, haroratni qarshilik termometri orqali o'lchash.

Birgalikdagi o'lchash - turli nomli ikki va undan ortiq kattaliklar orasidagi munosabatni topish uchun bir vaqtda o'tkaziladigan o'lchashlar.

Mutlaq o'lchash - bir yoki bir necha asosiy kattaliklarni bevosita o'lchanishini va (yoki) fizikaviy doimiylikning qiymatlarini qo'llash asosida o'tkaziladigan o'lchash.

Nisbiy o'lchash - kattalik bilan birlik o'rnida olingan nomdosh kattalikning nisbatini yoki asos qilib olingan kattalikka nisbatan nomdosh kattalikning o'zgarishini o'lchash.

2.6. O'lchash natijalarini baholash usullari

O'lchash tajribasida o'lchash natijalarini baholashning ikkita usuli mavjud: bevosita baholash va o'lchov bilan taqqoslash. O'lchash natijalarini bevosita baholash usuli oziq-ovqat sanoatida keng tarqalgan.

Bevosita baholash deganda bevosita o'lchash asbobining (ko'rsatgichlarini faqat ko'rib sanab olishga mo'ljallangan o'lchash asbobi) sanash qurilmasi yordamida o'lchanayotgan kattalikning qiymatini to'g`ridan to'g`ri topish tushuniladi. Masalan, suyuqlik termometrlari shkalalariga qarab mahsulot yoki jarayon haroratini yozib olish, yoki pH-metr shkalasiga qarab muhitning aktiv kislota ko'rsatkichini topish, yoki manometr shkalasi bo'yicha bosim qanchaga tengligini aniqlash va hokazo. Bu usul yordamida o'lchanayotgan kattalikning qiymatini aniqlash bo'yicha barcha hisob-kitob ishlari o'lchash jarayonida qatnashayotgan xodimning ishtirokisiz o'lchash vositalari ichida amalga oshiriladi va ularning shkalasida kerakli o'lchamdagi fizikaviy kattalikning qiymati namoyon bo'ladi. Xodimning vazifasi faqat o'lchash vositasi shkalasida ko'rsatilgan o'lchash natijasini qayd qilish va baholashdan iborat bo'ladi.

O‘lchash natijalarini baholashning o‘lchov bilan taqqoslash usuli ham oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llamda qo‘llaniladi. O‘lchov natijalarini baholashning o‘lchov bilan taqqoslash usuli- bu o‘lchanayotgan kattalikni o‘lchov (birliklar tizimi tuzilganda ixtiyoriy ravishda tanlagan asosiy fizikaviy kattalik birligi) orqali yaratilgan kattalik bilan taqqoslash usulidir. Baholashning taqqoslash usulida o‘lchash vositalari asosan ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib, o‘lchanayotgan barobarlikni aniqlash uchun ishlatiladi. Demak, taqqoslab baholash uslubida o‘lchash vositalari muvozanat indikatorlari rolini o‘ynaydi. Bunga dastlabki tarozida toshlarni muvozanatlashtirib oziq-ovqat mahsulotlarining massasini aniqlash yaqqol misol bo‘la oladi.

O‘lchash natijalarini baholashning o‘lchov bilan taqqoslash usulining bir necha turlari mavjud: ayirmali o‘lchash usuli; nolga keltirish (kompensatsiyalash) usuli; o‘rindoshlik usuli va mos kelish usuli.

Ayirmali o‘lchash usuli o‘lchash natijalarini baholashning taqqoslash usulining bir turidir. U o‘lchanayotgan kattalikning va o‘lchov orqali yaratilgan kattalik ayirmasining o‘lchash asbobiga ta’sir qilish usuliga asoslangan. Demak, ushbu usul yordamida o‘lchanayotgan va ma’lum kattaliklarning ayirmasini o‘lchash mumkin. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlarini va tarkibiy qismlarini o‘lchash uchun ishlatiladigan texnikaviy vositalarni ma’lum bir vaqt o‘tgandan keyin qiyoslashga ularni namunaviy qiyoslash asboblari bilan taqqoslab, avval me’yorlangan xossalaridagi ayirmasini topish, yoki massani etalon bilan taqqoslash yo‘li bilan ayirmasini topish bunga misol bo‘laoladi. Nolga keltirish usuli ham o‘lchov bilan taqqoslash yo‘li bilan baholash usulining bir turi xdsoblanadi.

Standartlashtirilgan ta’rifga ko‘ra, nolga keltirish usuli deganda kattaliklarning taqqoslash asbobiga bo‘lgan ta’siri natijasini nolga keltirishga asoslangan. Bu usul bo‘yicha o‘lchanayotgan kattalikning qiymati ma’lum bo‘lgan kattalik bilan taqqoslashdan iborat bo‘lib, ular orasidagi ayrim ma’lum kattalikni o‘zgartirish bilan nolga keltiriladi.

O‘rindoshlik usuli ham o‘lchov bilan taqqoslash usulining bir turidir. Standartlashtirilgan ta’rifga ko‘ra, o‘lchanayotgan kattalikning o‘lchov orqali yaratilgan ma’lum qiymatli kattalik bilan o‘rin almashish usulidir. Bu esa o‘lchovning va ulchanayotgan kattalikning taqqoslash uskunasiga navbatma- navbat ta’sir qilishga asoslangan. Bunga tarozining bir pallasida o‘lchanayotgan massa bilan tarozi toshini galma-gal b o‘lib o‘lchash misol bo‘laoladi.

2.7. O’lchash vositalarini qiyoslash, kalibrlash, davlat sinovidan o’tkazish va ular ustidan davlat metrologik nazorati

O‘lchash vositalarini qiyoslash akkreditatsiya qilingan O‘zbekiston milliy metrologiya instituti, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining metrologiya xizmatlari, shuningdek yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. O‘lchash vositalarini qiyoslaganda o‘lchash vositalarining belgilab qo‘yilgan metrologik talablarga ularning muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash bajariladigan operatsiyalar ketma-ketligini belgilovchi o‘lchash vositalarini qiyoslash uslubiyoti asosida amalga oshiriladi.

Qiyoslash - bu me’yoriy hujjatlar bilan belgilangan sharoitlarda o‘lchash vositalarining yaroqliligini aniqlash maqsadida davlat metrologik xizmati idoralari (organlari) tomonidan o‘tkaziladigan operatsiyalar majmuidir. SHunday ekan, qiyoslashning asosiy maqsadi o‘lchash vositalarini foydalanish uchun yaroqliligini aniqlashdir . Qiyoslash paytida metrologik tavsiflarni baholash bilan bir qatorda, o‘lchash vositalarining xavfsizlik tavsiflari ham baholanadi.

O‘lchash vositalarini qiyoslash dastlabki, davriy, navbatdan tashqari, taftishli va ekspert qiyoslash turlariga bo‘linadi.

Dastlabki qiyoslash deb, ishlab chiqarish yoki ta’mirlashdan chiqarilayotgan o‘lchash vositalarini birinchi marta qiyoslashga aytiladi. O‘lchash vositalarining har biri dastlbki qiyoslashdan o‘tkaziladi.

Davriy qiyoslash deganda, dastlabki qiyoslashdan o‘tkazilgan o‘lchash vositalaridan foydalanish jarayonida ularni majburiy davriy qiyoslashdan o‘tkazish tushuniladi. SHunday ekan, davriy qiyoslashning

asosiy maqsadi dastlabki qiyoslashdan o'tgan va ishlatilayotgan hamda vaqtincha saqlanib turgan o'lchash vositalarining yaroqliligini aniqlashdan iboratdir. Davriy qiyoslashning muddatlari O'zdavstandarti («O'zstandart» agentligi» tomonidan belgilanadi.

O'lchash vositalarini **navbatdan tashqari qiyoslash** foydalanayotgan o'lchash vositalari buzilganda, o'lchash vositalarining dastlabki yoki davriy qiyoslashdan o'tgaligini tasdiqlovchi hujjatlar yo'qolganda, saqlashdan so'ng ishlatilganda, ularning yaroqliligini tasdiqlovchi qiyoslash belgisi yoki hujjatning amal qilish muddati tugaganda va boshqa hollarda o'tkaziladi.

Taftishli qiyoslash deganda, o'lchash vositalarini ishlatish uchun yaroqliligini aniqlash bo'yicha davlat metrologik xizmati idoralari (organlari) tomonidan o'lchash vositalarining holati, ularni qiyoslash va qo'llash qoidalarining bajarilishini tekshirish tushuniladi.

Ekspert qiyoslash o'lchash vositalari ma'lumotnomalarining ishonchliligi va foydalanish yoki ishlatish uchun yaroqliligi bo'yicha janjalli yoki munozarali masalalarni hal qilish maqsadida o'tkaziladi.

O'lchash vositalari davlat metrologik xizmatlari tomonidan 15 kun muddat ichida o'tkazilishi kerak.

Agar jismoniy shaxslarning o'lchash vositalari individual mehnat uchun qo'llaniladigan bo'lsa, u holda ular davlat qiyoslashidan o'tkazilishi shart. O'quv vositalari yoki indiqatorlar guruhiga kiradigan o'lchash vositalari qiyoslashdan o'tkazilmaydi. Bunday o'lchash vositalarining old tomoniga O'z.RH 51-008-93ga muvofiq «I» (indiqator) yoki «U» (uchebniy) belgisi qo'yiladi va ularni kattaliklar qiymatlarini aniqlash uchun qo'llash taqiqlanadi.

O'lchash vositalarini kalibrlash va davlat sinovlaridan o'tkazish

Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati tomonidan belgilangan doiradan tashqari qo'llaniladigan o'lchash vositalari kalibrlashdan o'tkazilishi kerak.

O'lchash vositalarini kalibrlash deb, o'lchash vositalarining haqiqiy metrologik tavsiflarini aniqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyalari tomonidan o'tkaziladigan operatsiyalar majmuiga aytiladi. O'lchash vositalarini kalibrlash – o'lchash vositalarini

haqiqiy metrologik xarakteristikalarini aniqlashda ushbu o'lchash vositasi ko'rsatgan mikdorni etalon orqali olingan mos keluvchi miqsor bilan o'zaro nisbatini aniqlashdagi operatsiyalar majmui. Agar o'lchash vositalari majburiy metrologik nazorat va tekshiruvdan o'tmasa, unda ular kalibrlashdan o'tadi. Kalibrlash natijalari bo'yicha o'lchash vositasini qaqiqiy qiymati aniqlanadi yoki uni ko'rsatishiga tuzatmalar kiritiladi.

Kalibrlash o'lchash vositasining xatoligini va qator metrologik xarakterystikalarni baholash imkonini beradi.

Kalibrlash ham dastlabki va davriy kalibrlash turlariga bo'linadi.

Dastlabki kalibrlash qiyoslash kabi ishlab chiqarish yoki ta'mirlashdan chiqarilayotgan va tasdiqlanishi lozim bo'lmagan o'lchash vositalari bo'yicha o'tkaziladi.

Davriy kalibrlash ham qiyoslash kabi o'lchash vositalarining ishlatish jarayonlarida o'tkaziladi.

Kalibrlash ishlarini o'tkazish uchun kalibrlash tizimi yaratilgan bo'lib, ular davlat metrologik nazorati va tekshi-ruvidan o'tishi lozim bo'lmagan sohalarda o'lchashlar birliligini ta'minlashga yo'naltirilgan sub'ektlar faoliyati va kalibrlash shshlari majmuasidir. Kalibrlash tizimi kalibrlash ishlarini tashkil etish va o'tkazishga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Kalibrlash tizimi faoliyati O'zDSt 8.018:1997 bilan tartibga solinadi.

Kalibrlash tizimi – Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati qo'llanilmaydigan sohada o'lchashlar birliligini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyat va kalibrlash ishlarini bajaruvchi va kalibrlash ishlarini tashkillashtirish va o'tkazishga o'rnatilgan talablar asosida harakat qiluvchi sub'ektlar majmui.

O'lchash vositalarini kalibrlash – o'lchash vositalarini haqiqiy metrologik xarakteristikalarini aniqlashda ushbu o'lchash vositasi ko'rsatgan mikdorni etalon orqali olingan mos keluvchi miqsor bilan o'zaro nisbatini aniqlashdagi operatsiyalar majmui. Agar o'lchash vositalari majburiy metrologik nazorat va tekshiruvdan o'tmasa, unda ular kalibrlashdan o'tadi. Kalibrlash natijalari bo'yicha o'lchash

vositasini qaqiqiy qiymati aniqlanadi yoki uni ko‘rsatishiga tuzatmalar kiritiladi.

Kalibrlash o‘lchash vositasining xatoligini va qator metrologik xarakterystikalarni baholash imkonini beradi.

Agar kalibrlash haqidagi shartnoma shartlariga ko‘ra o‘lchash vositasini faqat me’yoriy hujjatlar talabiga mos kelishini aniqlash ko‘rsatilgan bo‘lsa, u holda kalibrlash natijalari ijobiy bo‘lganda kalibrlovchi shaxs o‘lchash vositasiga o‘zining shaxsiy kalibrlash tamg‘asini bosadi.

O‘lchash vositalarining ko‘rsatkichlarini haqiqiy qiymatlari to‘g‘risida ob’ektiv va ishonchli ma‘lumotlar olish va me’yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini ta’minlash maqsadida ular davlat sinovlaridan o‘tkaziladi.

Davlat sinovlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: respublikada ishlab chiqarilayotgan yoki chetdan keltirilayotgan o‘lchash vositalarining me’yoriy hujjatlarga mos kelishini tekshirish va ularning metrologik, texnik-iqtisodiy hamda foydalanish xususiyatlarini baholash;

Qabul qilish sinovi o‘lchash vositalarining texnik topshiriq va me’yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini aniqlaydi, texnik darajasini baholaydi hamda ishlab chiqarishga qo‘yish uchun qaror chiqaradi va o‘lchash vositalarini chetdan keltirish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Metrologiya tushunchasiga ta’rif bering?
2. Metrologiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Metrologiya nechta qismlarga bo‘linadi?
4. Fizikaviy kattaliklar nima?
5. Fizikaviy kattaliklar qiymatlariga ta’rif bering?
6. Xalqaro fizikaviy birliklarning asosiy birliklari nechtaga asoslangan?
7. Asosiy biliklar nechta qo‘shimcha biliklarga bo‘linadi?
8. O‘lchash nima?
9. O‘lchash usuli deganda nimani tushunasiz?

10. O‘lchash usullari nechta usulga bo‘linadi?
11. O‘lchash natijalarini baholash nechta usuli mavjud?
12. O‘lchash birligi nima?

III BOB. TEXNIK JIXATDAN TARTIBGA SOLISH XIZMATI

3.1. "Texnik jixatdan tartibga solish xizmati"ning maqsadi va vazifalari

Texnik jihatdan tartibga solish хизмати - mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo'llash, bajarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish ва улар устидан назорат ўрнатишдан иборат. Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi деганда- mahsulotning, uni loyihalash, ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), montaj qilish, sozlash, saqlash, tashish, realizatsiya qilish va utilizatsiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarning holati bo'lib, bunda insonning hayotiga, sog'lig'iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar etkazilishi ehtimoli bilan bog'liq yo'l qo'yilmaydigan xavf mavjud bo'lmaydi;

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari бўлиб қуйдагилар ҳисобланади: - inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash;

- atrof muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta'minlash;
- savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish;
- mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi xususida iste'molchilarni chalg'ituvchi harakatlarning oldini olish.

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari (tamoillari):

- texnik reglamentlarni qo'llashning majburiyligi;
- texnik reglamentlarni qo'llashning bir xilligi;
- texnik reglamentlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlarga muvofiqligi;
- texnik reglamentlarning, ularni ishlab chiqish, qabul qilish va e'lon qilish tartibi to'g'risidagi axborotning ochiqligi.[2]

[2] O'zbekiston Respublikasining "Texnik jixatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonuni (11.11.2008 y.)

Texnik jihatdan tartibga solish хизмати sohasida ишларни амалга ошириш учун қуйдаги normativ hujjatlarqga амал қилинади — texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalar va qoidalar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar.

Texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

Umumiy texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdagi mahsulotlar va xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

Maxsus texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

Savdodagi texnik to‘siqlar — mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda mavjud bo‘lgan tafovutlari yoki o‘zgarishlari oqibatida savdoda yuzaga keladigan to‘siqlar.

3.2. O’zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi qonuni, uning mazmuni va mohiyati

O’zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi qonuni 27.02.2023 yildagi O‘RQ-819 sonli qarori bilan qabul qilingan bo‘lib, 29.08.2023 yilda kuchga kirgan. Qonun 8 bob, 53 moddadan tashkil topgan, ikkta kata sohani uz ichiga oladi: Texnik jihatdan tartibga solish va Muvofiqlikni baholashdagi qonunchilikni o’z ichiga oladi.

Qonunning 3-bob, 20 moddasi Texnik jihatdan tartibga solish qonunchilikga yo’naltirilgan bo’lib quydagilarni aks etirilgan:

- Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risidagi qonunchilik;
- Texnik jihatdan tartibga solish bo’yicha asosiy tushunchalar;

- Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari;
- Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi;
- Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari;
- O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlar;
- Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari;
- Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari;
- Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari;
- Texnik reglamentlar. Texnik reglamentlarning maqsadlari;
- exnik reglamentlarning mazmuni;
- Texnik reglamentlarni qayta ko'rib chiqish yoki bekor qilish;
- Standartlarning texnik reglamentlarga muvofiqligi prezumpsiyasi;
- Texnik reglamentlarning qo'llanilishi va o'tish davri;
- Texnik reglamentlarni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar.

Qonunning 4-bobi, 15 moddasi, muvofiqlikni baholash va tasdiqlash sohasiga yo'naltirilgan bo'lib quydagilarni aks etirilgan: muvofiqlikni baholash, muvofiqlikni baholash obyektlari, muvofiqlikni tasdiqlash shakllari, muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash, muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlash, muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya, muvofiqlik sertifikati, muvofiqlik belgisi, arizachining muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash chog'idagi huquq va majburiyatlari, mahsulotni sinash maqsadlari, muvofiqlikni baholash organlariga qo'yiladigan talablar va ularning majburiyatlari, chet davlatlarning muvofiqlikni baholash organlari tomonidan berilgan muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish, muvofiqlikni baholash organini tayinlash (notifikatsiya qilish)/

Qonunning 5-bobi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat nazoratini amalga oshirishning" 33-38 moddalari davlat nazorati organlari, davlat nazorati organlarining huquq va majburiyatlari, davlat

nazorati organlarining va ular mansabdor shaxslarining javobgarligi to'g'risida qonunchilikni o'z ichiga oladi.

Qonunning 39-41 moddalari Mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to'g'risidagi axborot, mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to'g'risida axborot olingan taqdirda ishlab chiqaruvchining, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilining, sotuvchining va import qiluvchining majburiyatlari, mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to'g'risida axborot olingan taqdirda davlat nazorati organlarining harakatlari, mahsulotni majburiy ravishda chaqirib olish masalalari qonunchilikni o'z ichiga oladi.

Qonunning 6-bobi Ishlab chiqaruvchining, sotuvchining, import qiluvchining majburiyatlari qonunchilikni o'z ichiga oladi.

Qonunning 7-bobi. Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik. Qonunchilikda va texnik reglamentda belgilangan majburiy talablarga rioya etilmagan taqdirda ishlab chiqaruvchining, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilining, sotuvchining, import qiluvchining javobgarligi qonunchilikni o'z ichiga oladi.

8-bobi, 48-52 moddalari Yakunlovchi qoidalar, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlarni moliyalashtirish, nizolarni hal etish, O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish qonunchilikni o'z ichiga oladi.

3.3. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi va davlat organlarining vakolatlari

Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini quyidagilar tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi:texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlarini belgilaydi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi; davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholashga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi; texnik

reglamentlarni ishlab chiqish dasturini tasdiqlaydi; texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi; muvofiqlikni baholash organini tayinlovchi (notifikatsiya qiluvchi) organni belgilaydi, uning faoliyati sohasini va vazifalarini tasdiqlaydi; axborot markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi, texnik reglamentlar, standartlar, muvofiqlikni baholash tartib-taomillari to'g'risida xabardor qilish tartibini belgilaydi; O'zbekiston Respublikasidan tashqarida amalga oshirilgan muvofiqlikni baholash natijalarining O'zbekiston Respublikasida tan olinishi tartibini tasdiqlaydi; majburiy davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan, xavf darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini tasdiqlaydi; muvofiqlikni baholash qoidalarini, muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyalarni ro'yxatdan o'tkazish, ularning amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash, tugatish tartibini belgilaydi; texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarining faoliyat yuritish tartibini belgilaydi; davlat nazorati organlarining vakolatlarini, ularning davlat nazoratiga doir faoliyatini muvofiqlashtirish tartibini, shuningdek davlat nazorati organlarining akkreditatsiya organi bilan hamkorligi tartibini tasdiqlaydi; tegishli cheklovchi choralarni ko'rish tartibini, xavfni baholash mezonlarini tasdiqlaydi; yuqori xavf tug'diradigan mahsulot to'g'risida tezkor ravishda o'zaro xabar berish tizimining faoliyat ko'rsatish tartibini tasdiqlaydi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi: texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga umumlashtirilgan takliflar kiritadi; davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi; texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasiga takliflar kiritadi; texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasini tashkil etadi; davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan tegishli texnik reglamentlarni ekspertizadan o'tkazadi; texnik reglamentlar talablariga rioya etilishini ta'minlaydigan hamda texnik reglamentlarda belgilangan mahsulotning muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan, namunalar olish, sinash va o'lchash usullarini belgilaydigan standartlar ro'yxatlarini tasdiqlaydi; majburiy davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan, xavf darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini shakllantiradi, shuningdek mazkur mahsulotlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlaydi; xalqaro (mintaqaviy) standartlarning hamda texnik reglamentlarning vazirliklar va idoralar tomonidan joriy etilishini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi; texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi; texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan ishlab chiqaruvchilarga, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakiliga, sotuvchilarga, import qiluvchilarga yoki ijrochilarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarni qo'llash yuzasidan sudga murojaat qiladi; texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq emas deb topilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar reyestrini yuritadi; muvofiqlik sertifikatlarining va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyalarning reyestrini yuritadi; mahsulotning, uni ishlab chiqarish jarayonlarining yoki usullarining texnik reglamentlar talablariga muvofiqligi prezumpsiyasini ta'minlaydigan standartlar ro'yxatini tasdiqlaydi; texnik reglamentlarni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalarni tasdiqlaydi; texnik reglamentlarning ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va yuritadi;

O'zbekiston Respublikasining muvofiqlikni baholash natijalarini o'zaro tan olish to'g'risidagi va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa masalalarga doir xalqaro shartnomalarini tuzish bo'yicha takliflar tayyorlaydi; texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlarining asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi: maxsus vakolatli davlat organiga texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari bo'yicha takliflar kiritadi; texnik reglamentlarning ishlab chiqilishini ta'minlaydi; texnik reglamentlarni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishini ta'minlaydi va ularni belgilangan tartibda tasdiqlaydi; texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarini tashkil etadi; davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni ekspertizadan o'tkazadi; texnik reglamentlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi; texnik reglamentlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi; texnik reglamentlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirishda ishtirok etadi; texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi: Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida: maxsus vakolatli davlat organiga texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari bo'yicha takliflar kiritadi; texnik reglamentlar va ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishini amalga oshiradi; texnik reglamentlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish haqida takliflar tayyorlaydi; texnik reglamentlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirishda ishtirok etadi; texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan nazoratni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

3.4. Texnik reglamentlarning turlari va mazmuni

Texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat; Texnik reglamentlarning turlari. O'zbekiston Respublikasida texnik reglamentlarning quyidagi turlari qo'llaniladi: **Umumiy texnik reglamentlar.** Umumiy texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdagi mahsulotlar va xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat. **Maxsus texnik reglamentlar.** Maxsus texnik reglament — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

Texnik reglamentlarda mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligini ta'minlashga doir talablar quyidagilar bo'yicha belgilanishi mumkin: biologik xavfsizlik, mexaniq xavfsizlik, kimyoviy xavfsizlik, yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlik, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi; mashina va uskunalarni ishlatish (ulardan foydalanish) hamda utilizatsiya qilish xavfsizligi, elektromagnit mosligi, qurilish ishlari xavfsizligi;n binolar, inshootlardan va ularga tutash hududdan foydalanish xavfsizligi; ekologik xavfsizlik, veterinariya xavfsizligi, sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligi, portlash xavfsizligi, axborot xavfsizligi, o'lchovlarning va sinovlar usullarining bir xilligini ta'minlash.

3.5. Texnik reglamentlarning mazmuni

Texnik reglamentlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligi tavsiflari; xavfsizlik talablari belgilanayotgan mahsulotlar va xizmatlarning to'liq ro'yxati; atamalarga, o'rov-idishga, tamg'alarga yoki yorliqlarga hamda ularni aks ettirish qoidalariga va mahsulotni identifikatsiya qilishga doir talablar; davlat nazoratini amalga oshirish tartibi; mahsulotlar va xizmatlarning texnik jihatdan

tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash uchun zarur bo‘lgan qoidalar.

Sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya qoidalari va normalarida quyidagilar belgilanadi: mahsulotga, uni sinash, tekshirish tartib-taomiliga, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya xulosasini berish tartibiga doir majburiy talablar; karantin va veterinariya-sanitariya qoidalari, shu jumladan hayvonlar va o‘simliklarni tashish bilan bog‘liq talablar;

Texnik reglamentlarda mahsulotning konstruksiyasiga va bajarilishiga doir talablar bo‘lmasligi lozim, insonning hayoti va sog‘lig‘iga zarar etkazilishi xavfi darajasi hisobga olingan holda mahsulotning konstruksiyasiga va bajarilishiga doir talablar yo‘qligi sababli mahsulot xavfsizligi ta’minlanmasligi hollari bundan mustasno.

Mahsulotlar va xizmatlardan uzoq muddat foydalanilishi oqibatida va (yoki) yo‘l qo‘yiladigan xavf darajasini aniqlash imkoniyatini bermaydigan boshqa omillar ta’siri sababli insonning hayoti va sog‘lig‘iga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar etkazadigan mahsulotlar va xizmatlarga doir talablar texnik reglamentlarda bo‘lmasligi kerak. Bunda texnik reglamentlarda ehtimol tutilgan zarar to‘g‘risida hamda insonning hayoti va sog‘lig‘iga, atrof muhitga zarar etkazilishi xavfi qaysi omillarga bog‘liq bo‘lsa, shu omillar haqida iste’molchilarni xabardor qilishga doir talablar bo‘lishi mumkin.

Texnik reglamentlarda mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligiga doir quyidagi maxsus talablar bo‘lishi mumkin: qonun hujjatlarida belgilangan ayrim toifadagi fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i muhofaza qilinishini ta’minlaydigan maxsus talablar; texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda insonning hayoti va sog‘lig‘iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga tahdid soluvchi transchegaraviy xavfli ishlab chiqarish ob’ektlariga oid maxsus talablar. Texnik reglamentlar tugal bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi hamda ularga faqat belgilangan tartibda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yo‘li bilan o‘zgartirilishi mumkin.

3.6. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini shakllantirish texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa vakolatli davlat organlarining hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining o'z vakolatlari doirasidagi takliflari inobatga olingan holda O'zbekiston Respublikasining Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi va belgilangan tartibda e'lon qilinadi. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi. Texnik reglamentlarni ishlab chiqishning tasdiqlanadigan dasturlariga muvofiq ishlab chiqiladi. Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar belgilangan tartibda: - texnik reglamentlar ishlab chiqilishi haqidagi xabarlarni e'lon qiladi;

- texnik jihatdan tartibga solinishi lozim bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarning guruhlari hamda turlarini belgilaydi;

- mahsulotlar va xizmatlarning texnik reglamentlarda belgilanadigan talablarga muvofiqligini baholash usullarini belgilaydi;

- ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni kelishib oladi; ishlab chiqilgan texnik reglamentlardan foydalanish erkinligini ta'minlaydi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar ishlab chiqilgan texnik reglamentlar rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki oy ichida ularning muhokama qilinishini ta'minlaydi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy texnik reglamentlar ekspertizadan o'tkazish uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlariga ular faoliyatining yo'nalishi bo'yicha topshiriladi. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlar ekspertizadan o'tkazish uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlariga ular faoliyatining yo'nalishi bo'yicha topshiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari, davlat boshqaruvi organlari o'z faoliyatining yo'nalishlari

bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli ekspert komissiyasining xulosasi asosida maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi. Tasdiqlangan umumiy va maxsus texnik reglamentlar rasmiy e’lon qilingan paytdan e’tiboran kamida olti oy o‘tgach amalga kiritiladi. Umumiy va maxsus texnik reglamentlarni e’lon qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqishda mahsulotlar va xizmatlarning xavfsizlik mezonlarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlardan foydalaniladi. Texnik reglamentlarda daliliy baza sifatida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning matnlari to‘liq yoki qisman keltiriladi. Texnik reglamentlarga rioya etish barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Texnik reglamentlar amalga kiritilgach, standartlashtirish bo‘yicha ularda ko‘rsatilgan mahsulotlar va xizmatlarga doir ilgari qabul qilingan tegishli normativ hujjatlar majburiylik xususiyatini yo‘qotadi hamda belgilangan tartibda qo‘llanilishda ixtiyoriylik kasb etadi.

Texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlarining va davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Takrorlash uchun savollar:

1.Texnik jihatdan tartibga solish xizmati deganda nimani tushunasiz?

2. Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari bo’lib nimalar hisoblanadi?

3. Texnik jihatdan tartibga solish xizmati sohasida ishlarni amalga oshirish uchun qanaqa normativ hujjatlarqga amal qilinadi?

4. «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida»gi qonunining mazmuni va mohiyati.

5. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi va davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari nimalardan iborat?

6. Texnik reglamentlarning turlari va mazmuni.

7. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi .

8. Texnik reglamentlarning mazmuni va mohiyati nimalardan iborat?

IV BOB. O‘zbekiston Respublikasi muvofiqlikni baholash milliy tizimi

4.1. Muvofiqlikni baholashning maqsadi va vazifalari

«Muvofiqlikni baholash» iborasi lotincha so‘zidan olingan bo‘lib, «to‘g`ri qilingan», ya’ni to‘g`ri bajarilgan degan ma’noni bildiradi. Amalda mahsulot, xizmat yoki jarayonning to‘g`ri qilinganligi (bajarilganligi) ularning me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos kelishini ishlab chiqaruvchi va iste’molchidan mustaqil bo‘lgan uchinchi tomon yordamida tekshirish orqali amalga oshiriladi. Me’yoriy hujjatlar talablariga to‘liq mos keladigan mahsulot, xizmat yoki jarayon muvofiqlikni baholashdan to‘siqsiz o‘tadi. Mahsulotdan tashqari, amalda shu mahsulotni ishlab chiqarayotgan korxonaning sifat tizimlari ham, muvofiqlikni baholashdan o‘tkaziladi. Uning asosiy maqsadi - ushbu korxonaning me’yoriy hujjatlar talablariga yoki iste’molchilar bilan tuzilgan bitimlarda ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan mahsulotni ishlab chiqarish imkoniyatiga ishonch qosil qilishdan iborat. Shu boisdan ham korxonalar mahsulotlarining va sifat tizimlarining muvofiqlikni baholashdan o‘tkazilishi milliy mahsulotning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash shartlaridan eng asosiysi hisoblanadi.

Mahsulot, xizmat, jarayon va boshqa ob’ektlarni, muvofiqlikni baholashning huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy asoslari hamda muvofiqlikni baholashda qatnashuvchi tomonlarning huquqlari, vazifalari va javobgarliklari O‘zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g`risida»gi qonunida va O‘z RST 5.0:1998da (O‘z SMT. Asosiy qoidalar)da ko‘rsatilgan.

Muvofiqlikni baholash milliy tizimi deganda muvofiqlikni baholash bo‘yicha o‘zining boshqaruv va ijro idoralariga hamda tartib-qoidalariga ega bo‘lgan va davlat miqyosida amal qilinadigan tizim tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasida muvofiqlikni baholash milliy tizimi to‘liq shakllantirilgan.

O‘zbekiston muvofiqlikni baholash milliy tizimi qoidalari va tartiblari ISO/MEK, ISO xalqaro standartlari, muvofiqlikni baholash

bilan shug`ullanadigan boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning maxsus hujjatlarida ko‘rsatilgan xalqaro me’yorlar va qoidalar bilan uyg`unlashtirilgan. Bu esa muvofiqlikni baholash organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini va belgilarini chet ellarda tan olishni ta’minlaydi. O‘zbekiston muvofiqlikni baholash milliy tizimi qoidalari milliy mahsulotlardan tashqari, chet eldan keltiriladigan mahsulotlarga ham tegishlidir.

Muvofiqlikni baholash tizimining asosiy maqsadi muvofiqlikni baholash sohasidagi asosiy atama va tushunchalarning asosiy mazmunini, respublikada muvofiqlikni baholash jarayonini o‘tkazishning tartib va qoidalarini belgilashdan iborat. Shu boisdan ham muvofiqlikni baholash milliy tizimining asosiy masalalari quyidagilardan iborat:

- muvofiqlikni baholash faoliyatida ishlatiladigan va me’yoriy hujjatlarda qo‘llaniladigan asosiy atama va tushunchalarning nomlarini va mazmunini belgilash;
- bir turdagi mahsulotlarni muvofiqlikni baholash umumiy qoida va tartiblarini belgilash; muvofiqlikni baholash uchun sinovlarni o‘tkazish qoida va tartiblarini aniqlash;
- muvofiqlikni baholash jarayonida qo‘llaniladigan me’yoriy va rahbariy hujjatlarni belgilash;
- bir turdagi mahsulotlarni muvofiqligini baholash bo‘yicha idoralarni, sinov laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditlash qoidalarini o‘rnatish;
- muvofiqlikni baholashda qatnashchilarining davlat boshqaruv idoralari bilan o‘zaro hamkorlik qilishini tashkil etish.

4.1. Muvofiqlikni baholashning maqsadi va vazifalari

Mahsulot va xizmatlarni muvofiqlikni baholash O‘zbekiston muvofiqlikni baholash milliy tizimining doirasida amalga oshiriladi. muvofiqlikni baholash mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarning me’yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini ta’minlashi kerak. muvofiqlikni baholash jarayonining maqsadiga faqat shu orqali erishiladi.

Ma'lumki, muvofiqlikni baholashnung asosiy maqsadi inson hayoti va sog`ligini, atrof-muhitni turli zararli ta'sirlardan saqlash hamda tovarlar o'zaro almashuvini va muvofiqligi bo'yicha iste'molchilar manfaatini himoya qilish, xalqaro tijorat (savdo-sotiq) ishlarida to'siqlarni bartaraf etish va milliy mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun muvofiqlikni baholash faoliyati quyidagi asosiy vazifalarni qal qilishga yo'naltiriladi:

- inson hayoti va sog`lig`i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfli mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish ustidan qat`iy nazorat o'rnatish;

-jahon bozorida milliy mahsulot raqobatbardoshligini oshirish;

-milliy va qo'shma korxonalar hamda tadbirkorlarning xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorligida va xalqaro tijorat (savdo-sotiq) ishlarida qatnashishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish;

- iste'molchini mahsulot ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, bajaruvchi) vijdonsizligidan (noinsofsizligidan) himoya qilish;

-iste'molchilar talabnomalarida ko'rsatilgan talablarni mahsulot sifati orqali ta'minlash.

muvofiqlikni baholashning yuqorida ko'rib chiqilgan maqsad va vazifalari birinchi navbatda oziq-ovqat mahsulotlariga tegishlidir.

O'zbekiston Respublikasining muvofiqlikni baholash milliy tizimida muvofiqlikni baholash ishlari majburiy muvofiqlikni baholashdan o'tkazilishi lozim bo'lgan mahsulotlarning ro'yxati va qonun hujjatlari talablari asosida o'tkaziladi. Muvofiqlikni baholash bo'yicha qonun hujjatlarining asosini O'zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to'g`risida»gi, «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g`risida»gi, «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g`risida»gi, «O'simliklar karantini to'g`risida»gi qonunlar tashkil qiladi.

Ba'zi bir rivojlangan mamlakatlarda mahsulotni (xizmatni) ekologik muvofiqlikni baholash bo'yicha ham katta tajriba to'plangan. O'zbekistonda ham bu sohada tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Respublikada ekologik nuqtai- nazardan mahsulotlarni (xizmatlarni)

muvofiqlikni baholashning rivojlanishiga ISO 14000 seriyali xalqaro standartlarining qabul qilinishi katta ahamiyatga ega.

Ekologik muvofiqlikni baholashning asosiy maqsadi tabiiy muhitni, ya'ni atrof-muhitni minimal darajada ifloslantiradigan va iste'molchi hayoti, sog`lig`i, mol-mulki va yashash muhiti (sharoiti) uchun mahsulot xavfsizligini kafolatlaydigan texnologik jarayonlarni ishlab chiqarish va amalga joriy etishdan iborat.

Agar muvofiqlikni baholash tizimida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning tajribalari va muvofiqlikni baholash bo'yicha xalqaro tashkilotlarning tavsiya va qoidalari hisobga olinmasa hamda muvofiqlikni baholash bo'yicha amaldagi qonunlarga rioya qilinmasa, muvofiqlikni baholash faoliyatining oldiga qo'yilgan maqsadga erishish o'ta qiyin bo'ladi. Bunday vaqtlarda muvofiqlikni baholash xalqaro savdo-sotiq ishlarining rivojlanishiga imkon berishning o'rniga asosiy texnikaviy to'siqlardan biriga aylanib qoladi. Shunday hollarning ro'y bermasligi uchun

4.2. Muvofiqlikni baholash milliy tizimining tamoyillari

O'zbekiston muvofiqlikni baholash milliy tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:- muvofiqlikni baholash ob'ekti haqidagi axborotning ishonchliligini va belgilangan darajadagi aniqligini ta'minlashga;

- sinov laboratoriyalarining (markazlarining) tayyorlovchi va iste'molchilardan mustaqilligiga;
- chet el iste'molchilariga (so'rovchilariga) nisbatan kamsitishlarni umuman bartaraf kilishga;
- arizachining muvofiqlikni baholash idoralarini va sinov laboratoriyalarini o'zlarining xohishiga ko'ra tanlashining huquqi borligiga;
- muvofiqlikni baholash tomonlarining va ekspert-auditorlarning noto'g`ri harakati uchun qonun oldida javobgarligiga;
- muvofiqlikni baholash natijalari, uni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning o'ziga xos xususiyatlariga bog`liq sinash usullarining xilma-xilligiga va aniqlik darajalariga (malakaviyligiga);

- muvofiqlikni baholash faoliyatida ISO/MEK tavsiyanomalari va qoidalaridan va boshqa xalqaro hujjatlardan foydalanishga;

- O‘zbekiston Respublikasi ishtirogidagi turli kelishuvlar va bitimlar asosida muvofiqlikni baholash bo‘yicha chet el idoralari va sinov laboratoriyalarini akkreditlashga, ularning muvofiqliq sertifikatlarini va muvofiqlik belgilarini tan olishga;

- tijorat siri bilan bog`liq axborotning maxfiyligiga rioya qilishga;

- kerak bo‘lgan vaqtlarda muvofiqlikni baholash ishlariga iste’molchilar jamiyatlarini jalb qilishga.

Yuqorida ko‘rsatilgan talab tamoyillariga amal qilgan qolda muvofiqliqlatirish faoliyatini olib borish O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarining rivojlantirish garovi hisoblanadi.

4.3. Muvofiqlikni baholash milliy tizimining asosiy atamalari va ularning tariflari

Muvofiqlikni baholash bo‘yicha ham standartlashtirilgan atamalar mavjud bo‘lib, ular ham ilmiy, texnikaviy, o‘quv va ma’lumotnoma adabiyotlarida aynan ishlatilishlari zarur, ularning o‘rniga sinonimlarini ishlatish taqiqlanadi. Shu bilan birga ishlab chiqarish uchun mutaxassislarni tayyorlashda ta’lim sohasiga mansub boshqa atamalarning ham ishlatilishi mumkin.

Mahsulot, jarayon yoki xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilish muvofiqlik deb ataladi.

Mahsulotning muvofiqligini ishlab chiqaruvchi va iste’molchilardan manfaatdor bo‘lmagan uchinchi tomon tasdiqlaydi. Uchinchi tomon deganda ko‘riladigan masalada qatnashayotgan tomonlarga nisbatan mustaqil bo‘lib hisoblanadigan jismoniy shaxs yoki tashkilot tushuniladi. Muvofiqlikni tasdiqlashda odatda uchinchi tomon vazifasini sinov laboratoriyalari (markazlari) o‘taydi. Shu boisdan ham aniq bir sinalgan namunaning muayyan standartga yoki boshqa me’yoriy hujjatga mos kelishini isbotlash sinov laboratoriyasining asosiy faoliyati hisoblanadi.

Berilgan mahsulot, jarayon yoki xizmatning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini etarli darajada isbotlaydigan uchinchi tomonning faoliyatiga muvofiqlikni sertifikatlashtirish deyiladi.

Mahsulot, jarayon yoki xizmatning belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqarilganligini tasdiqlash maqsadida uchinchi tomon ma'lum bir tartibda faoliyat olib boradi. Uchinchi tomon faoliyatining tarkibi va tartibini muvofiqlikni baholash tartibi (sxemasi) deyiladi.

Agar uchinchi tomon mahsulot, jarayon yoki xizmatning ularga belgilangan talablariga rioya qilingan holda ishlab chiqilganligini tasdiqlasa, muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi beriladi.

Muvofiqlik sertifikati deganda mahsulot, jarayon yoki xizmatning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishini ishontiradigan va muvofiqlikni baholash tizimi qoidalari asosida nashr etilgan hujjat tushuniladi.

Muvofiqlik belgisi deganda ushbu mahsulot, jarayon yoki xizmat ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishiga ishontiruvchi muvofiqlikni baholash qoidalari asosida berilgan yoki ishlatiladigan va ma'lum tartibda himoya qilinadigan belgi tushuniladi.

4.4. Muvofiqlikni majburiy va ixtiyoriy ravishda tasdiqlash

O'zbekiston Respublikasida muvofiqlikni baholash majburiy va ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash deganda muvofiqlikni vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot (xizmat)ning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlashni tushunish kerak.

Muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash orqali ta'minlanadi. Faqat O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqarilayotgan mahsulotgina muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash obyekti bo'lishi mumkin. Muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya va muvofiqlik sertifikati teng yuridik kuchga ega hamda muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyaning yoki muvofiqlik sertifikatining amal qilishi vaqtida muomalaga chiqariladigan mahsulotga nisbatan mahsulotning

yaroqlilik muddati yoxud xizmat muddati davomida O‘zbekiston Respublikasining butun hududida amal qiladi. Muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash ishlarining qiymati mahsulot kelib chiqqan mamlakatdan va (yoki) joydan, shuningdek arizachining maqomidan qat’i nazar, mustaqil ravishda belgilanadi.

Mahsulotlarni majburiy ravishda muvofiqligini tasdiqlash tartibi «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g`risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga asosan ishlab chiqilgan. Qonun xavfsizligini tasdiqlash talab etiladigan tovarlarni, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini, O‘zbekiston Respublikasi hududiga keltirish va ularni tashqariga chiqarish qoidalarini belgilaydi. Majburiy ravishda muvofiqligini tasdiqlash tartibi «Texnik jihatdan tartibga solish agentligi» ning qarori bilan tasdiqlanadi.

Muvofiqligini tasdiqlash shart bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxati har yili Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi. Ro‘yxatda majburiy ravishda muvofiqligini tasdiqlash shart bo‘lgan mahsulotlarning nomi va ularning tashqi iqtisodiy faoliyat tovar normativlarining kodi ko‘rsatiladi.

Muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlash - bu ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta’minlovchi) yoki iste’molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladigan muvofiqliqlatirishdir.

Muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlash arizachining tashabbusiga ko‘ra arizachi va muvofiqlikni baholash organi o‘rtasidagi shartnoma shartlari asosida amalga oshiriladi. Majburiy muvofiqligini tasdiqlash ro‘yxatiga kirmagan mahsulotlar tayyorlovchi (bajaruvchi), sotuvchi (mahsulot yetkazib beruvchi) yoki iste’molchining shaxsiy tashabbusi bilan muvofiqligini tasdiqlash ixtiyoriy ravishda o‘tkazilishi mumkin, ya’ni ro‘yxatga kirmagan har qanday mahsulot ixtiyoriy ravishda muvofiqligini tasdiqlanishi mumkin. Muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlashning maqsadi mahsulotning raqobatbardoshligini ta’minlashdan va o‘zining sifat tizimiga ishonch hosil qilishdan iboratdir.

Muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlash qonun-qoidalariga ko‘ra o‘z mahsulotini muvofiqligini tasdiqdan o‘tkazish uchun talabgor

o‘zining xohlagan me’yoriy hujjatini tanlashi mumkin. Bundan tashqari, mahsulotning muvofiqligini tasdiqlashdan o‘tkaziladigan ko‘rsatkichlarini va sinash uslublarini xam talabnoma bergan, yuridik yoki jismoniy shaxs tanlaydi. Faqat muvofiqligini tasdiqlash tartibi (sxemasi) talabgorning takliflarini hisobga olgan qolda bir turdagi mahsulotni muvofiqligini tasdiqlash bo‘yicha idora tomonidan aniqlanadi.

Mahsulotni muvofiqligini ixtiyoriy ravishda tasdiqlash tartibi ham majburiy muvofiqligini tasdiqlash tartibiga o‘xshash. Muvofiqligini ixtiyoriy ravishda tasdiqlashdan o‘tkazilgan mahsulotga ham muvofiqlik sertifikati beriladi.

Chet ellik arizachi (yuridik va jismoniy shaxslar) ham o‘zining mahsulotini ixtiyoriy ravishda muvofiqligini tasdiqlashini o‘tkazishlari mumkin. Mahsulotini ixtiyoriy muvofiqligini tasdiqlashdan o‘tkazish to‘g`risidagi qarorni arizachi o‘zi qabul qiladi. Chet ellik shaxsning mahsuloti arizachining xohlagan me’yoriy hujjatlar (milliy, xalqaro, yoki xohlagan rivojlangan mamlakat standarti) talablari asosida muvofiqligini tasdiqlashdan o‘tkaziladi.

Chet eldan keltirilgan mahsulotga ham muvofiqlik sertifikati beriladi va u muvofiqlik sertifikatlarining va muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarning reyestrida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Muvofiqlik sertifikati deganda yetkazib berilayotgan mahsulotga ilova qilinadigan va uning sifatini tasdiqlaydigan hujjat tushuniladi. Mahsulotdan tashqari, amalda korxonaning (tashkilot) ishlab chiqarish sharoiti ham muvofiqligini tasdiqlashdav o‘tkazilishi mumkin.

4.5. Sinov laboratoriyalarining vazifalari

Akkreditasiyalangan mustaqil sinov laboratoriyalari (markazlari) quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

Muvofiqligini tasdiqlaydigan mahsulotni sinovdan o‘tkazish, sinov natijalarining ishonchliligini, beg`arazligini (ob’ektivligini), talab qilingan aniqligini ta’minlash va sinov qarorlarini tegishli idoralarga o‘z vaqtida va qo‘yilgan talablar saviyasida berish;

- hayot xavfsizligi va fuqarolar soglig`ini, mol- mulkini, atrof-muhitni, muhofaza qilishni ta'minlaydigan talablar asosida o'tkazilgan mahsulot sinovining salbiy natijalari to'g`risida sinovni o'tkazishni topshirgan va tegishli davlat nazorat idoralariga zudlik bilan xabar berish, muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtirish va berish, agar ushbu vazifa muvofiqligini tasdiqlaydigan idorasi tomonidan topshirilgan bo'lsa;

muvofiqligini tasdiqlashdan o'tkaziladigan mahsulotlarning namunalarini nazoratdan o'tkazib turish, agar muvofiqlashtirish tartibida (sxemasida) nazarda tutilgan bo'lsa;

- sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni muvofiqligini tasdiqlashnф qatnashish (faqat sinovlarni aniq o'tkazish qismida);

- sinov natijalari bo'yicha barcha shikoyatlarning hisobini (monitoringini) olib va inspeksiya nazorati bilan bogliq to'lovlarni o'z vaqtida to'lab borish, o'zining texnikaviy layoqati jihatidan talablarga muvofiqligini tekshirib turish maqsadida nazorat sinovlarini o'tkazib borish;

- belgilangan vaqtda o'zining faoliyati to'g`risida ob'ektiv hisobot berib borish.

Sinov laboratoriyalari vazifalarining doirasi ko'rsatilganlardan ham kengroq va qolgan vazifalari ularning huquq va burchlaridan kelib chiqadi.

Muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati mahsulotning xossalariga bog`liq bo'ladi. Sertifikatning amal qilish muddati uch yildan oshmasligi kerak.

Import va eksport qilinadigan mahsulotlarning xavfsizligini ta'minlash tartibi. Tovarlar xavfsizligini tasdiqlash ularni muvofiqligini tasdiqlash yo'li bilan yoki sertiikatlarni tan olish yoxud respublikadan tashqarida tovar ishlab chiqaruvchiga tovar uchun berilgan tashqi muvofiqlik guvohnomalari orqali amalga oshiriladi.

4.6. Xorijiy sertifikatlarni tan olish qoidalari

O'zbekiston Respublikasida xorijiy sertifikatlarni tan olish qoidalari O'zbekiston Respublikasi «Standartlar instituti» davlat

muassasasi va «Синов ва сифат назорати маркази» давлат муассасаси tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Import va eksport qilinadigan, ya'ni tashqaridan keltiriladigan va respublika hududidan tashqariga chiqariladigan mahsulotlar ham xavfsizlik, sog`lik va atrof- muhitni himoyalash talablariga muvofiq Muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlashtirishdan o'tkazilishi kerak. Ularning ro'yxati tashqi aloqalar vazirligi va boshqa manfaatdor respublika tashkilotlari bilan kelishilgan holda har yili «O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi» davlat muassasasi tomonidan tasdiqlanadi, hamda mahsulotning xavfsizligini tasdiqlash uchun kerakli me'yoriy hujjatlarni ko'rsatgan holda respublika bojxona va soliq ko'mitalariga beriladi. Import va eksport qilinadigan mahsulotlarning xavfsizlik talablariga muvofiqligining zarurligi va bu muvofiqlikni tasdiqlash shartnoma va bitimlarda ko'rsatiladi.

Tashqaridan keltiriladigan mahsulotni majburiy muvofiqlashtirishdan o'tkazish javobgarligi bir turdagi mahsulotni muvofiqlikni baholash idorasiga yuklatiladi. Muvofiqlikni baholashi shart bo'lgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga keltirilgan yoki olib chiqib ketishga ruxsat berish uchun «O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi» davlat muassasasi tomonidan tan olingan yoki berilgan sertifikat asos bo'ladi.

Sertifikat (yoki uning nusxasi) tovar yetkazib beruvchi yoki tovarni qabul qilib oluvchi tomonidan bojxona organiga ko'rsatiladi va uning chegarasidan mahsulot o'tkazilgunga qadar tekshiriladi. Sertifikat, agar imzoning va sertifikatni bergan muvofiqlikni tasdiqlash organi muhrining asli hamda muvofiqlikni tasdiqlash milliy tizimining davlat ro'yxatidagi sertifikatni ro'yxatga olish raqami va sanasi bo'lganda, tan olinadi.

Mahsulotlarni import qilish bo'yicha tuziladigan bitim va shartnomalarda ularni majburiy muvofiqlashtirish tartibi ko'rsatilishi kerak. Agar tashqaridan keltiriladigan mahsulotni O'zbekiston Respublikasi muvofiqlikni tasdiqlash milliy tizimi talablariga ko'ra majburiy muvofiqlikni tasdiqlash ko'zda tutilgan bo'lsa, talabgor talabnomasini, bitim va shartnomalarda ko'rsatilgan yoki xalqaro

muvofiqlikni tasdiqlash tizimlari qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar ilova qilingan holda, «O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi» davlat muassasasi yoki tegishli bir turdagi mahsulotni muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha idoraga yuboradi.

Talabnomani olgandan keyin «O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi» davlat muassasasi yoki bir turdagi mahsulotni bo'yicha tegishli idora 15 kun oshmasdan talabnoma va unga ilova qilingan hujjatlarni tahlil qilib chiqadi va talabgor bilan birgalikda talabnomada ko'rsatilgan mahsulotni majburiy muvofiqligini tasdiqlash tartibini (sxemasini) belgilaydi.

Agar O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlarida muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha qo'shimcha yoki o'ziga xos maxsus talablar bo'lsa, tashqaridan keltiriladigan mahsulot ushbu talablarga asosan qo'shimcha holda majburiy muvofiqlikni tasdiqlashidan o'tkaziladi. Faqat shundan keyin avvalgi va qo'shimcha muvofiqlikni tasdiqlash natijalarini hisobga olgan holda xorijiy talabgor taqdim etgan muvofiqlik sertifikati tan olinadi.

Import qilinayotgan mahsulotga boshqa mamlakatning muvofiqlashtirish idorasi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikati bir turdagi mahsulotni muvofiqlashtirish idorasi yoki u bo'lmagan taqdirda, muvofiqlashtirish bo'yicha milliy idora «O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi» davlat muassasasi tomonidan tan olinadi, agar mahsulotga qo'yilgan talablar milliy standart talablariga mos kelsa va ulardan past bo'lmasa, ushbu mahsulot O'zbekiston Respublikasi muvofiqlashtirish milliy tizimida qo'llanilayotgan tartib (sxema) bo'yicha muvofiqlikni baholashdan o'tkazilgan bo'lsa, boshqa mamlakatlar sertifikatlarini tan olishda muvofiqlashtirish bo'yicha idora import qilinayotgan mahsulotni to'liq yoki ba'zi bir ko'rsatkichlari bo'yicha muvofiqlashtirishdan o'tkazishi mumkin. Bunday hollarda talabgor mahsulot namunalarini berishi shart.

Chet mamlakat sertifikati tan olinganda, O'zbekiston Respublikasi muvofiqlikni baholash milliy tizimida ko'zda tutilgan muvofiqlik sertifikati beriladi, mahsulot esa «O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi» davlat muassasasi reestriga kiritiladi. Muvofiqlik

sertifikatini olishda mahsulot va idish, mahsulot to‘g`risidagi hujjatlar muvofiqlik belgisi bilan tamg`alanadi. Tashqaridan keltirilayotgan mahsulotni O‘zbekiston Respublikasi hududiga muvofiqlikni baholamasdan kiritish uchun «O’zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi» davlat muassasasining maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) - talabgorga quyidagi holda berilishi mumkin, agar:

- talabgor O‘zbekiston Respublikasi qatnashayotgan xalqaro muvofiqlikni baholash idoralari tomonidan berilgan sertifikatni taqdim qilgan bo‘lsa;

Tashqaridan keltiriladigan mahsulotga berilgan sertifikat, shuningdek mahsulotni mamlakat ichkarisiga kiritish uchun berilgan maxsus ruxsatnoma (litsenziya) to‘g`risidagi ma’lumotlar, rasmiylashtirilgandan keyin 10 kun ichida «Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti» davlat muassasasi (Standartlar instituti) ” davlat korxonasiga, Tashqi aloqalar vazirligiga, Bojxona qo‘mitasiga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga yuboriladi.

Import qilinadigan mahsulotlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha qo‘llaniladigan, ro‘yxatdan o‘tkazib beriladigan barcha hujjatlar (talabnoma, qaror, aktlar, attestatlar, sertifikatlar va boshqalar) davlat va rus tillarida rasmiylashtiriladi. Talabgorning xohishiga qarab hujjat nusxalari ISO tomonidan rasmiy ravishda tan olingan tillardan birida berilishi ham mumkin.

Sertifikatni tan olish bo‘yicha barcha ishlar xarajati, shu jumladan talabnomani ko‘rib chiqish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, ishlab chiqarishni tekshirish, sinov o‘tkazish, hujjatlarni rasmiylashtirish, mahsulot ustidan tekshiruvchan nazorat olib borish va boshqalar uchun xarajatlar talabgor tomonidan to‘lanadi.

Import qilinadigan mahsulotga berilgan milliy va tan olingan chet mamlakatlarning sertifikatlari, muvofiqlik belgisi yoki maxsus ruxsatnoma (litsenziya) yuk deklaratsiyasi bilan birgalikda tegishli bojxona idorasiga beriladi. Ushbu hujjatlar majmui mahsulotni respublika hududiga kiritish uchun asos bo‘ladi.

4.7. Muvofiqlikni baholash sxemalari va ularning qo'llanilishi

O'zbekiston milliy standartlashtirish tizimida muvofiqlikni majburiy va ixtiyoriy ravishda tasdiqlash uchun 9 ta muvofiqlikni baholash sxemalari nazarda tutilgan.

1 - sxema muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati ichida yangidan ishlab chiqarilgan yoki seriyalab ishlab chiqorilishi o'zlashtirilgan mahsulotni muvofiqlikni baholashda qo'llaniladi. Bu sxema, bundan tashqari, turdosh mahsulotlarni muvofiqlikni baholash idorasi tomonidan kvalifikatsion sinovlarni o'tkazishda ham qo'llaniladi. Ushbu sxema bo'yicha sinov natijalari asosida mahsulot tipi (turi) aniqlanadi.

muvofiqlikni baholashning *2- sxemasi* uzoq muddatli shartnomalar yoki ayrim shartnomalarga asosan tashqaridan O'zbekiston Respublikasi chegarasiga (bojxonasiga) keltirilgan seriyalab ishlab chiqarilgan mahsulotlarning namunalarini inspeksion tekshiruvdan o'tkazishda qo'llaniladi.

3 - sxema. muvofiqlikni baholashning bu sxemasi ishlab chiqarishni tahlil qilish va baholash, inspeksion tekshiruv, davlat nazorat organlari dalolatnomalarining natijalariga hamda ishlab chiqarish yoki sifat tizimiga berilgan muvofiqlik sertifikatiga ko'ra seriyalab ishlab chiqarishning barqarorligiga hech qanday shubha tug`ilmaydigan milliy mahsulotlarni muvofiqlikni baholashda qo'llaniladi.

Seriyalab ishlab chiqarilayotgan milliy mahsulotlarni har tomonlama va jiddiy sinov nazoratidan o'tkazishda muvofiqlikni baholashning *4 -sxemasi* qo'llaniladi.

Muvofiqlikni baholashning *5 va 6- sxemalari* seriyalab ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni muvofiqlikni baholash uchun qo'yidagi hollarda qo'llaniladi, agar:

•mahsulotning tanlab olingan namunalari ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ob'ektiv (xolisona) baholash uchun yetarli bo'lsa;

• ishlab chiqarish texnologik jarayonlari tashqi muhitga nisbatan ta'sirchan bo'lsa;

• ishlab chiqarilayotgan mahsulot tavsiflarining barqarorligiga o‘ta yuqori jiddiy talablar qo‘yilgan bo‘lsa;

• mahsulotning iste’mol qilish yoki foydalanish uchun yaroqlilik muddati uni akkreditlangan sinov laboratoriyalarida (markazlarida) sinash muddatidan kam bo‘lsa;

• mahsulot iste’molchida o‘rnatilgandan (montaj qilingan) keyin sertifikatlashtirish sinovlaridan o‘tkazilishi kerak bo‘lsa.

Yuqorida ko‘rsatilgan hollarda *6-* muvofiqlikni baholash sxemasi majburiy muvofiqlikni baholashda mahsulotning barcha tavsiflarini qo‘yilgan talablarga muvofiqligini tekshirishni o‘z ichiga oladigan korxonada sifat tizimlari mavjud bo‘lgan va ular muvofiqlikni baholash organi (idorasi) tomonidan muvofiqlik sertifikati bilan tasdiqlangan hamda sifat menejmenti elementlari ma’lum me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lgan paytlarda qo‘llaniladi.

Muvofiqlikni baholashning *7 va 8- sxemalari* faqat bir marta ishlab chiqarilishi, import qilinishi yoki sotilishi mumkin bo‘lgan mahsulotlarni muvofiqlikni baholashda qo‘llash uchun tavsiya etiladi.

Takrorlash uchun savollar:

1.O`zbekiston Respublikasi muvofiqlikni baholash milliy tizimining vazifalari?

2. Muvofiqlikni baholash tizimining asosiy maqsadi nimalardan iborat?

3. O`zbekiston Respublikasida muvofiqlikni baholash milliy tizimi qanaqa tamoyillarga asoslanadi?

4. Muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash deganda nimani tushunasiz?

5. Muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlash deganda nimani tushunasiz?

6. Chet eldan keltirilgan mahsulotlarning muvofiqligini tasdiqlash qanaqa amalga oshiriladi?

7. Akkreditasiyalangan mustaqil sinov laboratoriyalari deganda nimani tushunasiz?

8. Xorijiy sertifikatlarni tan olish qoidalari nimalardan iborat?

9. O`zbekiston milliy tizimida muvofiqlikni majburiy va ixtiyoriy ravishda tasdiqlash uchun nechta muvofiqlikni baholash sxemalari nazarda tutilgan?

10. O`zbekiston milliy tizimida muvofiqlikni majburiy va ixtiyoriy ravishda tasdiqlash sxemalarining mazmuni va mohiyati.

5 BOB. MAHSULOT SIFATINI TA'MINLASH VA BOSHQARISH XIZMATI

5.1. Mahsulot sifatini ta'minlash xizmati haqida tushuncha

Mahsulot sifatini ta'minlash, uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish va uni boshqarish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu muommani hal etishda standartlashtirish metrologiya va s muvofiqlikni baholash muhim rol o'ynaydi, chunki faoliyatning bu yo'nalishi mahsulot sifatini oshirish va ta'minlashning me'yoriy – huquqiy asoslarini yaratishga va dunyo standarti darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqishini ta'minlash, jahon bozoriga chiqish hamda ichki bozorni egallashga yo'l ochib beradi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish mahsulot sifatini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Metrologiya mahsulot (xizmat) lar sifatini ilmiy – texnik nazorat qilishning asosi hisoblanadi. Qaerda mahsulot holati, o'lchamlari zamonaviy ishlash va o'lchash vositalari orqali aniqlansa, o'sha erda yuqori sifatga erishish mumkin.

Mahsulot (xizmat)ni muvofiqlikni baholash esa ularni standartlar talablariga javob berishini isbotlovchi ish tartiblarini belgilaydi. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta'minlash gorovi hisoblanadi.

Mahsulot (xizmat) sifatiga qo'yiladigan talablar ham standartlar va muvofiqlikni baholashning boshqa me'yoriy hujjatlari orqali belgilanadi. Standartda fan, texnika va xalqaro tajribaning ilg'or yutuqlari shakllanadi, chunki standartlarni tuzishda mahsulot sifatiga qo'yiladigan ichki va tashqi bozor, inson hayoti, mol - mulki va atrof muhit uchun xavfsizlik talablari belgilanadi. Shuningdek milliy standart va texnik shartlarning xalqaro, mintaqaviy va MDH davlatlararo standartlari bilan uyg'unlashtirish ham sifatni yaxshilash, uni ta'minlash va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mahsulot uchun mo'ljallangan standart talablariga qat'iy rioya qilish (ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish paytlarida) mahsulot sifatini talab darajada ta'minlashga ko'plab imkon yaratib beradi. Standartlar mahsulot sifatini ta'minlash uchun: birinchidan - mahsulot

ishlab chiqarish bo‘yicha ko‘p marta takrorlanib turiladigan texnologik jarayonlar va uning sifatiga qo‘yiladigan talablarni aks ettirishi; ikkinchidan – eng yaxshi maqbul echimga asos bo‘lishi; uchinchidan – amalga kiritilgan standart ma’lum muddat davrida o‘zgarmaydigan hamda samarali bo‘lishi va shunga o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lishi shart.

Standartlashtirishning ushbu xususiyatlaridan oxirgisi (o‘zgarmaydigan va samarali bo‘lishi) e’tiborga ko‘proq loyiq, chunki standart tez – tez o‘zgaruvchan va samarasi pasaysa, u holda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati ham pasayadi, sifatni ta’minlab bo‘lmaydi va oxirida ishlab chiqarishning ham samaradorligi kamayadi, nihoyatda uni inqirozga uchrashiga ham sabab bo‘ladi. Shuning uchun standartlar ham muntazam ravishda baholanib turiladi, kerak bo‘lsa qayta ko‘rib chiqiladi, kerakli o‘zgartirishlar kiritiladi, bekor qilinadi yoki uning o‘rniga fan va texnikaning ilg‘or yutuqlariga asoslangan yangi standartlar yaratiladi.

Hozirgi kunda ham yangi ishlab chiqariladigan va amaldagi me’yoriy hujjatlar talablariga mos keladigan mahsulotning sifatini yanada yaxshilash va uni ta’minlash hamda boshqarish ustida samarali ishlar olib borilmoqda. Bunday chora – tadbirlar ichki va tashqi bozor, inson hayoti, uning mol – mulki va atrof– muhit uchun xavfsiz va jamiyat talablariga muvofiq keladigan mahsulot ishlab chiqarishda muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ko‘plab me’yoriy hujjatlar va ilmiy manbalarda mahsulot yoki xizmatga nisbatan «sifatni oshirish yoki yaxshilash», «sifatni ta’minlash», «sifatni boshqarish» kabi atamalar yoki tushunchalar ishlatiladi.[3]

Sifatni ta’minlash deb, mahsulot yoki xizmat sifatiga belgilangan ma’lum talablarni qondirishga ishonch hosil qilish uchun davriy ravishda rejalashtiriladigan va o‘tkaziladigan chora - tadbirlar majmuiga aytiladi.

Sifatni ta’minlash bo‘yicha o‘tkaziladigan chora va tadbirlarga quyidagilar kiradi:

[3]Абдувалиев А.А. и др. «Основы Стандартизации, сертификации, метрологии и управления качеством продукции». Ташкент, 2002

- bozorni o‘rganish; xom ashyo va materallar etkazib beruvchi korxonalarni qayta tayyorlash; ishchi xodimlar va mutaxassislarni yangi texnologiya talablariga muvofiq malakasini oshirish;

- texnologik jihozlar qismlarini o‘z vaqtida almashtirish va ularga texnik xizmatlar ko‘rsatish;

- o‘lchash vositalarining holatini o‘rganish va ularni qiyoslashdan o‘tkazish;

- sifat tizimlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni xalqaro sifat tizimlari bilan uyg‘unlashtirish va boshqarish.

5.2. Mahsulot sifati to‘g‘risida tushuncha

Ma’lumki, mahsulot sifati uning hayotiy bosqichlarida – tadqiqot qilish va loyihalash, ishlab chiqarish va iste’mol qilishda (muomalada) shakllanadi. Sifat - bu obektning ta’rif yoki tavsiflari majmui bo‘lib, belgilangan va ko‘zda tutilgan talablarni qondirish xususiyatidir yoki bo‘lmasa sifat deb, iste’molchi talabini qondirish darajasiga aytiladi.

Ishlab chiqarish ob’ektlarida mahsulot sifati deganda, ushbu mahsulotni me’yoriy hujjatlar talabiga muvofiqligi tushuniladi.

Iste’mol tovarining sifati deb, uni nominal sharoitda o‘z vazifasi bo‘yicha iste’mol qilishda yoki ishlatishda haridorlar (iste’molchilar) ning ma’lum ehtiyojlarini qondira olish xususiyatlarining majmuiga aytiladi. Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, sifat-bu mahsulotning ijobiy ko‘rsatkichlari yig‘indisi yoki sifat mahsulotning iste’mol xususiyatlarini belgilab beruvchi mezonlar majmui ekan.

«Sifat» tushunchasiga assortiment to‘laligi va xilma – xilligini ham qo‘shish mumkin, chunki bular iste’molchilar talablarini to‘liq qondirishning shartlaridan biri hisoblanadi.

Agar sifatni faqat tovarning me’yoriy hujjatlar tomonidan belgilangan talablarga mos kelishini belgilovchi omil sifatida qaraydigan bo‘lsak, u holda biz faqat ishlab chiqarish sifati tushunchasini ta’riflagan bo‘lamiz holos. SHuning uchun ham «sifat» tushunchasi keng ma’noga ega.

Mahsulot sifatiga talab va taklif ham bog‘liq bo‘ladi. CHunki yuqori sifatli mahsulot yoki tovar aholi talabini qondiradi va yuqori talabga ega bo‘ladi. Sifatsiz tovar esa, savdo shaxobchalarining peshtoqlarida

turib qoladi va aholi talabiga ega bo'lmasdan, natijada korxona yoki xususiy tadbirkorni inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi.

Mahsulot sifatini oshirish yoki yaxshilash – bu respublikamiz xalq xo'jaligining asosiy vazifalaridan biridir. Tayyor mahsulot sifatini yaxshilash yoki bajarish bilan uning iste'mol qilish muddati uzayadi, tannarxi va mehnat sarfi kamayadi, jahon bozorida raqobatbardoshligi oshadi, korxona iqtisodiyoti yaxshilanadi va iste'molchining talabi to'laroq qondiriladi. SHuning uchun ham tovar (mahsulot) sifati davlat miqyosida rejalashtirish va sifatni boshqarish ob'ekti hisoblanadi. Shuningdek, mahsulot sifatini yaxshilash, mahsulot ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib keladi.

Tovar (mahsulot) sifatining yuqoriligi u yoki bu ishlab chiqarish tarmog'ida fan, texnika va texnologiyaning yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mahsulot sifatini yaxshilash va uni ta'minlash hozirgi kunning dolzarb muommalaridan biri bo'lib hisoblanadi, chunki bu vazifa bozor iqtisodiyoti yoki munosabatlarining talablaridan kelib chiqadi.

Respublikada amal qilayotgan qonun – qoidalarga asosan iste'molchilar talabi va amaldagi modaga mos kelmaydigan past sifatli mahsulot ishlab chiqargan korxonaga nisbatan iqtisodiy jarima (sanksiya)lar qo'llaniladi. Agar bunga ishchilar aybdor bo'lsa, u holda ularga nisbatan ma'muriy yoki jinoiy jazolar qo'llaniladi.

Mahsulot sifatining shakllanishida unga juda ko'plab omillar ta'sir etadi va bu omillar shartli ravishda texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarga bo'linadi. Bu omillar o'z navbatida ob'ektiv va sub'ektiv omillarga ajratiladi. Ob'ektiv omillarga ko'proq texnik omillar kiradi: buyum konstruksiyasi, ishlab chiqarishni mexanizatsiya va avtomatizatsiyalashtirish, ishlab chiqarish bazasining texnik darajasi, nazoratning texnik vositalari, zamonaviy texnologiya va boshqalar.

Sub'ektiv omillarga inson faoliyati bilan bog'liq omillar (kishilarning qobiliyati, ishlab chiqarish vazifalari (funksiyalari) ni bajarishga munosabati) kiradi.

Texnik omillarga asbob – uskunalarning jihozlanishi, nazorat vositalari va texnik hujjatlarning holati, dastlabki materiallar hamda yarim

fabrikatlarning sifati yangi texnik vositalar (jihozlar) ning mavjudligi dastlabki materiallar hamda yarim fabrikatlarning sifati va shunga o'xshashlar kiradi.

Tashkiliy omillar rejali va bir maromda ishlash, texnik xizmat va jihozlarni ta'mirlash, materiallar, butlovchi buyumlar, jihozlarni texnologik hujjatlar va nazorat vositalari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish madaniyati, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy omillar mehnatga xaq to'lash shakllari, oylik maoshining miqdori, yuqori sifatli mahsulot va ishni rag'batlantirish, mahsulot yaroqsizligi uchun ish xaqidan ushlab qolish, mahsulotning sifat darajasi, tannarxi va bahosi kabi omillardan tashkil topadi.

Ijtimoiy omillarga kadrlarni tanlash, ularni joy- joyiga qo'yish, malaka oshirishni tashkil qilish, ilmiy – texnik ijod, ijodkorlik va ixtirochilikni tashkil etish, jamoaning turmush sharoitlari, o'zaro munosabatlar , jamoadagi psihologik muhit va tarbiyaviy ishlar kiradi. Bu omillar sifatga alohida yoki birgalikda ta'sir etishi mumkin.

5.3. Mahsulot sifatini boshqarishuning mazmuni va ahamiyati

Mahsulotni yaratish, ishlatish yoki iste'mol qilish davrida uning sifatini aniqlash, ta'minlash va etarli darajada saqlash bo'yicha o'tkaziladigan ishlar majmuini sifatni boshqarish jarayonini tashkil qiladi.

Mahsulot sifatini boshqarish sifat tizimi bo'yicha belgilangan xalqaro standartlarni qo'llash orqali mahsulot (xizmat) sifati va raqobatbardoshligini oshirish choralarini ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etishda ijobiy yondashishni ta'minlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish hayotiy davrining boshlang'ich, ya'ni tadqiqot va loyihalash hamda ishlab chiqarish bosqichlarida bajariladigan texnik va boshqa jarayonlarni puxtalik bilan amalga oshirishga qaramasdan, mahsulotni ko'p partiyali yoki seriyali ishlab chiqarishda uning sifati bo'yicha ayrim kamchiliklar (cheklanishlar) paydo bo'lishi mumkin. Bu kamchiliklar yoki cheklanishlarning kelib chiqishiga ob'ektiv va sub'ektiv omillar sabab bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish texnologiyasining talab darajasida emasligi yoki eskirishi, jihoz va asbob – uskunalarning eskirishi

yoki buzilishi, ishlab chiqarish bazasining texnik darajasining talabga javob bermasligi, ishchi xodimlar va mutaxasislar malakasining pastligi yoki ularning o'z vazifalariga layoqatlik bilan qarashi, xom ashyo va materiallar sifatining talab darajasidan pastligi, tayyor mahsulotni saqlash rejimining buzilishi va boshqalar.

Mahsulot sifatini pasayishi yoki uning sifatida ayrim cheklanishlarning kelib chiqishi ishlab chiqarish korxonasidagi davlat, ishlab chiqarish va texnologik intizomning buzilishi hamda ishchi va rahbar xodimlarning mahsulot sifatini ta'minlashdagi mas'uliyatari bilan o'zaro bog'liq[4].

Agar mahsulot sifatidagi cheklanishlar yoki ayrim kamchiliklar me'yoriy hujjatlarda belgilangan chegaradan chiqmasa, u holda bunday cheklanishlar ruxsat etiladigan cheklanishlar deyiladi va bu mahsulot realizatsiya qilish uchun yaroqli hisoblanadi. Aks holda esa, mahsulot nuqsonli deb ataladi va bunday mahsulot realizatsiya qilish uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Mahsulot sifatida tuzatib bo'lmaydigan nuqsonlar (kamchiliklar) mavjud bo'lsa, bunday mahsulot sifatsiz (yaroqsiz) yoki brak deyiladi. Bunday mahsulotni muomalaga chiqarish mumkin bo'lmaydi.

Shunday qilib, sifatni boshqarish yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish, ya'ni mahsulot sifatini me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablariga moslashtirish bo'yicha qo'llaniladigan uslublar va faoliyatdan iborat ekan.Sifatni boshqarish bir vaqtning o'zida jarayonni bos hqarish va maqbul iqtisodiy samaraga erishish uchun mahsulot hayot davrining tegishli bosqichlarida qilingan noto'g'ri harakat sabablarini bartaraf etishga qaratilgan tezkor harakterdagi uslub va faoliyat turlarini ham o'z ichiga oladi.

Sobiq Ittifoq respublikalarida qabul qilingan metodologiya cheklanishlarni aniqlash, ularning sabablarini bartaraf etish, mahsulotni nazoratdan o'tkazish, cheklanish va iste'molchilar takliflarini inobatga olish hamda ular asosida qarorlar qabul qilishga asoslangan. Sifatni

[4] Graeme Knowles. Quality Management. Ventus publishing Aps,2011

boshqarish bo‘yicha qarorlar kundalik mavjud va bundan oldin to‘plangan ma’lumotlar asosida tuzilib, cheklanishlar sabablarini bartaraf etishga qaratilgan va aniq yozilgan bo‘lishi kerak. Qarorda mas’ul xodimlar va bajarish muddatlari ko‘rsatilishi shart. Bunday qarorlar mahsulot hayot davrining har bir bosqichi bo‘yicha alohida – alohida qabul qilinadi.

Ko‘plab rivojlangan davlatlar tajribasida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini boshqarish nazorat kartalarini qo‘llash asosida statistik uslublar yordamida amalga oshiriladi. Bunday usul mahsulot sifati va boshqa ko‘rsatkichlaridagi cheklanishlarning sababini oldindan bartaraf etish hamda sifatsiz (nuqsonli) mahsulot ishlab chiqarishning oldini olish uchun imkon yaratib beradi. Demak, mahsulotdagi mavjud nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini maksimal darajada bartaraf etishga qaratilgan chora – tadbirlar ishlab chiqish va uni amalga oshirish sifatni boshqarishning asosiy mohiyati hisoblanar ekan.

Sifatni boshqarish ob’ektiga qayta ishlab chiqarishni shakllantirish jarayonlari, boshqarishning barcha darajalarida mahsulot sifatini saqlash va qayta tiklash hamda mehnat vositalari va predmetlari, mehnat resurslari, mehnat sifati, ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlar kiradi. Sifatni boshqarish ob’ektiga 9000 seriyali xalqaro standartlarning mafkurasi (ideologiyasi) ga asosan korxona (kompaniya) yoki tashkilotning sifat tizimlari ham kiradi, chunki sifatni ta’minlash bo‘yicha ularda belgilangan chora – tadbirlar bozor va iste’molchi talablari va texnologik jarayonlarning o‘zgarishi asosida o‘zgartiriladi.Sifatni boshqarish me’yorlari yoki vositalariga quyidagilar kiradi: mahsulot sifat ko‘rsatkichlari va maqsadga muvofiqligiga reglament belgilovchi me’yoriy hujjatlar, mehnat jarayonlarini boshqarish va tashkil qilish vazifalari (funksiyalari), nazorat – sinov, o‘lchash, ma’lumotlar beruvchi (spravochnie) va hisoblash vositalarini o‘z ichiga oluvchi axborotlar va metrologik ta’minotlar.

Mahsulot sifatini rejalashtirish va prognoz qilish, mahsulotni attestatsiyalash, mahsulot ishlab chiqarishini tadbiq qilish va yo‘lga qo‘yish, sifatni oshirganligi uchun iqtisodiy rag‘batlantirish, sifatni nazorat qilish va metrologik ta’minot sifatni boshqarish elementlari hisoblanadi.

5.4. Sifatni boshqarish tizimlari

Har bir korxona (kompaniya) yoki tashkilot o'zining sifatli mahsulot ishlab chiqarishi yoki yaxshi xizmat ko'rsatishidan manfaatdor bo'ladi, chunki bu bozor iqtisodiyoti talablaridan biridir. Shuningdek, har qanday sifatli mahsulot yoki xizmat quyidagi talablarga muvofiq kelishi kerak:

- iste'molchining ma'lum bir ehtiyojini qondirishi;
- ekspluatatsiya qilinishini maqsadga muvofiq kelishi;
- iste'molchilarning talablarini to'liq qondirishi;
- amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari va harakatdagi qonun – qoidalar - hamda jamiyatning boshqa talablariga javob berishi;
- iste'molchilarga raqobat narxida taklif qilinishi;
- korxona tomonidan foyda olinishini ta'minlash va boshqalar.

Bu vazifalarni bajarish uchun ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmat sifatiga ta'sir etuvchi barcha texnik, texnologik, ma'muriy, ijtmoiy, tarbiyaviy va boshqa omillarni korxona (kompaniya) yoki tashkilot raxbarlari hamda sifat uchun mas'ul xodimlarning doimiy nazoratida bo'lishi kerak. Shuningdek, ishlab chiqarilgan sifatsiz mahsulot miqdorini aniqlash, nuqsonli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini keskin qisqartirib borish va sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishning oldini olish uchun chora – tadbirlar ishlab chiqish ham korxona (kompaniya) yoki tashkilot rahbarlarining kundalik rejasi bo'lishi kerak. U holda korxona (kompaniya) yoki tashkilot mahsulot sifatni boshqarish faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

Sifatni boshqarish xalqaro tizimlarining milliy sifat tizimlaridan farqi ham aynan yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsad va vazifalarni nazarda tutishidadir. Ko'p hollarda mahsulot (xizmat) sifatini ta'minlash quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- korxona (kompaniya) yoki tashkilotning sifatni ta'minlashga erishgan darajasi hamda sifat sohasidagi siyosatining maqsadi ;
- sifatni ta'minlash bo'yicha mas'ul xodimlarning mas'uliyatlikni sezish darajalari;

- texnik, texnologik, ma'muriy, insoniy, ijtimoiy va tarbiyaviy tadbirlar kompleksida sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi omillarni to'liq qamrab olish va boshqalar.

Demak, har bir ishlab chiqarish korxonasi (kompaniyasi) sifatni doimo ta'minlash va unga samaraliroq rahbarlik qilish maqsadida umumiy tizimga ega bo'lishi shart va u korxona (kompaniya) sifatni boshqarish bo'yicha belgilangan maqsadga erish uchun xizmat qilishga qaratilishi kerak. Sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimining mazmuni esa korxona (kompaniya) faoliyati yo'nalishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi, ishlab chiqarish texnalogiyasi va mahsulot assoritimentining murakkabligiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, korxona (kompaniya) yoki tashkilotning umumiy maqsadi ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini belgilangan darajasiga erishish va uni saqlab turishiga qaratilgan bo'ladi. Buning uchun korxona (kompaniya) yoki tashkilot o'zidagi mavjud texnik, texnologik, insoniy va boshqa resurslarini to'g'ri rejalashtirishi va ulardan samaraliroq foydalanishi kerak. Bulardan tashqari korxona (kompaniya) yoki tashkilot o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulot (xizmat) ning yuqori sifatli ekanligi va bu sifatni saqlab tura olish imkoniyatiga ega ekanligi to'g'risida iste'molchida ishonch hosil bildira olishiga erishish kerak. Bu muammolarning echimi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona (kompaniya) yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimi bilan to'g'ridan – to'g'ri o'zaro bog'liq. Shuning uchun ham mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona (kompaniya) yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimlari korxona (kompaniya) yoki tashkilot ehtiyoji va talablari hamda iste'molchilar ehtiyojlari va talablari bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Korxona (kompaniya) yoki kompaniyaning sifat tizimi sifatga umumiy rahbarlik qilish faoliyatining asosini tashkil etadi va bu asos korxona (kompaniya) yoki tashkilotning sifat bo'yicha siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida qo'llaniladi va u boshqarishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tizim deganda, bir – biri bilan o'zaro munosabatda va bog'liq bo'lgan hamda ma'lum bir butunlikni (umumiylikni) hosil qiluvchi

elementlar to‘plami tushuniladi yoki tizim – bu umumiy belgilari bo‘yicha birlashgan qandaydir elementlar yoki birliklar majmuidir .

Demak, tizim deyilganda, bir – biri bilan o‘zaro uzviy bog‘langan elementlar yoki birliklar to‘plami tushunilar ekan. To‘plamning har bir elementi yoki birligi esa tizimning tarkibiy qismini tashkil qiladi. «Tizim» tushunchasi texnika va texnologiya sohasida grafik shaklida ifodalanadi va u xalqaro tajribada ham qo‘llaniladi.

Tashkiliy tuzilish, ma’suliyatlar, bajariladigan vazifalar va ishlar, jarayonlar, xom ashyo va insoniy resurslar mahsulot sifati tizimining asosiy elementlari hisoblanadi. Bu elementlarning soni mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishda qo‘llaniladigan texnologiya va jihozlar hamda asbob – uskunalarning murakkabligi, nazorat va mahsulot turlariga bog‘liq bo‘ladi, chunki bu omillar qancha keng va zamonaviy bo‘lsa, tizim elementlari shuncha ko‘p bo‘ladi.

ISO 8402 – 86 xalqaro standartida «sifat tizimi» quyidagicha ta’riflanadi. Sifat tizimi – bu sifat bo‘yicha umumiy rahbarlikni ta’minlaydigan tashkiliy tizimlar, mas’uliyatlar, ishlar (vazifalar), jarayonlar va resurslar majmuidir.[5]

Yana boshqa bir talqinda «sifat tizimi» quyidagicha ta’riflanadi. Sifat tizimi - bu birinchi navbatda korxona (kompaniya)da iste’molchiga kerak bo‘lgan mahsulotni etkazib berish yoki tashkilotga xizmat ko‘rsatishga imkon yaratib beruvchi ishlarni tashkil etishdagi muayyan usuldir.

«Sifat tizimi» haqidagi bu ikkala ta’rifning ham ma’nosi deyarli bir xil, chunki ular birinchidan – sifatli mahsulot ishlab chiqarish va uni iste’molchiga etkazib berish ; ikkinchidan – iste’molchiga yaxshi va sifatli xizmat ko‘rsatish va uchinchidan sifat bo‘yicha umumiy rahbarlikni ta’minlashga qaratilgan.

Demak, sifat tizimi korxona (kompaniya) yoki tashkilotning sifatni boshqarish bo‘yicha faoliyati, jamiyat va iste’molchilar talablari asosida tuzilar ekan. Jahon amaliyotida ko‘pchilik firmalar va kompaniyalar o‘zlarining ta’minlovchilari bilan allaqachonlar sifat tizimlari asosidagi o‘zaro munosabatlarga o‘tishgan.

[5] ISO 8402 – 86 (Kachestvo. Slovar)

5.5. Mahsulot haqidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash

Agar biz do'kondan yoki boshqa bir savdo korxonalaridan tovar harid qiladigan bo'lsak, albatta tovar etiketkasi yoki uning yonidagi har – xil qalinlikdagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan shaklni ko'ramiz, chunki hozirgi paytda tovarlar (mahsulotlar) ning aksariyat qismi shunday belgili shakllar bilan muomalaga chiqarilmoqda. Bunday belgining nomi *shtrixli kod* deb yuritiladi. Ammo bu belgili shakl yoki shtrixli kod haqidagi ma'lumotlar ko'pchilik iste'molchilarga hali to'lig'icha etib borgan emas. Shuning uchun ham biz ushbu savolni yoritish uchun shtrixli kodlash haqida etarlicha ma'lumotlar berishga harakat qilamiz.

Shtrixli kodlash to'g'risida berilgan tariflar ko'p, lekin ularning asl ma'nosi bir xil. Shulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Shtrixli kod – bu optik usulda, ko'ndalang skanerlash yo'li bilan o'qiladigan har xil qalinlik va qadamlarga (shag) ega bo'lgan parallel shtrixlar (chiziqlar) to'plami yordamida tashkil topgan kod.

Shtrixli kodlash – bu maxsus ishlab chiqilgan xalqaro axborotlashtirish tizimi yordamida mahsulotlarning asosiy parametrlarini belgilovchi uslub. Yoki, shtrixli kod – bu belgilar, raqamlar va harflarni shtrix (chiziq) va oraliqlar ketma- ketligi ko'rinishidagi kodlash yo'li bo'lib, axborotni tez va aniq kompyuterga kirgizish uchun xizmat qiladigan shakl yoki, shtrixli kodlash – bu belgilangan shakl, o'lcham, rang. Boshqa bir talqinda shtrixli kod – bu har xil kenglikdagi qora va yorug' (yoki oq) chiziqlarning almashib turishidir deb tushuntiradi.

Haqiqatdan ham yuqorida shtrixli kod haqida keltirilgan talqinlar har xil bo'lishiga qaramasldan ularning ma'nosi bir – biriga juda yaqin va o'xshash. Shakldagi ma'lum bir kenglikdagi yo'l - yo'l chiziqlar hamda ularning birligi (birga qo'shilishi) axborot tarqatuvchilar hisoblanadi. Tovarning shtrixli kodi o'zicha uning sifati haqida ma'lumot yoki axborot bermaydi, u faqat ushbu tovar to'g'risidagi barcha axborotlarni saqlovchi elektr hisoblash mashinasi xotirasi uyachalarining adresi hisoblanadi holos. Bu ma'lumotlar to'plami tovar haqidagi ma'lumotlar bazasini hosil qiladi.

Shtrixli koddagi «Davlat bayrog'i» deb ataluvchi yoki tovar kelib chiqqan mamlakatni aniqlash imkoniyati iste'molchi uchun eng muhim hisoblanadi. Shtrixli kodda joylashgan barcha qolgan axborotlar maxsus optik asbob - skaner orqali hisoblanishi (o'qilishi) yoki EHM ga berilishi mumkin. Skanerdagi dekoder yordamida shtrixli kodda kodlangan ma'lumotni olish mumkin . EHM o'z navbatida olingan axborotlarni hisoblaydi, qayta ishlaydi va olingan natija bo'yicha tovar harakatini aniqlaydi. Shtrixli kodni mahsulotlarga nisbatan tadbiq etish (qo'llash) g'oyasi ilk bor 1930 yillarda AQSHning Garvard biznes maktabida yaratilgan bo'lib, undan amalda foydalanish 1960 yildan boshlangan. Shtrixli kodlash ilk bor iste'mol tovarlarini kodlash uchun ishlatilgan.

Izlanishlar natijasida tovar harakatini jadallashtirish (intensifikatsiyalash) va hujjatlashtirishni seriyalashtirish maqsadida 1960 yillarning oxirlarida tovarlarni tartib raqami (nomeri) bo'yicha aynan o'xshatishga (identifikatsiyalashga) asoslangan universal tizimlar yaratish haqida birinchi g'oyalar paydo bo'la boshladi. Jumladan, 1973 yili AQSHda Mahsulotning Universal Kodi *(UPK)* qabul qilindi va 1977 yildan boshlab esa Yevropa Kodlash tizimi (nomerlash assotsiatsiyasi) (EAN) ta'sis etildi.

Bu tizim (assotsiatsiya)ga yana boshqa mamlakatlar ham a'zo bo'lib kirganligi sababli, 1981 yildan boshlab nomerlash assotsiatsiyasi Xalqaro nomerlash attestatsiyasi deb atala boshlandi. Bugungi kunda uning tarkibiga 80ga yaqin davlatlar a'zo bo'lib kirgan. SHu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham 1999 yildan boshlab bu tashkilotning xaqiqiy a'zosi hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida 30 dan ortiq har xil tipdagi shtrixli kodlar qo'llanilmoqda. Shulardan EAN kodlash tizimi universal bo'lib, amalda har qanday turdagi tovarga qo'llanishi va har qanday «ishlab chiqaruvchi – ulgurji korxona – chakana savdo korxonasi» shaklidagi zanjir (sep) ning nuqtasida qo'llanishi mumkin. EAN tizimi doirasida axborotlarni elektron usulda almashtirish standarti (EANKOM) ishlab chiqilgan (yaratilgan) va u jahonning ko'plab davlatlarida keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Shtrixli kodlash o'ziga xos sifat belgisi hisoblanadi, ya'ni tovarga shtrixli kod berishda uni xalqaro

standartlarga mos kelishi tekshirib ko‘riladi. Shtrixli kodlashning mavjudligi sababli, bu sifat belgisi ko‘pdan buyon jahonning aksariyat davlatlarida me’yor (norma) bo‘lib qolgan. Jumladan, AQSH, G‘arbiy Yevropa va Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tovarning upakovkasi yoki etiketkasiga SHK qo‘yish majburiy talab bo‘lib qolgan va bu mamlakatlarning aksariyat qismida shtrixli kodi bo‘lmagan mahsulotlarni chetdan olish va bozorda sotish man etilgan . Masalan, Yevropa ittifoqi tarkibiga kiruvchi davlatlarga 1994 yildan boshlab shtrixli kodi bo‘lmagan import mahsulotlarini kiritish man etilgan.

Shtrixli kodning mohiyatlaridan biri shuki, tovar to‘g‘risidagi barcha axborotlarni (ma’lumotlarni) kompyuterga joylashtirish mumkin. Shtrixli kod juda aniq bo‘lib, ular qo‘l yordamida ma’lumotlarni kiritishdagi xatoliklarni oldini oladi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, shtrixli kodlarni o‘qishda xatoliklar foizning mingdan bir bo‘lagidan kam ekanligini ko‘rsatib bergan . O‘tkazilgan testlar natijasi esa, shtrixli kod yordamida kodlangan ma’lumotlar 10 mln. belgiga 1 ta xato to‘g‘ri kelishini isbotlab berdi. Qo‘l yordamida kiritilgan ma’lumotlarda 10 belgiga 1 ta xato to‘g‘ri keladi. Endi ularni taqqoslab ko‘radigan bo‘lsak, shtrixli kodlashning ahamiyati juda ham katta va muhim ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Shtrixli kodlash – bu ma’lumotni tez kiritish demakdir. Shtrixli kodlar tez va oson hosil qilinadi va umumiy ishlatiladigan printerlar yordamida bosilishi mumkin. Bu uslub birgina xatoliklarni kamaytiribgina qolmay, balki u axborotni tez va arzon yig‘adi, saqlaydi va qidiradi hamda samarali aloqani ta’minlaydi. Bu xususiyatlar unumdorlik va axborot aniqligini oshiradi, etkazib berish jarayonlari jadvali (grafigi)ni yaxshilaydi va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan vaqt, kuch, ishchi resurslari, material va mablag‘lar harajatini kamaytiradi. Undan tashqari shtrixli kod -ma’lumot yig‘ishda sanoat va savdo manfaati uchun xizmat qiladi, xalqaro ahamiyatga ega, boshqa foydalanuvchilarga bog‘liq emas, jahon miqyosida ko‘p mohiyatli kod yordamida har qanday tovar birligini aynan o‘xshatish (indetifikatsiyalash) ishlarini bajaradi va hokazolar.

Shtrixli kod - bu ishlab chiqaruvchisining vizit kartochkasidir, deb ta'kidlanadi yana bir manbada. Haqiqatdan ham ushbu ta'rif aynan unga juda monand. Shtrixli kodlashdan kompyuterga ma'lumotlarni qo'lda kiritiladigan barcha joyda foydalanish mumkin. Masalan, ishlab chiqaruvchilar, chakana savdo qiluvchilar, moliya xizmati, maishiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, telefon kompaniyalari, davlat agentliklari, sog'likni saqlash muassasalari, transport kompaniyalari va boshqa tarmoqlarda kampyuterga axborotni qo'lda kiritmaslik uchun shtrixli kodlardan foydalanishadilar. Ayniqsa, shtrixli kodlash xom ashyo va tayyor mahsulotni hisobga olish, tovar ayirboshlash va ishlab chiqarish sohalarida ko'proq qo'llaniladi.

Shtrixli kodlarning elementlari shtrixlar va oraliqlar, kishilar o'qiydigan belgilar va yorug' zonalardan tashkil topgan. Bulardan shtrixlar va oraliqlar ma'lumotlarni kodlash shablonini belgilaydi (aniqlaydi). Inson o'qiydigan belgilar bu - shtrixlar va oraliqlar yordamida kodlangan axborotlar (ma'lumotlar)ni kishilar o'qishi uchun matn sifatida berilishidir. Yorug' zonalar esa shtrixlar va oraliqlargacha va undan keyingi toza maydon bo'lib, bu zonalarning mavjudligi shtrixli kodni o'qish uchun eng zarur hisoblanadi

Do'konlar va haridorlar bilan hisob – kitob qilish nuqtalarida 90 foyiz atrofidagi muammolar shtrix kodning ikki tomonidagi (chekkasidagi) yorug' maydonni kichrayishidan kelib chiqadi. Shuning uchun naminal o'lchamda nashr (chop) qilingan shtrixli kod EAN – 13 uchun o'zidan chap tomondan 3, 63 mm va o'ng tomonidan 2,31 mm yorug' maydon qolishi kerak. Shtrixli kod EAN – 8 uchun esa, chap va o'ng maydonlar 2, 31 mm dan kichik bo'lmasligi kerak.

Shtrixli kodning nazorat raqami ma'lumot yoki axborotlarni to'g'ri o'qilayotganligini tekshirib turadi. Nazorat raqami kodlangan raqamlarning oxiriga qo'shiladi (1 – rasm).

Hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan shtrixli kodning ikkita asosiy turi – EAN va Amerika kodi – UPK mavjud bo'lib, bularning ichida eng ko'p ishlatiladigan kod – EAN – 13 va EAN – 8 hisoblanadi. Bu kodlarni biz chakana savdoga kelayotgan barcha tovarlarda uchratamiz. Chunki 70 yillar boshida paydo bo'lgan bu shtrixli kod butun dunyoga yoyilib

ketgan va ular bir xilda o'qiladi. EAN – 13 va EAN –8 kodlari chakana savdoga kelayotgan tovarlar uchun standart shtrixli kod hisoblanadi. Bu kod faqat 13 yoki 8 xonali raqamlar to'plamini o'z ichiga oladi. Bu atamada EAN (Europkan Artisle Number) so'z to'plamining abbreviaturasi (qisqartma so'z , masalan, kolxoz, pochta, raypo) holos. 13 raqamga ega bo'lgan kod, *EAN-13* deb ataladi. Bundagi 1,2 va 3 raqamlar EAN assotsiatsiyasi tomonidan o'rnatilgan tartibda beriladi va ular mamlakat (davlat) kodini bildiradi. Keyingi to'rtta raqam – tovar tayyorlovchisining indeksi. Kodning qolgan beshta raqami ishlab chiqaruvchiga o'zining xohishi bo'yicha mahsulotni kodlash uchun taqdim etiladi. Bunda kodni nuldan boshlab, 99999 gacha davom ettirishi mumkin. Kodning oxirgi 13 – raqami nazorat raqami deyiladi.

EAN kodi 1998 yili O'zbekiston standartlari (O'z DSt 6·17 ·01: 1999, O'z DSt 6·17·04: 2000)ga kiritilgan va bu kodlar xalqaro standartlarga asoslanganligi uchun, ular Yevropa, Osiyo, Markaziy va Janubiy Amerika va Okeaniya davlatlarida qo'llaniladigan EAN kodlari bilan o'zaro almashuvchandir. Har bir davlatda kodning tuzilishi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda kodning birinchi uch raqami – milliy tashkilotning prefiksi, keyingi oltita raqam – korxona mahsulot egasining raqami, undan keyingi uchta raqam – tovarni identifikatsiyalashtirish (aynan o'xshatish yoki tenglashtirish) bloki va oxirgi raqam nazorat raqami.

EAN – 13 kodining tarkibi quyidagi kodlardan iborat:

- davlat kodi ("davlat bayrog'i");
- korxona (firma, kompniya) – tayyorlovchi kodi;
- mahsulot kodi;
- nazorat soni

EAN assotsiatsiyasi tomonidan har bir davlat (mamlakat) uchun kodlar diopozonlari beriladi. Kodlar ko'pincha ikki belgidan tuziladi (masalan, Fransiya 30 – 37, AQSH va Kanada 00 – 09, Yaponiya 45 – 49), lekin tayyorlovchi kodni bir belgiga qisqartirish hisobiga uch belgili ham bo'lishi mumkin. Masalan, Rossiya 460 – 469, Germaniya 400 – 440 va boshqalar.

5.1.-jadval

Shtrixli kodlash haqida axborotlar joylashgan banklar – davlatlar kodi haqidagi ma'lumotlar

Davlat nomi	Davlat kodi	Davlat nomi	Davlat kodi	Davlat nomi	Davlat kodi
AQSH va Kanada	00 – 09	Shvesiya	73	Latviya	4605
Fransiya	30 – 37	Meksika	750	Tayvan	471
Bolgariya	380	Venesuela	759	Estoniya	474
Germaniya	400 – 440	SHveysariya	76	Fillipin	480
Rossiya	460 – 469	Argentina	779	Malta	535
Syangan	489	CHili	780	YUAR	600 –
YAponiya	45 –49	Braziliya	789	Marokko	611
Buyuk Britaniya	50	Italiya	80 – 83	Tunis	619
Gresiya	520	Ispaniya	84	Gvatemala	740–745
Kipr	529	O'zbekiston	478	Salvador	740–745
Irlandiya	539	Kuba	850	Gonduras	740–745
Belgiya va Lyuksemburg	54	CHexiya	859	Panama	740–745
Portugaliya	560	YUgoslaviya	860	Nikaragua	740–745
Islandiya	559	Turkiya	869	Kosta – Rika	740–745
Daniya	57	Niderlandiya	87	Kolumbiya	770
Polsha	590	Janubiy Koreya	880	Urugvay	773
Vengriya	599	Singapur	889	Peru	775
Finlyandiya	64	Avstriya	90 – 91	Ekvador	786
Xitoy	690	Avstraliya	93	Tayland	885
YAngi Zelandiya	94	Sloveniya	383	Indoneziya	899
Isroil	729	Xorvatiya	385	Malayziya	955

EAN – 8 kod quyidagi kodlar tarkibidan iborat:

- davlat kodi («davlat bayrog'i»);
- korxona (firma) – tayyorlovchi kod;
- nazorat soni.
- 8 razryadli EAN kodi

EAN – 8 kodida ba'zan, tayyorlovchi korxona kodining o'rniga mahsulotning qayd etish tartib raqami (nomeri) ham keltirilishi mumkin. Bu kod (EAN – 8) markalashtirish, joylash yoki uncha katta bo'lmagan tovarlar uchun ishlatiladi (qo'llaniladi). Ushbu tipdagi SHK EAN–13 tipdagi SHK dan qisqartirilgan axborotlar va kichik o'lchamlari (razmerlari) bilan farq qiladi. SHuning uchun ham uning raqamlari to'liq joylashmaganligi sababli kichik (mayda) gabaritli tovarlarga bosiladi. EAN– 13 har qanday upakovka yoki tovarlarga bosiladi (agar uning maydoniga sig'sa). EAN – 14 faqat transport (yukli) upakovkalari uchun qo'llanadi. Bu SHK nisbatan yirikroq bo'lganligi sababli uni bosish (chop etish) uchun yuqori sifatli pechat talab etilmaydi. Agar tovar upakovkasi bilan sotilsa, u holda faqat EAN–13 qo'llaniladi, chunki EAN–14 tovar haqida axborotga ega emas va do'konda o'rnatilgan skanerlovchi moslamada hisoblab yoki sanab (o'qib) bo'lmaydi.

Koddagi raqamlar qatori skaner uchun emas, balki haridor (iste'molchi) uchun mo'ljallangan. Haridor uchun ma'lumot faqat mahsulot tayyorlangan davlatni bildirish bilan chegaralanadi, chunki davlat kodi maxsus nashrlar va axborotnomalarda bosilib turiladi yoki axborot bazalari va banklarda saqlanishi mumkin. To'liq SHK esa, tashqi savdo tashkilotlari yoki savdo ob'ektlariga mahsulotning aniq kelib chiqish rekvizitlarini bilish va kerak bo'lgan hollarda mahsulotning shartnoma (kontrakt) talablariga mos kelmaydigan parametrlari va ko'rsatkichlari haqida aniq bir manzilga (nuqtaga) raddiya yoki norozilik bildirish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda respublikamizda ham shtrixli kodlashni keng miqyosda tadbiq etish bo'yicha ma'lum darajada ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 1999 yilda O'zstandartqoshidagi O'zbekiston standartlashtirish metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsuot sifatini boshqarish sohasida kadrlar tayyorlash va tadqiqotlar instituti (O'z TMTI)da shtrixli kodlash (kodlar) bilan shug'ullanuvchi markaz tashkil etildi. Bu markazning asosiy

maqsadi mahsulotni avtomatlashtirilgan tarzda identifikatsiyalash (aynan o'xshatish, tenglashtirish yoki birday qilish) bo'yicha muommalarni hal etish va bu faoliyatni keng ravishda targ'ib qilishdan iborat.

Takrorlash uchun savollar:

1. Mahsulot sifati deganda nimani tushunasiz?
2. Mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni tushuntirib bering.
3. Mahsulot sifatini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
4. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati to'g'risida o'z tushunchalaringizni ayting.
5. Gigienik-toksikologik ekspertizaning mohiyatini tushuntiring.
6. Gigienik sertifikat kim tomonidan beriladi?
7. Respublikamizda oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlashning davlat boshqaruvini qanday tushunasiz?
8. Shtrixli-kodlarda nimalar ko'rsatiladi?
9. Yevropa Kodlash tizimi (EAN) ning ikki xil kodlash turini tushuntiring.
10. Shtrixli-kodlashdan maqsad nima va u korxonaga qanday imkoniyatlar beradi?

GLOSSARIY

Standartlashtirish - bu ma'lum sohada aniq va ma'lum murakkab masalalarga nisbatan, hamma uchun umumiy, ko'p martalab foydalanish uchun o'rnatilgan tartiblar yordamida tartiblashtirishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan faoliyat.

Milliy standartlashtirish - bu muayyan bir mamlakat (misol uchun O'zbekiston Respublikasi yoki sanoati rivojlangan ma'lum bir davlat) doirasida o'tkaziladigan standartlashtirish.

Xalqaro standartlashtirish - bu barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin bo'lgan standartlashtirish.

Standart ingliz so'zidan (standart) olingan bo'lib, *me'yor, namuna, etalon* degan ma'noni bildiradi.

Xalqaro standart - bu standartlashtirish bo'yicha shug`ullanadigan xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo'lgan standart.

Mintaqaviy standart - bu standartlashtirish bo'yicha shug`ullanadigan mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo'lgan standart.

Milliy standart – bu standartlashtirish bo'yicha shug`ullanadigan milliy idora tomonidan qabul qilingan va ise'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan standart.

Standartlar majmui - bu o'zaro bog`langan standartlashtirish ob'ektlariga kelishilgan talablarni belgilovchi va ma'lum ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning echimini me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash uchun umumiy maqsad bilan birlashgan o'zaro bog`langan standartlar to'plami.

Birxillashtirish - (unifikatsiyalashtirish) deganda, muayyan ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan eng maqbul o'lchamlar soni yoki mahsulot, jarayon va xizmat turlarini tanlash tushuniladi.

Moslashuvchanlik - bu mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlarning o'zaro nomaqbul ta'sir ko'rsatmaydigan holda birgalikda, topshiriqdagi sharoitlarda belgilangan talablarni bajarish uchun foydalanishga yaroqliligidir.

O'zaro almashuvchanlik deb, bir xil talablarni bajarish maqsadida bir xil buyum jarayon va xizmatdan foydalanish o'rniga boshqa bir xil buyum, jarayon va xizmatning yaroqliligiga aytiladi.

Mahsulotlarni himoya qilish deganda, mahsulotdan foydalanish, transportda tashish yoki saqlash paytida uni iqlim va boshqa noqulay sharoitlar ta'siridan saqlash tushuniladi.

DEVKO – bu bozor iqtisodiyotiga o'tayogan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ISOning dasturi hisoblanadi.

Davlat standartlari, milliy standart sifatida qabul qilingan xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo standartlar O'zbekiston Respublikasining barcha hududida va korxonalarida qo'llaniladi.

Tarmoq standartlari (TS) shu tarmoqda ishlab chiqariladigan va qo'llaniladigan mahsulot (xizmat)ga agar shu mahsulotga davlatlararo va davlat standartlari bo'lmasa ishlab chiqiladi. *TS* lar shu mahsulotni ishlab chiqaradigan tarmoq korxonalari va uni iste'mol qiladigan boshqa soha iste'molchilari uchun qonun kuchiga ega bo'ladi.

Texnik shartlar (TSh) aniq, mahsulot uchun ishlab chiqiladi: texnik shartlarda belgilanadigan talablar bir turli mahsulotlar guruhiga mo'ljallangan standartlarda belgilanadigan talablarga muvofiq yoki ulardan yuqori bo'lishi kerak.

Korxona standartlari (KSt) faqat shu korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot uchun ishlab chiqiladi va amalga kiritiladi.

GOST - davlatlararo standart;

O'z DSt - O'zbekiston davlat standarti;

O'z DT - Umumdavlat tasniflagichi;

O'z RH - O'zbekiston rahbariy hujjati;

O'zSt DT - O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi;

O'z SDT - O'zbekiston sertifikatlashtirish davlat tizimi;

O'z O'DT - O'zbekiston o'lchashlar birligini ta'minlash davlat tizimi;

O'zAT - O'zbekiston akkreditlash tizimi.

TSt - tarmoq standarti;

TT – tarmoq tasniflagichi;

RH - rahbariy hujjat;

T - tavsiyanoma.

MN St - ma'muriy hududiy standart;

*KS*t - korxona standarti;

Tsh - texnik shartlar.

KNT - konstruktorlik hujjatlarning yagona tizimi;

TNT - texnologik hujjatlarning yagona tizimi;

MST - mahsulotni sinash tizimi;

NVT - hujjatlarni birxillashtirish tizimi;

NKAT - nashriyot, kutubxona va axborot ishlari bo'yicha standartlar tizimi;

TR - texnik puxtaligi;

*MUA*T - mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishni tashkil qilish tizimi;

MSKT - mahsulot sifat ko'rsatkichlari tizimi;

ST - sifat tizimi;

TKT - texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotni tasniflash va kodlashning yagona tizimi va boshqalar.

Standartlashtirish ob'ektlari deyilganda, fan va texnika, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, madaniyat, sog`liqni saqlash, xalqaro savdo va boshqa sohalarda ko'p martalab ishlatiladigan aniq mahsulot, me'yor, qoida, talab, uslublar, atamalar na boshqalar tushuniladi.

Standart loyihasi texnik qo'mita ish rejasi, tasdiqlangan standartlashtirish jadvali, yangi mahsulot turlarini yaratish rejasi, manfaatdor tashkilotlar taklifi va boshqa ishlab chiqaruvchi korxonalarning tashabbusiga asosan ishlab chiqiladi.

ISO - Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standarts Organization).

Jahonda fan va texnikaning doimiy ravishda rivojlanib borishi har xil fizik kattaliklar o'lchamlarini muayyan o'lchovlarga taqqoslab qaratishni taqozo eta boshladi. Bunday faoliyat jarayoni va rivojlanishi natijasida o'lchashlar haqidagi fan – *metrologiya* paydo bo'ldi.

Metrologiya - nazariy metrologiya, qonunlashtiruvchi metrologiya va amaliy metrologiya qismlaridan tashkil topgan.

Yagona o'lchash birligi. Yagona o'lchash birligi deb, o'lchash natijalari qonunlashtirilgan birliklarda ifodalangan va o'lchashdagi xatoliklar muayyan ehtimollikda bo'lgan o'lchash holatiga aytiladi.

O'lchash vositasi. O'lchash vositasi bu o'lchash uchun foydalaniladigan va meyorlashtirilgan metrologik xususiyatlarga ega bo'lgan texnik vositadir.

Birlik etaloni. Birlik etoloni deganda, fizik o'lcham birligini boshqa o'lchash vositalariga uzatish maqsadida uni qayta hosil qilish, saqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositasi tushuniladi.

Davlat etaloni. Davlat etoloni deb, vakolat berilgan Moddiy organning qarori bilan O'zbekiston respublikasi hududida o'lchash birligini o'lchash sifatida e'tirof etilgan etoloniga aytiladi.

Metrologiya xizmati. Metrologiya xizmati bu davlat idoralari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari va o'lchash tarmog`i tomonidan hamda ularning yagona o'lchash birligida bo'lishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.

Davlat metrologiya nazorati. Davlat metrologiya nazorati, bu metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati idoralari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir.

O'lchash vositalarini tekshiruvdan o'tkazish. Bu tushunchaning asosiy ma'nosi o'lchash vositalarining belgilab ko'yilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmat idoralari tomonidan bajariladigan amallar majmuidan iborat.

O'lchash vositalarini kalibrlash – bu metrologik jihatlarning haqiqiy qiymatlari va o'lchash birliklarining qo'llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi bajaradigan amallar majmuidir.

Litsenziya – bu o'lchash vositalarini ishlab chiqish, yaratish, ta'mirlash, sotish, ijaraga berish uchun davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug`ullanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Kattalik – bu sifat tomonidan ko‘pgina fizik ob’ektlarga nisbatan umumiy bo‘lib, miqdor tomonidan har bir ob’ekt uchun xususiy bo‘lgan xossadir.

O‘lchamlar birligini ta’minlash deb, o‘lchamlar birligini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilinadigan qonun hujjatlari, standartlar va boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq, o‘lchamlar birligiga erishish va saqlab turishga yo‘naltirilgan xizmatlar va idoralar faoliyatiga aytiladi.

O‘lchamlar birligini ta’minlash tizimi - bu o‘lchamlar birligiga erishish va ularni saqlab turish uchun Respublika xalq xo‘jaligi majmuasini samarali iqtisodiy rivojlanish talablariga bog`liq bo‘lgan va ilmiy asoslangan, texnik tomonidan to‘g`ri keladigan hamda iqtisodiy maqbul bo‘lgan me’yorlar, qoidalar va tadbirlar tizimidir.

Qiyoslash - bu me’yoriy hujjatlar bilan belgilangan sharoitlarda o‘lchash vositalarining yaroqliligini aniqlash maqsadida davlat metrologik xizmati idoralari (organlari) tomonidan o‘tkaziladigan operatsiyalar majmuidir.

Dastlabki qiyoslash deb, ishlab chiqarish yoki ta’mirlashdan chiqarilayotgan o‘lchash vositalarini birinchi marta qiyoslashga aytiladi.

Davriy qiyoslash deganda, dastlabki qiyoslashdan o‘tkazilgan o‘lchash vositalaridan foydalanish jarayonida, ularni majburiy davriy qiyoslashdan o‘tkazish tushuniladi.

O‘lchash vositalarini kalibrlash deb, o‘lchash vositalarining haqiqiy metrologik tavsiflarini aniqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyalari tomonidan o‘tkaziladigan operatsiyalar majmuiga aytiladi.

Davlat metrologik nazorati - bu belgilangan metrologik me’yorlar va qoidalarga rioya etilishini tekshirish bo‘yicha davlat metrologik xizmatining vakolatlangan idoralarining faoliyatidir.

Sertifikatlashtirish deb, mahsulot yoki xizmatlarni muayyan standart yoki texnik shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o‘tkaziladigan faoliyatga aytiladi.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi – bu sertifikatlashtirish bo‘yicha o‘zining boshqaruv va ijro idoralari (organlari) hamda tartib-qoidalariga ega bo‘lgan va davlat miqyosida amal qilinadigan tizim.

Muvofiqlik sertifikat - bu mahsulot, xizmat yoki jarayonlarini ma'lum bir standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini ishontiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida nashr etilgan hujjat.

Muvofiqlik belgisi deb, ushbu mahsulot, xizmat yoki jarayonni ma'lum standart yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishini ishontiruvchi sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida berilgan yoki ishlatiladigan va ma'lum tartibda himoya qilinadigan belgiga aytiladi.

Majburiy sertifikatlashtirish – bu sertifikatlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot (xizmat)ning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlashdir.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda, ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

Sertifikatlashtirish sohasidagi guvohnoma - bu sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga asosan nashr etilgan hujjat.

Sifat sertifikati - bu yetkazib berilayotgan molga ilova qilinadigan va uning sifatini tasdiqlaydigan hujjat.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish - bu sertifikatlashtirish idorasi yoki boshqa maxsus vakolatga ega bo'lgan idora tomonidan ma'lum mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur va etarli sharoitlar mavjudligini, unga tegishli bo'lgan me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarning barqarorligi va sertifikatlashtirishda nazorat ostiga olinishini ta'minlashning rasmiy tasdig`idir.

Ekspert-auditor deb, sertifikatlashtirish sohasida muassasa va korxonalar faoliyatini baholash hamda nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan va attestatsiyadan o'tgan shaxsga aytiladi.

Majburiy sertifikatlashtirish deganda sertifikatlashtirish huquqiga ega bo'lgan sertifikatlashtirish idorasi tomonidan mahsulot, jarayon yoki xizmatning me'yoriy hujjatlarda belgilangan majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

Sinovlarni o'tkazishdan asosiy maqsad – mahsulot sifat ko'rsatkichlarining haqiqiy qiymatlari haqida ob'ektiv va ishonchli

axborot olish va ularni ushbu mahsulotni me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini baholashdan iborat.

Sifat - bu obektning ta'rif yoki tavsiflari majmui bo'lib, belgilangan va ko'zda tutilgan talablarni qondirish xususiyatidir yoki bo'lmasa *sifat* deb, iste'molchi talabini qondirish darajasiga aytiladi.

Iste'mol tovarining sifati deb, uni nominal sharoitda o'z vazifasi bo'yicha iste'mol qilishda yoki ishlatishda xaridorlar (iste'molchilar)ning malum ehtiyojlarini qondira olish xususiyatlarining majmuiga aytiladi.

Sifatni ta'minlash deb, mahsulot yoki xizmat sifatiga belgilangan ma'lum talablarni qondirishga ishonch hosil qilish uchun davriy ravishda rejalashtiriladigan va o'tkaziladigan chora-tadbirlar majmuiga aytiladi.

Tizim deganda, bir-biri bilan o'zaro munosabatda va bog`liq bo'lgan hamda ma'lum bir butunlikni (umumiylikni) hosil qiluvchi elementlar to'plami tushuniladi yoki *tizim* - bu umumiy belgilari bo'yicha birlashgan qandaydir elementlar yoki birliklar majmuidir.

Sifat tizimi - bu sifat bo'yicha umumiy rahbarlikni ta'minlaydigan tashkiliy tizimlar, mas`uliyatlar, ishlar (vazifalar), jarayonlar va resurslar majmuidir.

Shtrixli kod - bu optik usulda, ko'ndalang kanerlash yo'li bilan o'qiladigan har xil qalinlik va qadamlarga (shag) ega bo'lgan parallel shtrixlar (chiziqlar) to'plami yordamida tashkil topgan kod.

Shtrixli kodlash - bu maxsus ishlab chiqilgan xalqaro axborotlashtirish tizimi yordamida mahsulotlarning asosiy parametrlarini belgilovchi uslub. YOki *shtrixli kod* - bu belgilar, raqamlar va harflarni shtrix (chiziq) va oraliqlar ketma-ketligi ko'rinishidagi kodlash yo'li bo'lib, axborotni tez va aniq kompyuterga kirgizish uchun xizmat qiladigan shakl. Yoki shtrixli kodlash - bu belgilangan shakl, o'lcham, rang.

ILOVALAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
STANDARTLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 15-iyulda qabul qilingan
Senat tomonidan 2022-yil 7-oktabrda ma’qullangan

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi standartlashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ushbu Qonunning qo‘llanilish sohasi

Ushbu Qonunning amal qilishi standartlarni va standartlashtirishga doir tegishli hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish hamda qo‘llash, shuningdek standartlashtirish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshirish chog‘ida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Harbiy sohada, davlat sirlarini va boshqa axborotni himoya qilish sohasida, atom energiyasidan foydalanish, yadroviy hamda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash sohasida, moliya va ta’lim sohasida standartlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasining alohida qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

3-modda. Standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilik

Standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

milliy standart — O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan qabul qilingan hamda keng jamoatchilik uchun ochiq bo‘lgan standart;

standart — faoliyatning har xil turlariga yoki ularning natijalariga taalluqli bo'lgan, umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni, umumiy prinsiplarni yoki tavsiflarni belgilaydigan hamda muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan hujjat;

standartlashtirish — muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan, haqiqatda mavjud bo'lgan yoki kutilayotgan vazifalarga nisbatan umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni belgilaydigan faoliyat;

Standartlashtirish bo'yicha milliy organ — O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar instituti;

standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita — faoliyatning yo'nalishlari bo'yicha standartlashtirish tizimini rivojlantirishni amalga oshirishda ishtirok etuvchi maslahat-kengash organi;

standartlashtirish obyekti — mahsulot, tovarlar, xizmatlar (bundan buyon matnda mahsulot deb yuritiladi), jarayonlar, menejment tizimlari, atamalar, shartli belgilar, tadqiqotlar (sinash), o'lchash (shu jumladan namunalarni tanlash) hamda sinash usullari, tamg'alash, muvofiqlikni baholash tartib-taomillari va boshqa obyektlar;

xalqaro (mintaqaviy) standart — standartlashtirish bo'yicha xalqaro yoki mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va keng jamoatchilik doirasi uchun ochiq bo'lgan standart;

xorijiy mamlakatning standarti — xorijiy mamlakatning standartlashtirish bo'yicha vakolatli organi (tashkiloti) tomonidan qabul qilingan standart;

o'zaro kelishuv — ko'pchilik manfaatdor taraflarning mavjud masalalar bo'yicha e'tirozlari mavjud emasligi bilan tavsiflanadigan hamda barcha taraflarning fikrlarini inobatga olishga va mos kelmayotgan nuqtai nazarlarni yaqinlashtirishga qaratiladigan jarayon natijasida erishiladigan umumiy kelishuv.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasining milliy standartlashtirish tizimi

O‘zbekiston Respublikasining milliy standartlashtirish tizimini quyidagilar tashkil etadi:

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (bundan buyon matnda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi deb yuritiladi);

Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari;

standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar.

6-modda. Standartlashtirishning asosiy prinsiplari

Standartlashtirishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

milliy standartlarni ishlab chiqishda manfaatdor taraflarning o‘zaro kelishuvi;

xolislik;

standartlardagi takrorlanishlarning va ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan hamjihatlik;

mahsulot kelib chiqqan mamlakatdan va (yoki) joydan, shuningdek ishlab chiqaruvchining mulk shaklidan qat’i nazar, mahsulotga nisbatan kamsituvchi munosabatga yo‘l qo‘ymaslik;

ochiqlik va shaffoflik.

7-modda. Standartlashtirishning asosiy vazifalari

Standartlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning hayotini, sog‘lig‘ini va mol-mulkini muhofaza qilish;

atrof-muhitni muhofaza qilish;

mahsulotning sifati masalalarida iste’molchilarning huquqlarini va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoya qilish;

mahsulotning o‘zaro almashuvchanligini va moslashuvchanligini ta’minlash;

aholining va iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun mahsulotning sifatini hamda raqobatbardoshliligini ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanish darajasiga qarab oshirish;

barcha turdagi resurslarni tejashga ko‘maklashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash;

ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik dasturlarni hamda loyihalarni ro‘yobga chiqarish chog‘ida amaliy jihatdan ko‘maklashish;

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini rivojlantirishga va ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko‘maklashish;

ishlab chiqariladigan mahsulotning nomenklaturasi va sifati to‘g‘risidagi axborotning ochiqligini hamda ishonchliligini ta’minlash;

mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotning xorijiy bozorlarga olib chiqilishiga ko‘maklashish;

o‘lchash birligini ta’minlash.

8-modda. Standartlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Standartlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

standartlashtirish tizimining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish;

davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

standartlashtirish tizimi infratuzilmasini takomillashtirish;

ilg‘or innovatsion va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va milliy standartlashtirish tizimini xalqaro tizim bilan uyg‘unlashtirish.

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining standartlashtirish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

standartlashtirish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining standartlashtirish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

milliy standartlashtirish tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi, davlat dasturlarining ishlab chiqilishini va amalga oshirilishini tashkil etadi;

talablariga rioya etilishi majburiy bo‘lgan standartlarni belgilaydi;

standartlashtirish sohasidagi ilmiy-texnikaviy faoliyatni tashkil etadi;

standartlashtirish sohasidagi xo‘jalik faoliyati subyektlarini iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni va rag‘batlantirishni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining standartlashtirish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi:

standartlashtirish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

standartlashtirish rejasining bajarilishi monitoringini amalga oshiradi;

standartlar talablariga, shuningdek standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

zamonaviy boshqaruv uslublariga asoslangan yagona integratsiyalashgan standartlashtirish tizimining yaratilishini amalga oshiradi;

Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ huzurida Apellatsiya komissiyasini tuzadi va uning faoliyatini tashkil etadi;

standartlashtirish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda. Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning vakolatlari

Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ:

standartlashtirish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni, konsepsiyalarni, shuningdek strategiyalarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

standartlashtirish tizimini raqamlashtirishni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo‘li bilan amalga oshiradi;

standartlashtirish rejasini amalga oshiradi;

standartlashtirish bo‘yicha tarmoq texnik qo‘mitalarini tashkil etish, ularning faoliyatini to‘xtatib turish va tugatish haqida manfaatdor taraflarning murojaatlariga binoan, shuningdek o‘z tashabbusiga ko‘ra qarorlar qabul qiladi, ushbu qo‘mitalar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlaydi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi va xalqaro amaliyot asosida ularni rivojlantirishga ko‘maklashadi;

standartlashtirish bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ifodalaydi;

xorijiy mamlakatlarning standartlashtirish bo‘yicha milliy organlari bilan bitimlar tuzadi va ular bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

milliy standartlarni tasdiqlaydi va ro‘yxatdan o‘tkazadi, ularni bekor qilish haqida, shuningdek ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

xalqaro (mintaqaviy) standartlarni, xorijiy mamlakatlarning standartlarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga kiritish va ularning amal qilishini bekor qilish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

manfaatdor taraflarning yangi standartlarni ishlab chiqishga, amaldagi standartlarni qayta ko‘rib chiqishga doir ishlarini muvofiqlashtiradi;

milliy standartlarni xalqaro (mintaqaviy) standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini hisobga olgan holda uyg‘unlashtirish yuzasidan manfaatdor taraflarga tavsiyalar beradi;

standartlashtirish bo‘yicha tegishli texnik qo‘mitalar mavjud bo‘lmagan taqdirda standartlarni ishlab chiqadi;

Standartlarning yagona axborot bazasini shakllantiradi va yuritadi;

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish hamda metrologiya sohasida kadrlarni qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradi, shuningdek ularning malakasini oshirish tizimini tashkil etadi.

Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining standartlashtirish sohasidagi vakolatlari

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida:

yangi standartlarni ishlab chiqishga, amaldagi standartlarga o‘zgartishlar kiritishga, ularni qayta ko‘rib chiqishga va bekor qilishga doir takliflarni tayyorlaydi hamda ularni standartlashtirish rejasiga kiritish uchun Standartlashtirish bo‘yicha milliy organga taqdim etadi;

standartlashtirish rejasida nazarda tutilgan vazifalarni bajaradi;

standartlar loyihalarini ishlab chiqish tashabbusi bilan chiqadi va ularni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

standartlashtirish bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ bilan birgalikda ishtirok etadi;

standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalarni tashkil etish, shuningdek rivojlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi va ularni Standartlashtirish bo‘yicha milliy organga kiritadi.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

13-modda. Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita

Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita standartlarning qabul qilinishidan hamda qo‘llanilishidan manfaatdor bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining hamda boshqa tashkilotlarning ixtiyoriy ishtiroki asosida, Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

Standartlashtirish sohasidagi tegishli tarmoqning manfaatdor subyektlari standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitani tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbus bilan chiqishi mumkin.

Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita tarkibiga manfaatdor taraflarning vakillari kiritiladi.

Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita huzurida uning faoliyatini ta’minlash uchun kotibiyat tashkil etiladi.

Tashkil etilayotgan standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita to‘g‘risidagi axborot barcha manfaatdor taraflar uchun ochiqdir.

Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita:

milliy standartlar loyihalarini ishlab chiqadi;

faoliyat sohasiga muvofiq milliy standartlar loyihalarining muhokamasini tashkil etadi;

yangi milliy standartlarni ishlab chiqishga, amaldagi milliy standartlarni qayta ko‘rib chiqishga doir standartlashtirish rejasiga kiritish uchun takliflar tayyorlaydi;

standartlashtirish rejasiga kiritilgan standartlarni ishlab chiqishni amalga oshiradi;

o‘z vakolatlariga kiradigan masalalar bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga murojaatlar yuboradi;

faoliyat sohasiga muvofiq standartlarning axborot bazasini shakllantiradi va yuritadi;

standartlashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etadi;

standartlashtirish bo‘yicha xalqaro, mintaqaviy tashkilotlarning standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalari ishida Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ bilan birgalikda ishtirok etadi hamda mazkur qo‘mitalarning majlislarida O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini himoya qiladi.

Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar uni tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbus bilan chiqqan subyektlarning, shuningdek standartlarning qabul qilinishidan va qo‘llanilishidan manfaatdor bo‘lgan boshqa tashkilotlarning mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning faoliyati uning majlisi bayonnomasi asosida Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning qarori bilan to‘xtatib turiladi.

Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning faoliyati quyidagi hollardan birida Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning qarori bilan tugatiladi:

standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning tashkil etilishi maqsadlariga erishilganda va uning keyingi faoliyatiga ehtiyoj mavjud bo‘lmaganda;

standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita tomonidan o‘n ikki oy davomida faoliyat olib borilmaganda;

standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning faoliyati samaradorligini baholashning salbiy natijalari tasdiqlanganda;

standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning tegishli qarori qabul qilinganda.

14-modda. Davlat inspektorlari, ularning huquqlari va majburiyatlari

Standartlar talablariga, shuningdek standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati davlat boshqaruvi organlarining vakillari bo‘lgan davlat inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat inspektori quyidagi huquqlarga ega:

xo‘jalik faoliyati subyektining xizmat va ishlab chiqarish binolariga belgilangan tartibda kirish;

davlat nazoratini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni va ma’lumotlarni xo‘jalik faoliyati subyektidan olish;

davlat nazoratini o‘tkazishda xo‘jalik faoliyati subyektining texnika vositalaridan foydalanish va mutaxassislarini jalb etish;

mahsulot namunalarini va nusxalarini ularning standartlarning majburiy talablariga muvofiqligini nazorat qilish uchun olishni standartlashtirishga doir normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshirish, bunda sarflangan namunalarning qiymati hamda sinashni (tahlillarni, o‘lchashni) o‘tkazish xarajatlari tekshirilayotgan xo‘jalik faoliyati subyektlarining ishlab chiqarish chiqimlari jumlasiga kiritiladi;

mahsulotni ishlab chiqarish, ishlab chiqarishga tayyorlash, realizatsiya qilish (yetkazib berish, sotish), undan foydalanish (uni ishlatish), uni saqlash, transportda tashish va utilizatsiya qilish bosqichlarida standartlar majburiy talablarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to‘g‘risida ko‘rsatmalar berish;

xo‘jalik faoliyati subyekti tekshirishdan bo‘yin tovlagan taqdirda, mahsulotni realizatsiya qilishni taqiqlash.

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash hamda metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat inspektori va uning o‘rinbosarlari ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan huquqlardan tashqari quyidagi mutlaq huquqlarga ega:

standartlarning majburiy talablarini buzganlikda aybdor bo‘lgan xo‘jalik faoliyati subyektlarining mansabdor shaxslariga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan ma’muriy jazo choralarini qo‘llash;

standartlarning majburiy talablarini buzganlikda aybdor bo‘lgan yuridik shaxslarga jarima solish to‘g‘risida qaror qabul qilish va mazkur yuridik shaxslar tomonidan jarima bir oy muddatda ixtiyoriy ravishda to‘lanmagan taqdirda, jarimani undirish haqida sudga murojaat qilish;

tekshirilgan mahsulot standartlarning majburiy talablariga muvofiq bo‘lmagan hollarda, uni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki uni realizatsiya qilishni (yetkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) to‘xtatib turish to‘g‘risida ko‘rsatmalar berish;

standartlar talablariga muvofiq bo‘lmagan va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan import mahsulotni sotishni taqiqlash.

Tekshirilgan mahsulot standartlarning majburiy talablariga muvofiq bo‘lmagan hollarda, davlat inspektorlarining mahsulotni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki uni realizatsiya qilishni (yetkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) to‘xtatib turish haqidagi ko‘rsatmalarini bajarmaganlik uchun xo‘jalik faoliyati subyektlarining mansabdor shaxslari va yakka tartibdagi tadbirkorlar ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

Davlat inspektorlari qonunchilik bilan o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik, davlat yoki tijorat sirini oshkor etganlik uchun belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

15-modda. Standartlashtirishga doir ishlarni rejalashtirish

Standartlashtirishga doir ishlar standartlashtirish rejasiga asosan amalga oshiriladi.

Standartlashtirish rejasi standartlashtirish sohasining maqsadlari va uni rivojlantirish yo'nalishlari hisobga olingan holda, qisqa (bir yilgacha), o'rta (bir yildan besh yilgacha) va uzoq (besh yildan o'n yilgacha) muddatli istiqbol uchun qabul qilinishi mumkin.

Standartlashtirish ishlarini rejalashtirish O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga muvofiq bo'lishi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini va zamonaviy texnologiyalarni inobatga olishi kerak.

Standartlashtirish rejasining amal qilish davrida unga manfaatdor taraflarning takliflariga ko'ra o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yiladi.

Standartlashtirish rejasi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

standartlashtirish bo'yicha manfaatdor taraflarning, texnik qo'mitalarning takliflari va xalqaro tajriba;

standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarning ish rejalari;

standartlashtirish sohasidagi monitoring natijalari;

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning holatini tahlil qilish.

Standartlashtirish rejasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

standartlarning xalqaro tasniflagichi kodini;

xalqaro (mintaqaviy) yoki milliy standart loyihasining nomini;

standartlarni ishlab chiqish (qayta ko'rib chiqish) asosini;

standartlashtirishga doir ishlarni amalga oshirish muddatlarini;

moliyalashtirish manbaini;

taklif-buyurtmani taqdim etgan buyurtmachi tashkilotni;

iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot tasnifining kodini.

16-modda. Standartlarning yagona axborot bazasi

Standartlarning yagona axborot bazasi Standartlashtirish bo'yicha milliy organ tomonidan shakllantiriladi va yuritiladi.

Standartlarning yagona axborot bazasi milliy standartlarni, xalqaro (mintaqaviy) standartlarni, xorijiy mamlakatlarning standartlarini o‘z ichiga oladi.

17-modda. Standartlarning toifalari

Standartlarning toifalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

milliy standartlar;

xalqaro (mintaqaviy) standartlar;

xorijiy mamlakatlarning standartlari.

18-modda. Milliy standartlar

Milliy standartlar ushbu Qonunda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish uchun standartlashtirish rejasi asosida ishlab chiqiladi va O‘zMSt (O‘zbekiston Milliy Standarti) belgisiga ega bo‘ladi.

Milliy standartlarning mazmuni va belgisi bo‘yicha rasmiylashtirilishini, tuzilishini belgilash qabul qilingan milliy standartlar talablariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Milliy standartlar quyidagilar inobatga olingan holda ishlab chiqiladi:

ilmiy tadqiqotlarning (sinashning) va o‘lchashning natijalari;

ilmahsulotning yangi turlarini, jarayonlarni va xizmatlarni qo‘llash orqali orttirilgan amaliy tajriba;

xalqaro (mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlari hamda standartlashtirish obyektiga doir talablarni belgilaydigan boshqa hujjatlar.

Milliy standartlarni ishlab chiqish ushbu Qonunning 11, 12 va 13-moddalarida nazarda tutilgan manfaatdor taraflar tomonidan amalga oshiriladi.

Milliy standartlarni ishlab chiqishning boshlanishi va yakunlanishi to‘g‘risidagi axborot, shuningdek milliy standartlar loyihalari Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytiga va elektron portaliga joylashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida milliy standart loyihasini kelishish majburiyligi nazarda tutilgan hollarda, ushbu loyiha tasdiqlanguniga qadar manfaatdor taraflar bilan kelishilishi lozim.

Jamoatchilik muhokamasi davrida milliy standartlar loyihalari standartlashtirish bo'yicha sohaga daxldor texnik qo'mitada, u mavjud bo'lmagan taqdirda esa Standartlashtirish bo'yicha milliy organda texnik muhokamadan o'tadi.

Standartlashtirish bo'yicha milliy organning rasmiy veb-saytiga va elektron portaliga joylashtirilgan milliy standartlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi oltmish kalendar kun ichida amalga oshiriladi.

Ishlab chiquvchi milliy standart tasdiqlanishidan oldin standart loyihasini o'n kalendar kundan oshmagan muddatda ekspertizaga yuboradi.

Milliy standart davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin, biroq ushbu standart davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot Standartlashtirish bo'yicha milliy organning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan kundan e'tiboran ko'pi bilan oltmish kundan keyin amalga kiritiladi.

Milliy standartlar mamlakatimiz ilm-fani va xorijiy ilm-fan yutuqlariga asoslanishi hamda ushbu Qonunning, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi xalqaro shartnomalarning talablariga zid bo'lmasligi kerak.

Milliy standartlar xalqaro savdo uchun ortiqcha to'siqlarni yuzaga keltirmasligi kerak.

Milliy standartlarda mahsulotga va uning tasnifiga, atamalarga, shartli belgilarga, sinash (o'lchash), namunalar tanlash, tamg'alash usullariga, muvofiqlikni baholash tartib-taomillariga, boshqarish tizimlariga doir talablar belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining manfaatlari himoya qilinishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshliligini ta'minlash uchun asoslantirilgan hollarda, milliy standartlarda an'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan o'zib ketuvchi istiqboldagi dastlabki talablar belgilanadi.

Milliy standartni qabul qilishning majburiy sharti o'zaro kelishuvga erishishdan iboratdir.

Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitada milliy standart loyihasi ko‘rib chiqilayotganda, agar standart loyihasida keltirilgan talablar, ilmiy ishlanmalar, tadqiqotlarni davom ettirish qo‘mita a’zolari tomonidan maqsadga muvofiq deb topilsa, mazkur standart loyihasi muayyan muddatga dastlabki standart tarzida qabul qilinadi va unga DS (Dastlabki Standart) belgisi beriladi.

Mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan, ishlab chiqarishdagi texnik reglamentlarga va standartlarga zid bo‘lmagan, mamlakat miqyosida qo‘llashga tavsiya etilayotgan loyihalar texnik shartlarda nou-xau sifatida foydalanilgan yutuqlar asosida manfaatdor taraflarning tashabbusiga ko‘ra, standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalarga ko‘rib chiqish va muhokama qilish uchun yuborilishi mumkin.

Davlat sirini va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan standartlar qonunchilikda belgilangan tartibda ishlab chiqiladi hamda qabul qilinadi.

19-modda. Xalqaro (mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlari

O‘zbekiston Respublikasida xalqaro (mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlari qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududida xalqaro (mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlari Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning ularni amalga kiritish to‘g‘risidagi qarori asosida milliy standartlar bilan teng ravishda qo‘llaniladi.

20-modda. Milliy standartlarga o‘zgartishlar kiritish va ularni bekor qilish

Milliy standartlarga o‘zgartishlar kiritish, milliy standartlarni almashtirish, alohida talablarga qo‘shimchalar kiritish yoki ularni chiqarib tashlash, milliy standartlarning amal qilish muddatlarini uzaytirish yoki tiklash, ularga yangi talablar kiritish va ularni xalqaro (mintaqaviy) standartlar bilan uyg‘unlashtirish amaldagi qonunchilikning buzilishiga olib kelmaydigan hollarda amalga oshiriladi.

Milliy standartlarga o‘zgartishlar kiritish mazkur standartni ishlab chiquvchi yoki Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ tomonidan amalga oshiriladi.

Milliy standartlarni bekor qilish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

mazkur standartlarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid ekanligi;

mazkur standartlar o‘rniga yangi milliy, xalqaro (mintaqaviy) standart amalga kiritilganligi;

mazkur standartni qo‘llashning dolzarbligi yo‘qolganligi.

Milliy standartni bekor qilish tashabbusi bilan chiqqan shaxslar uni bekor qilish uchun Standartlashtirish bo‘yicha milliy organga standartni bekor qilish maqsadga muvofiq ekanligini asoslantirgan holda o‘z takliflarini yuboradi.

Milliy standartlarga o‘zgartishlar kiritish va ularni bekor qilish to‘g‘risidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytiga hamda elektron portaliga joylashtiriladi, shuningdek jamoatchilik muhokamasini o‘tkazish oltmish kalendar kuni ichida amalga oshiriladi.

21-modda. Standartlashtirish masalalari bo‘yicha uzil-kesil qaror qabul qilish. Apellatsiya komissiyasining faoliyati

Standartlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, ro‘yxatdan o‘tkazish, amalga kiritish, ularga o‘zgartishlar kiritish, ularni qayta ko‘rib chiqish, to‘xtatib turish yoki bekor qilish chog‘ida kelishmovchiliklar mavjud bo‘lgan taqdirda, shuningdek standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi standartlashtirish masalalari bo‘yicha uzil-kesil qaror qabul qiladi.

Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ huzurida Apellatsiya komissiyasi tuziladi. Apellatsiya komissiyasi to‘g‘risidagi nizom va Apellatsiya komissiyasining tarkibi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ tomonidan qabul qilingan qarordan norozi bo‘lgan manfaatdor taraflarning yoki standartlashtirish

bo‘yicha texnik qo‘mitaning murojaatlarini (apellatsiyalarini) ko‘rib chiqish Apellatsiya komissiyasining vakolatlariga kiradi.

Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ xodimlari Apellatsiya komissiyasi tarkibiga kirishi mumkin emas. Agar Apellatsiya komissiyasining a’zosi apellatsiyaning taraflari bo‘lgan shaxslarga xizmat yuzasidan yoki boshqa jihatdan tobe bo‘lgan bo‘lsa yoxud tobe bo‘lsa yoki bunday a’zoning xolisligiga shubha tug‘diruvchi boshqa holatlar mavjud bo‘lganda ushbu a’zoning apellatsiyani ko‘rib chiqishda ishtirok etishi mumkin emas.

Manfaatdor taraf yoki standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning qaroridan norozi bo‘lgan taqdirda, shuningdek, agar standartlashtirish sohasidagi tartib-taomillar Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning qarori yoki harakatlari (harakatsizligi) tufayli buzilgan deb hisoblasa, Apellatsiya komissiyasiga apellatsiya berish huquqiga ega.

Apellatsiyani ko‘rib chiqish muddati o‘ttiz kundan oshmasligi kerak.

Milliy standartning yoki uning loyihasining mazmuni apellatsiya predmeti bo‘lishi mumkin emas. Agar Apellatsiya komissiyasi Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning qarori yoki harakatlari (harakatsizligi) standartlashtirish sohasidagi tartib-taomillarni buzadi deb topsa, ushbu komissiya tartib-taomilning buzilishlari Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ tomonidan bartaraf etilishini nazarda tutuvchi qaror qabul qiladi.

Apellatsiya komissiyasining qarori majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va nizoning taraflariga taqdim etiladi.

22-modda. Standartlarni qo‘llash

Standartlar ixtiyoriy ravishda qo‘llaniladi, bundan O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlaridagi standart talablariga majburiy ravishda rioya etilishiga oid havolalar ko‘rsatilgan hollar mustasno (standartning majburiy talabi).

Standartlar mahsulotni ishlab chiqish, loyihalashtirish, ishlab chiqarish, saqlash, sinash, tekshirish va o‘lchash, mahsulotning namunalarini olish bosqichlarida, atamalarga, ramzlarga, o‘rovlarga,

tamg‘alashga yoki etiketkalarga hamda ularni tushirishga, mahsulotning ishlashiga (uni qo‘llashga, undan foydalanishga), uni tashishga, realizatsiya va utilizatsiya qilishga (qayta ishlashga) nisbatan, boshqa standartlashtirish obyektlariga nisbatan ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish chog‘ida qo‘llanilishi mumkin.

Xalqaro (mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlari quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a’zoligida;

standartlashtirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari mavjud bo‘lganda;

Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ va xalqaro, mintaqaviy, chet el tashkiloti o‘rtasida standartlashtirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim mavjud bo‘lganda;

xalqaro (mintaqaviy) standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qo‘llash chog‘ida standartlashtirish organlari bilan tuzilgan shartnomalarga rioya etilganda.

Standartlardan O‘zbekiston Respublikasining texnik reglamentlarini ishlab chiqish uchun asos sifatida foydalanilishi mumkin. Texnik reglamentlarning talablarini bajarish va mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini tanlovga oid qism bo‘yicha ixtiyoriy ravishda baholash uchun o‘zaro aloqador bo‘lgan standartlar qo‘llaniladi.

Ishlab chiqaruvchi va (yoki) ijrochi uchun u mahsulotning mazkur standartga muvofiqligini e’lon qilganda standart talablari bajarilishi shart, shu jumladan mahsulot belgisi tamg‘alashda, foydalanishga oid hujjatlarda yoki boshqa hujjatlarda, shartnomalarda, reklamada, axborot resurslarida va axborot taqdim etishning boshqa shakllarida qo‘llanilgan taqdirda ushbu talablar bajarilishi shart.

Standartlarda mahsulotga oid takrorlanuvchi talablarni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Quyidagi standartlarni qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi:

umummajburiy xususiyatga ega bo'lgan normalarni o'z ichiga olgan, fuqarolarning huquqlariga, erkinliklariga va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan standartlarni;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga va texnik reglamentlarga zid bo'lgan standartlarni;

mahsulotning erkin muomalada bo'lishiga to'siqlar yaratadigan, bozor raqobatini bartaraf etishga va cheklashga qaratilgan standartlarni.

Standartlashtirishga doir hujjatlarni jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qo'llash mualliflik huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Eksportga yuborilayotgan mahsulotga oid talablar mahsulotni yetkazib berishga doir shartnoma qoidalariga muvofiq belgilanadi.

23-modda. Standartlarni e'lon qilish, tarqatish va nashr etish

Milliy standartlarni e'lon qilish va shartnoma asosida tarqatish Standartlashtirish bo'yicha milliy organ tomonidan amalga oshiriladi.

Milliy standartlar davlat tilida e'lon qilinishi kerak.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning, shuningdek xorijiy mamlakatlarning standartlari va boshqa nashrlari keyinchalik davlat tiliga rasmiy tarjima qilingan holda, ushbu tashkilotlarning rasmiy tillaridan birida qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan standartlashtirish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning standartlarini nashr etish hamda tarqatish standartlashtirish bo'yicha xalqaro yoki mintaqaviy tashkilot belgilagan tartibda va shartlar asosida Standartlashtirish bo'yicha milliy organ tomonidan amalga oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlarning standartlarini nashr etish va tarqatish mazkur davlatlarning standartlashtirish bo'yicha milliy organlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq Standartlashtirish bo'yicha milliy organ tomonidan amalga oshiriladi.

Chet el huquq egalari bilan tuzilgan litsenziyaga oid shartnomalarda, shuningdek xalqaro shartnomalarda va boshqa xalqaro huquq normalarida xalqaro (mintaqaviy) standartlardan, xorijiy mamlakatlarning standartlaridan pulli asosda erkin foydalanish nazarda tutilgan va (yoki) ushbu standartlardan erkin foydalanishga yo'l

qo‘yilmasligi nazarda tutilgan hollarda, Standartlashtirish bo‘yicha milliy organ tegishli hujjatlarni taqdim etganlik uchun to‘lov miqdori hamda ularni tarqatish tartibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

24-modda. Standartlashtirish sohasidagi axborot ta’minoti

Standartlashtirish sohasidagi axborot ta’minoti quyidagilar vositasida amalga oshiriladi:

standartlar to‘g‘risidagi axborotni veb-saytlarga joylashtirish;

standartlarni, rasmiy nashrlarni va ularning ko‘chirma nusxalarini tarqatish.

Standartlar to‘g‘risidagi axborotni joylashtirish ularni Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlarida va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida rasmiy e’lon qilish vositasida amalga oshiriladi.

Standartlar to‘g‘risidagi axborot jumlasiga quyidagilar kiradi:

raqami va nomi;

qo‘llanilish sohasi;

tasdiqlanganligi, o‘zgartishlar kiritilganligi hamda bekor qilinganligi to‘g‘risidagi qarorning sanasi va raqami;

ishlab chiquvchi haqidagi ma’lumotlar.

25-modda. Standartlashtirish sohasidagi ishlarni moliyalashtirish

Standartlashtirish sohasidagi ishlarni moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari;

manfaatdor tashkilotlarning mablag‘lari;

ixtiyoriy badallar;

qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa manbalar.

Standartlashtirishga doir quyidagi ishlar davlat tomonidan moliyalashtirilishi lozim:

xalqaro (mintaqaviy) standartlarni ishlab chiqish yoki ularni ishlab chiqishda ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosi bo‘yicha standartlarni ishlab chiqish;

standartlashtirish rejasida nazarda tutilgan milliy standartlarni ishlab chiqish;

standartlashtirish bo‘yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot ishlarini va boshqa ishlarni amalga oshirish;

Standartlarning yagona axborot bazasini shakllantirish va yuritish;

standartlashtirish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan boshqa faoliyat.

26-modda. Nizolarni hal etish

Standartlashtirish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

27-modda. Standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Belgilangan tartibda ogohlantirish olganidan keyin standartlashtirish sohasidagi huquqbuzarlikni davom ettirganlik yoki bartaraf etmaganlik uchun jismoniy shaxslar qonunchilikka muvofiq ma’muriy javobgarlikka tortiladi. Belgilangan tartibda ogohlantirish olganidan keyin standartlashtirish sohasidagi huquqbuzarlikni davom ettirganlik yoki bartaraf etmaganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi.

Standartning standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan majburiy talablariga mahsulotni ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi tomonidan rioya etilmagan taqdirda, ularga nisbatan:

huquqbuzarlik birinchi marta sodir etilganda — standartlarning majburiy talablariga mos bo‘lmagan, realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining ellik foizigacha miqdorda jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi;

xuddi shunday huquqbuzarlik ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan jarima tarzidagi moliyaviy sanksiya qo‘llanilgan kundan e’tiboran bir yil ichida takroran sodir etilganda — standartlarning majburiy talablariga mos bo‘lmagan,

realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining yuz foizigacha miqdorda jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo'llaniladi, bundan mahsulotni ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybini tan olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan hollar mustasno.

Undirilgan jarima summasining ellik foizi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining budjetdan tashqari jamg'armasiga, qolgan qismi esa O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga yo'naltiriladi.

"Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat tomonidan normalashtirish oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligiga, uni ishlab chiqarish, tayyorlash, xarid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, transportda tashish hamda realizatsiya qilish shart-sharoitlariga doir talablarni o'z ichiga olgan texnik reglamentlarni, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini, fitosanitariya normalarini, qoidalarini hamda gigiyena normativlarini, milliy standartlarni, texnik shart-sharoitlarni (bundan buyon matnda normalar va qoidalar deb yuritiladi) belgilash yo'li bilan amalga oshiriladi".

30-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

31-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n ikki oy o'tgach kuchga kiradi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi standartlari va O'zDSt abbreviaturasi belgisi bilan qabul qilingan tegishli hujjatlar milliy standartlar deb

hisoblanadi hamda ular ushbu Qonun kuchga kirgan kundan e'tiboran besh yil ichida qayta ko'rib chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 3-noyabr,
O'RQ-800-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
"METROLOGIYA TO'G'RISIDA"GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 12-noyabrda qabul qilingan.

Senat tomonidan 2020-yil 28-fevralda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan "Metrologiya to'g'risida"gi 1004-XII-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, № 2, 48-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, № 5-6, 153-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, № 4, 98-modda; 2014-yil, № 12, 343-modda) o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2-modda. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

4-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran olti oy o‘tgach kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 7-aprel,
O‘RQ-614-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

Metrologiya to‘g‘risida

(yangi tahriri)

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi

2-modda. Metrologiya to‘g‘risidagi qonunchilik

Metrologiya to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining metrologiya to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

metrologiyaga oid faoliyat — o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash, o‘lchash uslublari va vositalari, shuningdek talab qilinadigan aniqlikka erishish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat;

metrologik kuzatiluvchanlik — o‘lchash natijasining hujjatlashtirilgan uzluksiz kalibrlashlar ketma-ketligi orqali etalonga bog‘lash mumkin bo‘lgan xossasi;

metrologik ekspertiza — o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishi bilan bog‘liq metrologik talablar, qoidalar va normalarni qo‘llash

to‘g‘riligi hamda to‘liqligini baholash va tahlil qilish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy ishlar majmui;

sinov vositasi — sinovlar o‘tkazish uchun mo‘ljallangan, normalangan texnik tavsiflari bo‘lgan texnik qurilma, modda va (yoki) material;

standart namuna — metrologik attestatsiya natijasida modda (material)ning xossasi yoki tarkibini tavsiflaydigan bitta yoki undan ortiq qiymatlari aniqlangan shu modda (material) namunasi shaklidagi o‘lchash vositasi;

etalon — muayyan kattalik birligining o‘lchamini boshqa o‘lchash vositalariga o‘tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo‘ljallangan o‘lchash vositasi;

o‘lchashlar aniqligining ko‘rsatkichi — o‘lchash uslubiyotining qo‘llanilayotgan normalari va qoidalariga rioya etilganda olingan o‘lchash natijalari aniqligining belgilangan tavsifi;

o‘lchashlarni bajarish uslubiyoti — o‘lchashlarning bajarilishini va ularning natijalari belgilangan aniqlik ko‘rsatkichlari bilan olinishini ta’minlaydigan operatsiyalar va qoidalar majmui;

o‘lchash vositasi — o‘lchashlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatlarga ega bo‘lgan texnika vositasi;

o‘lchash vositalarini kalibrlash — berilgan sharoitlarda o‘lchash vositasi yordamida olingan kattalik qiymati va etalon bilan qayta tiklanadigan tegishli kattalik qiymati o‘rtasidagi nisbatni aniqlash orqali o‘lchash vositasining metrologik tavsiflarini aniqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar majmui;

o‘lchash vositalarini qiyoslash — o‘lchash vositalarining belgilab qo‘yilgan metrologik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida bajariladigan operatsiyalar majmui;

o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishi — o‘lchashlarning natijalari qonuniylashtirilgan birliklarda ifodalangan va o‘lchashlarning aniqlik ko‘rsatkichlari ma’lum ehtimollik bilan belgilangan chegaralarda joylashgan holati.

4-modda. Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar

Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasida o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash;

ishonchsiz o‘lchash natijalarining oldini olish;

xolis, ishonchli va solishtiriladigan o‘lchash natijalariga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish;

o‘lchash natijalarining milliy va (yoki) xalqaro etalonlargacha metrologik kuzatiluvchanligini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishiga va ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko‘maklashish.

5-modda. Metrologiyaga oid faoliyat sohasinining asosiy prinsiplari

Metrologiyaga oid faoliyat sohasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

metrologiya tekshiruvi va nazorati natijalarining xolisligi;

ilmiy asoslanganlik;

o‘lchash birliklari qo‘llanilishida xalqaro birliklar tizimining ustuvorligi;

boshqaruv tizimining yagonaligi;

ma’lumotlarning oshkoraligi va ochiqligi;

o‘lchashlar yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha milliy va xalqaro talablarning uyg‘unligi.

2-bob. Metrologiyaga oid faoliyat sohasini tartibga solish

6-modda. Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

metrologiyaga oid faoliyatni xalqaro talablar asosida rivojlantirish;

investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda ularni ishlab chiqarish amaliyoti bilan integratsiya qilish;

metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

ilg‘or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishini rag‘batlantirish;

noto‘g‘ri o‘lchash natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasida o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash tizimi ishlashi va rivojlanishini, uning xalqaro birliklar tizimi va boshqa mamlakatlarning kattalik birliklari tizimlari bilan uyg‘unlashuvini ta’minlash;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

metrologiyaga oid faoliyat sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi;

metrologiyaga oid faoliyat sohasida davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi;

o‘z vakolatlari doirasida metrologiyaga oid faoliyat sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;

metrologiyaga oid faoliyat sohasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;

kattalik birliklarining nomlari va belgilari, ularni yozish va qo‘llash qoidalarini, metrologiya tekshiruvi va nazorati tartibini, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o‘tkazilgan o‘lchash vositalarini sinash va metrologik attestatsiyadan o‘tkazish, qiyoslash, kalibrlash natijalarini O‘zbekiston Respublikasida e’tirof etish tartibini belgilaydi;

o‘lchash natijalari davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘lchash vositalari turkumlari ro‘yxatini tasdiqlaydi.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati

Metrologiyaga oid faoliyat sohasining davlat tomonidan boshqarilishini metrologiya bo‘yicha milliy organ — O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi) amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat metrologiya xizmatidan, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlaridan, shuningdek respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari hisoblanmaydigan yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlaridan iboratdir.

Davlat metrologiya xizmati maxsus vakolatli davlat organi va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bo‘linmalaridan, shuningdek O‘zbekiston milliy metrologiya institutidan iborat.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlari respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari huzuridagi maxsus tashkil etilgan hamda akkreditatsiya qilingan bo‘linmalardan iboratdir.

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari hisoblanmaydigan maxsus tashkil etilgan hamda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxslardan va (yoki) ular huzuridagi bo‘linmalardan (bundan buyon matnda yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari deb yuritiladi) iborat.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari zarurat bo‘lgan hollarda o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha ishlarni bajarish hamda metrologiya tekshiruvini amalga oshirish uchun tashkil etiladi.

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlarining hamda yuridik shaxslar

metrologiya xizmatlarining huquq va majburiyatlari davlat metrologiya xizmati organlari bilan kelishib olingan nizomlarda o‘rnatiladi.

9-modda. Maxsus vakolatli davlat organining metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi vakolatlari

Maxsus vakolatli davlat organi:

metrologiyaga oid faoliyat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

mamlakatda metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi mintaqalararo va tarmoqlararo tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

milliy etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va ishchi holatda saqlab turish qoidalarini o‘rnatadi, shuningdek ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta’minlaydi;

o‘lchash uslublari, vositalari va natijalariga qo‘yiladigan umumiy metrologik talablarni belgilaydi;

davlat metrologiya nazoratini amalga oshiradi, shuningdek metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi harakatlarni muvofiqlashtiradi;

davlat sinovlaridan o‘tgan va turi tasdiqlangan yoki metrologik attestatsiyadan o‘tkazilgan O‘lchash vositalarining davlat reyestrini yuritadi;

o‘z vakolatlari doirasida, shu jumladan boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorlikda normativ-huquqiy hujjatlarni va normativ hujjatlarni qabul qiladi;

ilmiy kadrlar va muhandis-texniklar tayyorlashni hamda qayta tayyorlashni tashkil etadi;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning mutaxassislarini jalb etadi;

o‘z vakolatlari doirasida xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etadi;

O‘zbekiston Respublikasining o‘lchashlar yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash tizimi ishlashi va rivojlanishini hamda uning

xalqaro birliklar tizimi va boshqa mamlakatlarning kattalik birliklari tizimlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi;

iste'molchilar huquqlarini, fuqarolarning sog'lig'i va xavfsizligini, atrof-muhitni hamda davlat manfaatlarini noto'g'ri o'lchash natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek tashkilotlardan o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotni oladi.

10-modda Maxsus vakolatli davlat organi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bo'linmalarining vakolatlari

Maxsus vakolatli davlat organi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bo'linmalari:

o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga doir normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

milliy darajada laboratoriyalararo solishtirishlarda ishtirok etadi.

11-modda. O'zbekiston milliy metrologiya institutining vakolatlari

O'zbekiston milliy metrologiya instituti:

O'zbekiston Respublikasi milliy etalonlar bazasini takomillashtiradi va rivojlanishini ta'minlaydi;

etalonlarni va eng yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini saqlab turish hamda ularni xalqaro darajada solishtirish, shuningdek kattalik birliklarini saqlash va uzatish bo'yicha ishlarni bajaradi;

o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga doir normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

metrologiya tekshiruvi natijalarini o'zaro e'tirof etish bo'yicha xalqaro shartnomalarni ro'yobga chiqarishda ishtirok etadi;

metrologiya tekshiruvini va metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi.

12-modda. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlari metrologiya xizmatlarining hamda yuridik shaxslar metrologiya xizmatlarining vakolatlari

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining metrologiya xizmatlari:

akkreditatsiya qilingan holda o'lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash ishlarini bajaradi;

o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga doir normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi.

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari:

akkreditatsiya qilingan holda o'lchash vositalarini kalibrlash hamda ushbu Qonunning 25-moddasida nazarda tutilgan hollarda o'lchash vositalarini qiyoslash ishlarini bajaradi;

o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga doir normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi.

3-bob. Metrologiyaga oid faoliyatni tashkil etish

13-modda. O'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga doir normativ hujjatlar

Metrologiya normalari va qoidalarini belgilovchi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida majburiy kuchga ega bo'lgan o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga doir normativ hujjatlarni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga doir normativ hujjatlarning quyidagi turlari qo'llaniladi:

o'lchash vositalarini qiyoslash uslubiyoti;

o'lchash vositalarini kalibrlash uslubiyoti;

o'lchashlarni bajarish uslubiyoti;

sinov vositalarini attestatsiyadan o'tkazish uslubiyoti.

O'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga doir normativ hujjatlar jumlasiga metrologiya tekshiruvini o'tkazish tartibini belgilovchi standartlashtirish bo'yicha hujjatlar ham kiradi.

O‘lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlash uslubiyotlari, sinov vositalarini attestatsiyadan o‘tkazish uslubiyoti metrologik ekspertizadan o‘tkazilishi lozim.

O‘lchashlarni bajarish uslubiyoti metrologik attestatsiyadan o‘tkaziladi.

14-modda. Kattalik birliklari

O‘zbekiston Respublikasida xalqaro birliklar tizimining kattalik birliklarini belgilangan tartibda qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi. Kattalik birliklarining nomlari, belgilari, ularni yozish va qo‘llash qoidalari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan xalqaro birliklar tizimiga kiritilmagan birliklarni qo‘llashga ruxsat berilishi mumkin.

Tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish chog‘ida shartnoma shartlariga muvofiq o‘zga kattalik birliklaridan ham foydalanish mumkin.

15-modda. Kattalik birliklarining etalonlari

Kattalik birliklari etalonlar vositasida saqlanadi va qayta hosil qilinadi.

Etalonlar orqali qayta hosil qilinadigan kattalik birliklari xalqaro birliklar tizimining birliklariga qadar metrologik kuzatiluvchanlikni ta’minlashi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organining qarori bilan milliy etalon O‘zbekiston Respublikasi hududida muayyan kattalik birligining o‘lchamini belgilash uchun birlamchi etalon sifatida e’tirof etiladi.

Milliy etalonlarni xususiylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo‘llash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o‘rnatiladi.

16-modda. O‘lchash vositalari va sinov vositalari

Foydalanishda bo‘lgan o‘lchash vositalari va sinov vositalari o‘lchash natijalarining belgilangan aniqlikdagi qonuniylashtirilgan birliklarda bo‘lishini ta’minlashi va qo‘llash shartlariga mos kelishi kerak.

O‘lchash natijalarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ruxsat etilmagan sozlash va aralashuvlarning oldini olish maqsadida o‘lchash vositalarining konstruksiyasi o‘lchash vositalarining funksional qismlariga (shu jumladan dasturiy ta’minotga) kirish cheklanishini ta’minlashi kerak.

Quyidagilar texnik vositalar, qurilmalar, moddalar va (yoki) materiallarning o‘lchash vositalari va (yoki) sinov vositalari jumlasiga kiritish mezonlari hisoblanadi:

qiymatlari ma’lum vaqt davomida o‘zgarmas deb qabul qilinadigan normalangan metrologik xususiyatlarga va texnik tavsiflarga ega bo‘lishi;

o‘lchash natijalarining belgilangan aniqlikda qonuniylashtirilgan birliklarda bo‘lishini ta’minlash qobiliyati, shuningdek sinov natijalarining ishonchliligi;

mexanik, elektrik, optik, fizik-kimyoviy, elektron prinsiplarda ishlashi.

Quyidagi hollarda texnik vositalar o‘lchash vositalari va (yoki) sinov vositalari hisoblanmaydi:

indikator funksiyasiga ega bo‘lganda;

natijalari o‘lchash va (yoki) sinov hisoblanmaydigan, faqat dastlabki baholash uchun foydalanilganda;

faqat o‘lchash va (yoki) sinov natijalari haqida axborot uzatish funksiyalarini bajarganda..

17-modda. O‘lchashlarni bajarish uslubiyotlari

O‘lchashlarni bajarish uslubiyotlari o‘lchash natijalarining aniqlik ko‘rsatkichlarini baholashni o‘z ichiga olishi va o‘lchash o‘tkazishning mavjud sharoitlarida belgilab qo‘yilgan aniqlikni ta’minlashi kerak. O‘lchashlar belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilgan o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlariga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

O‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini metrologik attestatsiyadan o‘tkazish o‘lchashlarni bajarish uslubiyotining unga qo‘yiladigan metrologiya talablariga muvofiqligini baholash hamda tasdiqlash maqsadida tadqiqotlar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

O‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini ishlab chiqish va metrologik attestatsiyadan o‘tkazish tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o‘rnatiladi.

4-bob. Metrologiya tekshiruvi va davlat metrologiya nazorati

18-modda. Metrologiya tekshiruvini va davlat metrologiya nazoratini amalga oshirish

Metrologiya tekshiruvi O‘zbekiston milliy metrologiya instituti, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining metrologiya xizmatlari hamda yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tomonidan ushbu Qonunda belgilangan vakolatlar doirasida amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya nazorati maxsus vakolatli davlat organi tomonidan metrologiya to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan tekshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

19-modda. Metrologiya tekshiruvi va davlat metrologiya nazorati obyektlari

Quyidagilar metrologiya tekshiruvi va davlat metrologiya nazorati obyektlaridir:

etalonlar;

o‘lchash vositalari;

sinov vositalari;

standart namunalar;

axborot-o‘lchash tizimlari;

o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlari;

o‘ramlarga qadoqlangan tovarlarning ularni maydalab qadoqlash va sotish chog‘idagi miqdori;

metrologiya normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa obyektlar.

20-modda. Metrologiya tekshiruvi va davlat metrologiya nazorati tatbiq etiladigan sohalar

Metrologiya tekshiruvi va davlat metrologiya nazorati quyidagi sohalarda bajariladigan o'lchashlarga nisbatan qo'llaniladi:

sog'liqni saqlash, veterinariya, atrof-muhitni muhofaza qilish;

moddiy boyliklarni va yoqilg'i-energetika resurslarini hisobga olish;

soliq, bojxona, savdo-tijorat, pochta va telekommunikatsiya;

zaharli, tez alangalanuvchi, portlovchi va radioaktiv moddalarni saqlash, tashish hamda yo'q qilib tashlash;

umumiy ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish, realizatsiya qilish va ushbu sohada xizmatlar ko'rsatish;

aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, yong'in xavfsizligini, suv obyektlarida insonlarning xavfsizligini ta'minlash;

sanoat xavfsizligini ta'minlash;

davlat mudofaasini ta'minlash;

mehnat xavfsizligini va transport harakati xavfsizligini ta'minlash;sertifikatlashtiriladigan mahsulotning xavfsizligi va sifatini aniqlash;

geodezik, kartografik va gidrometeorologik ishlarni bajarish;

o'lchash vositalarini davlat sinovidan, qiyoslashdan, kalibrlashdan, ta'mirlash va metrologik attestatsiyadan o'tkazish;

foydali qazilmalarni qazib olish;

rasmiy sport musobaqalarini o'tkazish;

mahsulot va xizmatlar muvofiqligini baholash bo'yicha ishlarni bajarish.

Metrologiya tekshiruvi va davlat metrologiya nazorati qonunchilikka muvofiq faoliyatning boshqa sohalariga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

21-modda. Metrologiya tekshiruvi

Metrologiya tekshiruvi va davlat metrologiya nazorati obyektlarining metrologik, texnik tavsiflarini aniqlash va (yoki) tasdiqlash maqsadida metrologiya tekshiruvi amalga oshiriladi.

Metrologiya tekshiruvi:

o‘lchash vositalarining turini tasdiqlash maqsadida sinovdan o‘tkazish;

o‘lchash vositalarini va o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini metrologik attestatsiyadan o‘tkazish;

o‘lchash vositalarini, shu jumladan etalonlarni qiyoslash, kalibrlash;

sinov vositalarini attestatsiyadan o‘tkazish tarzida amalga oshiriladi.

22-modda. Davlat metrologiya nazorati

Davlat metrologiya nazorati texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlarining metrologiyaga oid talablarga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya nazorati:

o‘lchash vositalarining (shu jumladan etalonlar, standart namunalar, axborot-o‘lchash tizimlari) ishlab chiqarilishi, ta’mirlanishi, prokatga berilishi, realizatsiya qilinishi, ularning holati va qo‘llanilishi;

o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarining qo‘llanilishi;

belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishi, shuningdek akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari, markazlari va laboratoriyalari faoliyati;

o‘ramlarga qadoqlangan tovarlarning ularni maydalab qadoqlash va sotish chog‘idagi miqdori ustidan amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya nazoratini amalga oshiruvchi shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi qonunchilikda belgilanadi.

23-modda. O‘ramlarga qadoqlangan tovarlar miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati

O‘ramlarga qadoqlangan tovarlarning ularni maydalab qadoqlash va sotish chog‘idagi miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o‘tkaziladi.

O‘ramlarga qadoqlangan tovarlar miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati o‘ram tarkibini o‘ramni ochmasdan yoki deformatsiya qilmasdan o‘zgartirish mumkin bo‘lmagan taqdirda,

o‘ramdagi tovar miqdorini ko‘rsatuvchi massa, hajm, uzunlik, maydon yoki boshqa kattaliklar esa o‘ramda belgilangan hollarda amalga oshiriladi.

O‘ramlarga qadoqlangan tovarlar miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati suyuq holdagi qadoqlangan tovarlar uchun iste’mol idishi sifatida foydalaniladigan o‘lchamli idishlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O‘ramlardagi qadoqlangan tovarlarning miqdori ustidan davlat metrologiya nazorati tekshiruv xaridi orqali amalga oshirilishi mumkin.

24-modda. O‘lchash vositalarining turlarini tasdiqlash

O‘lchash vositalarining turlarini tasdiqlash o‘z ichiga davlat sinovlarini o‘tkazish orqali o‘lchash vositalarining metrologik va texnik tavsiflarini aniqlash, o‘lchash vositalarining metrologiya to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiqligini belgilash hamda o‘lchash vositalarining turini tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilish bo‘yicha ishlarni oladi.

O‘lchash vositalarini metrologik attestatsiyadan o‘tkazish yagona nusxalarda ishlab chiqariladigan (yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga import bo‘yicha yagona nusxalarda olib kiriladigan) o‘lchash vositalarining xossalarini tadqiq etish asosida ular qo‘llash uchun yo‘l qo‘yilishini e’tirof etish maqsadida davlat metrologiya xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu Qonunning 20-moddasida ko‘rsatilgan sohalarda foydalaniladigan, ishlab chiqarilishi va import bo‘yicha olib kirilishi lozim bo‘lgan o‘lchash vositalari davlat sinovlaridan va turini tasdiqlashdan yoki metrologik attestatsiyadan o‘tkazilishi kerak.

O‘lchash vositalarining davlat sinovlarini o‘tkazish, turini tasdiqlash va Davlat reyestriga kiritish maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

Tasdiqlangan o‘lchash vositalariga yoki ularning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi Davlat reyestri belgisini qo‘yishi shart.

25-modda. O‘lchash vositalarini qiyoslash

O‘lchash vositalarini qiyoslash akkreditatsiya qilingan O‘zbekiston milliy metrologiya instituti, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining metrologiya xizmatlari,

shuningdek ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘lchash vositalarini qiyoslaganda o‘lchash vositalarining belgilab qo‘yilgan metrologik talablarga ularning muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash bajariladigan operatsiyalar ketma-ketligini belgilovchi o‘lchash vositalarini qiyoslash uslubiyoti asosida amalga oshiriladi.

Qiyoslashdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan o‘lchash vositalari turkumlarining ro‘yxati maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘lchash natijalari davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘lchash vositalari turkumlarining ro‘yxati maxsus vakolatli davlat organining O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi va ushbu o‘lchash vositalari qo‘llaniladigan sohadagi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan kelishilgan takliflari asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘lchash natijalari davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘lchash vositalari turkumlarining ro‘yxatiga kiritilmagan o‘lchash vositalarini qiyoslash yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

26-modda. O‘lchash vositalarini kalibrlash

O‘lchash vositalarini kalibrlash akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘lchash vositalarini kalibrlashda o‘lchash vositasining metrologik tavsiflarini aniqlash uchun mo‘ljallangan o‘lchash vositalarini qiyoslash uslubiyotidan foydalaniladi.

Ushbu Qonun 20-moddasi birinchi qismining ikkinchi — o‘ninchi xatboshlarida ko‘rsatilganidan boshqa sohalarda qo‘llaniladigan o‘lchash vositalari ularni ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ishlatish, ijaraga berish va ta’mirlashda kalibrlashdan o‘tkazilishi mumkin.

Akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmati tomonidan bajarilgan o‘lchash vositalarini kalibrlash natijalaridan o‘lchash vositalarini qiyoslashda foydalanilishi mumkin.

O‘lchash vositalarini kalibrlash bo‘yicha davlat-xususiy sheriklik asosida metrologiya xizmatlari tashkil etilishiga yo‘l qo‘yiladi.

27-modda. Sinov vositalarini attestatsiyadan o‘tkazish

Sinov vositalarini attestatsiyadan o‘tkazish ularning normalangan texnik tavsiflari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Sinov vositalarini attestatsiyadan o‘tkazish akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sinov vositalarini attestatsiya qilishda sinov vositalarining normalangan texnik tavsiflari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash imkonini beruvchi sinov vositalarini attestatsiya qilish uslubiyotidan foydalaniladi.

28-modda. Metrologiya xizmatlarini metrologiya ishlarini va xizmatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lish uchun akkreditatsiya qilish

Metrologiya xizmatlarini o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashga doir normativ hujjatlarning metrologik ekspertizasini, ushbu Qonunning 20-moddasida nazarda tutilgan sohalarda qo‘llanilishi va foydalanilishi mumkin bo‘lgan o‘lchash vositalarini, sinov vositalarini, o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarini metrologik attestatsiyadan o‘tkazish, sinov vositalarini attestatsiyadan o‘tkazish, o‘lchash vositalarini qiyoslash, kalibrlash va sinashni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lishi uchun akkreditatsiya qilish qonunchilikda belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

O‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashga doir normativ hujjatlarning metrologik ekspertizasini, ushbu Qonunning 20-moddasida nazarda tutilgan sohalarda qo‘llanilishi va foydalanilishi mumkin bo‘lgan o‘lchash vositalarining, o‘lchashlarni bajarish uslubiyotlarining metrologik attestatsiyasini, sinov vositalarining attestatsiyasini, o‘lchash vositalarini qiyoslashni, kalibrlashni, sinashni amalga oshiruvchi akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari faoliyatining inspeksiya nazorati qonunchilikda belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

29-modda. Davlat metrologiya xizmatini davlat tomonidan moliyalashtirish

Davlat metrologiya xizmatining quyidagi ishlari davlat tomonidan moliyalashtiriladi:

metrologiyaga oid faoliyat sohasini rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish;

metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy tashkilotlarning ishida ishtirok etish va metrologiya bo'yicha chet el milliy xizmatlari bilan ishlar bajarish;

metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va normativ hujjatlarni, shuningdek xalqaro, mintaqaviy normalar hamda qoidalarni ishlab chiqish va ishlab chiqishda ishtirok etish;

metrologiyaga oid faoliyat sohasi bo'yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni o'tkazish;

etalonlar va o'lchash vositalarini ishlab chiqish, takomillashtirish, yasash, saqlash, qo'llash, olish hamda asrash, shuningdek ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash;

standart namunalarni ishlab chiqish;

davlat metrologiya nazoratini o'tkazish.

30-modda. Metrologiya ishlari va xizmatlari uchun haq to'lash

O'lchash vositalarini sinash, turini tasdiqlash, metrologik attestatsiyadan o'tkazish, qiyoslash va kalibrlash, o'lchashlarni bajarish uslubiyotlarini attestatsiyadan o'tkazish, texnik jihatdan tartibga solish va o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash sohasidagi normativ hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish, texnik jihatdan asosliligini hamda belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga muvofiqligini baholash, o'lchashlar va sinovlar bajarilishining sifatini baholashga doir metrologiya ishlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan xizmatlar, shuningdek metrologiyaga oid faoliyatning davlat tomonidan moliyalashtirish sohasiga kirmaydigan boshqa turlari uchun haq tuziladigan shartnomalar shartlariga muvofiq manfaatdor shaxslar tomonidan to'lanadi.

31-modda. Nizolarni hal etish

Metrologiyaga oid faoliyat sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

32-modda. Metrologiya to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Metrologiya to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh., 2020-yil 7-aprel, O‘RQ-614-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH TO‘G‘RISIDA

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ushbu Qonunning qo‘llanilish sohasi

Ushbu Qonunning amal qilishi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi texnik reglamentlarni ishlab chiqish, qabul qilish va qo‘llash, muvofiqlikni baholash hamda davlat nazoratini amalga oshirish chog‘ida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonunning amal qilishi:

sanitariya, fitosanitariya va veterinariya choralari;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi choralar;

buxgalteriya hisobi standartlari;

qimmatli qog‘ozlar emissiyasi standartlari va qimmatli qog‘ozlar emissiyasi risolalari, baholash faoliyati standartlari;

tibbiy yordam standartlari;

davlat ta’lim standartlari bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3-modda. Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risidagi qonunchilik

Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

arizachi — muvofiqlikni baholashni amalga oshirish uchun mahsulot taqdim etgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

davlat nazorati organi — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan davlat boshqaruvi organi;

ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili — ishlab chiqaruvchi (chet el ishlab chiqaruvchisi) bilan tuzilgan shartnoma asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida mahsulotning muvofiqligini baholashda va uni muomalaga chiqarishda ushbu ishlab chiqaruvchi nomidan harakatlarni amalga oshiradigan tadbirkorlik subyekti;

mahsulot — faoliyatning moddiy-ashyoviy shaklda taqdim etilgan va xo‘jalik maqsadida hamda boshqa maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan natijasi;

mahsulotni muomalaga chiqarish — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida mahsulotni O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqatish maqsadida yetkazib berish (realizatsiya qilish) yoki olib kirish (ishlab chiqaruvchining omboridan jo‘natish yoki omborga joylamasdan yuklab jo‘natish);

muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya — ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi muomalaga chiqariladigan mahsulotning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

muvofiqlikni deklaratsiyalash — mahsulotning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini majburiy ravishda tasdiqlash shakli;

savdodagi texnik to'siq — mahsulot kelib chiqqan mamlakatga (joyga) qarab mahsulotga va muvofiqlikni baholash tartib-taomillariga doir majburiy talablarning turlicha qo'llanilishi oqibatida mamlakatlar o'rtasidagi savdoda yuzaga keladigan to'siq;

sinash laboratoriyasi — sinashni amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki uning tarkibiy bo'linmasi;

sotuvchi — mahsulotni realizatsiya qiladigan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan tadbirkorlik subyekti;

texnik jihatdan tartibga solish — mahsulotning xavfsizligiga, uni ishlab chiqarish jarayonlariga va usullariga doir talablarni belgilash, qo'llash hamda bajarish, shuningdek ularga rioya etilishini muvofiqlikni baholash va davlat nazoratini amalga oshirish orqali tekshirish;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar — texnik reglamentlar va standartlar;

texnik reglament — mahsulot xavfsizligining qo'llanilishi majburiy bo'lgan tavsiflari yoki ular bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va usullari, qoidalar belgilangan hujjat;

xizmat — jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan, natijalari ashyoviy shaklga ega bo'lmagan faoliyat.

5-modda. Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

texnik reglamentlarni qo'llashning birligi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasida tadbirkorlik subyektlarining kamsitilishiga va insofsiz raqobatga yo'l qo'yilmasligi;

texnik jihatdan tartibga solishning hamda muvofiqlikni baholashning birligi va yaxlitligi;

muvofiqlikni baholash organlarining ishlab chiqaruvchilardan, sotuvchilardan va xaridorlardan (iste'molchilardan) mustaqilligi;

muvofiqlikni majburiy baholash tartib-taomillarini amalga oshirishda sinash hamda o‘lchash qoidalarining va usullarining birligi;

davlat nazoratiga va muvofiqlikni baholashga doir vakolatlarning bir organ tomonidan birga qo‘shib bajarilishiga yo‘l qo‘yilmasligi;

. ikki va undan ortiq davlat nazorati organida ayni bir vakolatlarning takrorlanishiga yo‘l qo‘yilmasligi.

2-bob. Texnik jihatdan tartibga solish sohasini davlat tomonidan tartibga solish

6-modda. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi

Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini quyidagilar tashkil etadi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari;

standartlashtirish bo‘yicha milliy organ;

akkreditatsiya organi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari;

muvofiqlikni baholash organlari, sinash laboratoriyalari.

7-modda. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

texnik jihatdan tartibga solishning iqtisodiyotni, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish darajasiga, shuningdek ilmiy-texnik jihatdan rivojlantirish darajasiga muvofiqligini ta’minlash;

mazkur sohani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

mazkur sohani xalqaro (mintaqaviy) standartlar bilan uyg‘unlashtirish;

ilg‘or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlarini belgilaydi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholashga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi;

texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturini tasdiqlaydi;

texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi;

muvofiqlikni baholash organini tayinlovchi (notifikatsiya qiluvchi) organni belgilaydi, uning faoliyati sohasini va vazifalarini tasdiqlaydi;

axborot markazini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, texnik reglamentlar, standartlar, muvofiqlikni baholash tartib-taomillari to‘g‘risida xabardor qilish tartibini belgilaydi;

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida amalga oshirilgan muvofiqlikni baholash natijalarining O‘zbekiston Respublikasida tan olinishi tartibini tasdiqlaydi;

majburiy davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan, xavf darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini tasdiqlaydi;

muvofiqlikni baholash qoidalarini, muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, ularning amal qilishini to‘xtatib turish, qayta tiklash, tugatish tartibini belgilaydi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarining faoliyat yuritish tartibini belgilaydi;

davlat nazorati organlarining vakolatlarini, ularning davlat nazoratiga doir faoliyatini muvofiqlashtirish tartibini, shuningdek davlat nazorati organlarining akkreditatsiya organi bilan hamkorligi tartibini tasdiqlaydi;

tegishli cheklovchi choralarni ko‘rish tartibini, xavfni baholash mezonlarini tasdiqlaydi;

yuqori xavf tug‘diradigan mahsulot to‘g‘risida tezkor ravishda o‘zaro xabar berish tizimining faoliyat ko‘rsatish tartibini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga umumlashtirilgan takliflar kiritadi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi;

texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasini tashkil etadi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan tegishli texnik reglamentlarni ekspertizadan o‘tkazadi;

texnik reglamentlar talablariga rioya etilishini ta’minlaydigan hamda texnik reglamentlarda belgilangan mahsulotning muvofiqligini baholash uchun zarur bo‘lgan, namunalar olish, sinash va o‘lchash usullarini belgilaydigan standartlar ro‘yxatlarini tasdiqlaydi;

majburiy davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan, xavf darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini shakllantiradi, shuningdek mazkur mahsulotlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlaydi;

xalqaro (mintaqaviy) standartlarning hamda texnik reglamentlarning vazirliklar va idoralar tomonidan joriy etilishini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan ishlab chiqaruvchilarga, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakiliga, sotuvchilarga, import qiluvchilarga yoki ijrochilarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarni qo'llash yuzasidan sudga murojaat qiladi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq emas deb topilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar reyestrini yuritadi;

muvofiqlik sertifikatlarining va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyalarning reyestrini yuritadi;

mahsulotning, uni ishlab chiqarish jarayonlarining yoki usullarining texnik reglamentlar talablariga muvofiqligi prezumpsiyasini ta'minlaydigan standartlar ro'yxatini tasdiqlaydi;

texnik reglamentlarni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalarni tasdiqlaydi;

texnik reglamentlarning ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va yuritadi;

O'zbekiston Respublikasining muvofiqlikni baholash natijalarini o'zaro tan olish to'g'risidagi va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa masalalarga doir xalqaro shartnomalarini tuzish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari (bundan buyon matnda vakolatli davlat boshqaruvi organlari deb yuritiladi) o‘z vakolatlari doirasida:

maxsus vakolatli davlat organiga texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari bo‘yicha takliflar kiritadi;

texnik reglamentlarning ishlab chiqilishini ta’minlaydi;

texnik reglamentlarni qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishini ta’minlaydi va ularni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarini tashkil etadi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni ekspertizadan o‘tkazadi;

texnik reglamentlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

texnik reglamentlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

texnik reglamentlarning ma’lumotlar bazasini shakllantirishda ishtirok etadi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Vakolatli davlat boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida:

maxsus vakolatli davlat organiga texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari bo‘yicha takliflar kiritadi;

texnik reglamentlar va ularni qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishini amalga oshiradi;

texnik reglamentlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish haqida takliflar tayyorlaydi;

texnik reglamentlarning ma’lumotlar bazasini shakllantirishda ishtirok etadi;

texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan nazoratni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari maxsus vakolatli davlat organi va vakolatli davlat boshqaruvi organlari huzurida shakllantiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasining tarkibiga davlat organlarining, iqtisodiyotning tegishli tarmoqlaridagi tadbirkorlik subyektlarining vakillari, ilmiy-tadqiqot institutlarining, laboratoriyalarning mutaxassislari, shuningdek texnik reglamentlar ekspertizasi uchun zarur bo‘lgan boshqa mutaxassislar kiradi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari texnik reglamentlar loyihalarini, ularga doir o‘zgartish va qo‘shimchalarni ekspertizadan o‘tkazadi, shuningdek amaldagi texnik reglamentlarni bekor qilish bo‘yicha takliflar hamda ularga oid xulosalar tayyorlaydi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3-bob. Texnik reglamentlar

13-modda. Texnik reglamentlarning maqsadlari

Texnik reglamentlar quyidagi maqsadlarda qabul qilinadi:

mahsulot xavfsizligi talablarini belgilash orqali fuqarolarning hayotini yoki sog‘lig‘ini muhofaza qilish;

atrof-muhitni, hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish;

xaridorlarni (iste'molchilarni) chalg'itadigan harakatlarning oldini olish;

energiya jihatdan samaradorlikni va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash;

savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish;

ichki va tashqi bozorlarda mahsulotning raqobatbardoshliligini oshirish.

14-modda. Texnik reglamentlarning mazmuni

Texnik reglamentlarda mahsulotning zarar yetkazish xavfi va xatari darajasi hisobga olingan holda:

biologik xavfsizlikni;

mexanik xavfsizlikni;

kimyoviy xavfsizlikni;

yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlikni;

yong'in xavfsizligini;

elektr xavfsizligini;

mashinalarni va asbob-uskunalarni ishlatish (ulardan foydalanish) hamda utilizatsiya qilish xavfsizligini;

elektromagnit mosligini;

ekologik xavfsizlikni;

sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligini;

portlash xavfsizligini;

axborot xavfsizligini;

sinash va o'lchash usullarining birligini ta'minlovchi talablar, shuningdek mahsulot xavfsizligini ta'minlashga doir boshqa talablar belgilanishi mumkin.

Texnik reglamentlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

qaysi mahsulotlarga nisbatan xavfsizlik talablari belgilanayotgan bo'lsa, o'sha mahsulotlarning to'liq ro'yxatini;

xavf darajasi hisobga olingan holda aniqlanadigan muvofiqlikni baholash qoidalari, shakllari va tartib-taomillarini.

Texnik reglamentlar muvofiqlikni tasdiqlash sxemalarini, berilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddatini uzaytirish tartibini,

atamalarga, o‘rovga, tamg‘alashga yoki yorliqlarga doir talablarni va ularni qo‘llash qoidalarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Texnik reglamentlarda mahsulotning konstruksiyasiga va bajarilishiga doir talablar bo‘lmasligi kerak, bundan mahsulotning konstruksiyasiga va bajarilishiga nisbatan insonning hayotiga va sog‘lig‘iga zarar yetkazilishi xavfi darajasi hisobga olingan holdagi talablar mavjud emasligi sababli mahsulot xavfsizligi ta’minlanmaydigan hollar mustasno.

Texnik reglamentlarda xaridorlarni (iste’molchilarni) ehtimol tutilgan zarar to‘g‘risida hamda insonning hayoti va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga, hayvonot va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazilishi xavfi qaysi omillarga bog‘liq bo‘lsa, o‘sha omillar haqida xabardor qilishga taalluqli talablar mavjud bo‘lishi mumkin.

Texnik reglamentlarda mahsulot xavfsizligiga doir quyidagi maxsus talablar bo‘lishi mumkin:

qonunchilikda belgilangan ayrim toifadagi fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishga doir talablar;

tabiiy hamda texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlarda insonning hayoti va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof-muhitga yetkaziladigan zararni hamda moddiy zararni kamaytirishga doir talablar, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga, davlat mulkiga tahdid soluvchi transchegaraviy xavfli ishlab chiqarish obyektlariga taalluqli talablar.

Davlat sirlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan texnik reglamentlar qonunchilikda belgilangan tartibda ishlab chiqiladi hamda qabul qilinadi.

Texnik reglamentlar tugal bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi hamda faqat ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yo‘li bilan o‘zgartirilishi hamda to‘ldirilishi mumkin.

15-modda. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish va qabul qilish tartibi

Texnik reglamentlar texnik reglamentlarni ishlab chiqishning tasdiqlangan dasturiga muvofiq ishlab chiqiladi.

Xalqaro (mintaqaviy) standartlardan texnik reglamentlar loyihalarini ishlab chiqishda to‘liq yoki qisman asos sifatida foydalanilishi kerak, bundan xalqaro (mintaqaviy) standartlar yoki ularning bo‘limlari texnik reglamentlarning ushbu Qonunning 13-moddasida belgilangan maqsadlariga erishish uchun samarasiz yoxud nomuvofiq bo‘lgan hollar, shu jumladan iqlimga oid va geografik o‘ziga xos xususiyatlar tufayli samarasiz yoki nomuvofiq bo‘lgan hollar mustasno.

Xalqaro (mintaqaviy) standartlar bilan uyg‘unlashtirilgan milliy standartlardan texnik reglamentlar loyihalarini ishlab chiqishda to‘liq yoki qisman foydalanilishi ham mumkin.

Texnik reglamentlar talablari ushbu Qonunning 13-moddasida belgilangan texnik reglament maqsadlariga nisbatan ko‘proq texnik to‘siqlarni yuzaga keltirmasligi kerak.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar o‘z rasmiy veb-saytlarida texnik reglamentlar ishlab chiqilishi to‘g‘risidagi xabarlarni ushbu reglamentlar ishlab chiqilgan kundan e’tiboran o‘n ish kunidan kechiktirmay e’lon qiladi va manfaatdor taraflarni bu haqda xabardor qiladi.

Agar texnik reglamentlarni ishlab chiqish yoki texnik reglamentlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish mahsulotning importiga yoki eksportiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa hamda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan chet davlatlar bilan ikki tomonlama yoxud ko‘p tomonlama shartnomalar tuzilgan bo‘lsa, texnik reglamentlarni ishlab chiquvchi organ texnik reglamentlarni ishlab chiqish sabablarini ushbu davlatlarning so‘roviga ko‘ra tushuntirib berishi kerak.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar texnik reglament loyihasi rasmiy veb-saytda joylashtirilgan kundan e’tiboran ikki oy ichida uning muhokama qilinishini ta’minlaydi.

Texnik reglamentni ishlab chiquvchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasining xulosasi olinganidan keyin texnik

reglament loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritadi.

Texnik reglamentlar rasmiy e’lon qilingan paytdan e’tiboran kamida olti oy o‘tgach amalga kiritiladi.

16-modda. Texnik reglamentlarni qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar bu reglamentlarning dolzarbligi va ushbu Qonunning 13-moddasida belgilangan maqsadlarga muvofiqligi nuqtai nazaridan ularni qayta ko‘rib chiqadi.

Agar texnik reglamentlarning qabul qilinishiga olib kelgan holatlar yoki sabablar boshqa mavjud bo‘lmasa yoxud o‘zgargan holatlar yoki sabablar savdoga nisbatan kamroq cheklovchi ta’sir ko‘rsatadigan usullardan foydalanishga imkon bersa, texnik reglamentlarga tegishli o‘zgartishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritiladi yoki texnik reglamentlar bekor qilinadi.

Texnik reglamentlar:

kuchga kirgan kundan e’tiboran;

texnik reglamentlarni dastlabki tarzda qayta ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra ularga kiritilgan o‘zgartishlar va (yoki) qo‘shimchalar kuchga kirgan kundan e’tiboran;

tegishli vakolatli davlat organlari tomonidan dastlabki tarzda qayta ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra ular o‘zgarishsiz qoldirilganligi to‘g‘risida axborot taqdim etilgan kundan e’tiboran besh yilda kamida bir marta qayta ko‘rib chiqiladi.

17-modda. Standartlarning texnik reglamentlarga muvofiqligi prezumpsiyasi

Agar mahsulot, uni ishlab chiqarish jarayonlari yoki usullari texnik reglamentda havola berilgan standartlar talablariga javob bersa, ular texnik reglament talablariga muvofiq deb topiladi.

Mahsulotning, uni ishlab chiqarish jarayonlarining yoki usullarining texnik reglamentlar talablariga muvofiqligi prezumpsiyasini ta’minlaydigan standartlar ro‘yxati maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o‘z rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

18-modda. Texnik reglamentlarning qo‘llanilishi va o‘tish davri

Texnik reglamentlar mahsulot kelib chiqqan mamlakatdan va (yoki) joydan, shuningdek mahsulotni ishlab chiqaruvchining, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilining, sotuvchining yoki import qiluvchining mulk shaklidan qat’i nazar, bir xil tarzda va teng qo‘llaniladi.

Agar texnik reglamentda standartga yoki uning alohida qismiga oid havola mavjud bo‘lsa, mazkur standart yoki uning alohida qismi bajarilishi shart.

Texnik reglamentda uni amalga kiritishning o‘tish davri vaqtini belgilovchi muddati va shartlari nazarda tutilishi, bu davr mobaynida texnik reglamentning amalga kiritilishi hamda mahsulotning ishlab chiqarilishi bilan bog‘liq masalalar hisobga olinishi kerak.

Agar texnik reglamentga kiritilgan mahsulot muomalaga chiqariladigan bo‘lsa va mazkur texnik reglament talablariga muvofiq bo‘lmasa, o‘tish davri mobaynida mahsulotdan foydalanish taqiqlanishi yoki cheklanishi mumkin emas.

Agar texnik reglamentni qayta ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra mahsulotga doir texnik talablar o‘zgarmagan yoki ahamiyatsiz tarzda o‘zgargan bo‘lsa, o‘tish davri belgilanmaydi.

Texnik reglamentlarda yoki ular tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlarda o‘tish davrining texnik reglamentlarni qo‘llashga oid boshqa shartlari ham belgilanishi mumkin.

Ishlab chiqaruvchi kuchga kirmagan texnik reglament talablarini o‘tish davri mobaynida qo‘llash, shuningdek mahsulotning muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlardan foydalanish huquqiga ega.

19-modda. Texnik reglamentlarni qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar bir vaqtning o‘zida texnik reglamentlarni qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqadi, ushbu tavsiyalarda texnik reglamentlarda belgilangan qoidalar tushuntiriladi va ular mazkur reglamentlarning izchil qo‘llanilishini ta’minlaydi.

Texnik reglamentlarni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilarning va tegishli uslubiy tavsiyalarni tasdiqlagan vakolatli davlat boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytlariga tasdiqlangan kundan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

20-modda. Xabardor qilish

Yangi texnik reglament ishlab chiqilgan yoki amaldagilariga o'zgartishlar kiritilgan taqdirda, texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar manfaatdor taraflarni axborot markazi orqali quyidagilar to'g'risida xabardor qiladi:

texnik reglamentni ishlab chiqish boshlanganligi haqida;

texnik reglament tatbiq etilishi mumkin bo'lgan mahsulot to'g'risida, ushbu reglament qaysi maqsadga muvofiq ishlab chiqilayotgan bo'lsa, o'sha maqsad tavsiflab berilgan va tushuntirilgan holda;

texnik reglamentning loyihasi bo'yicha fikr-mulohazalar olish uchun ikki oy muddat berilishi haqida.

Texnik reglamentlar, standartlar, muvofiqlikni baholash tartib-taomillari to'g'risida xabardor qilish tartibi va tartib-taomillari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

4-bob. Muvofiqlikni baholash va tasdiqlash

21-modda. Muvofiqlikni baholash

Muvofiqlikni baholash mahsulotning, ishlab chiqarish jarayonlarining, xizmatlarning, menejment tizimlarining, xodimlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlashga doir faoliyatdir.

Muvofiqlikni baholash organi muvofiqlikni baholash tartib-taomillarini bajaradigan yuridik shaxsdir.

Muvofiqlikni baholash tartib-taomili texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlardagi tegishli talablarga rioya etilishini aniqlash maqsadida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qo'llaniladigan tartib-taomildir. Namunalar olish, sinash va tekshirish, muvofiqlikni baholash va tasdiqlash, davlat ro'yxatidan o'tkazish, shuningdek

ularning majmui muvofiqlikni baholash tartib-taomillari jumlasiga kiradi.

22-modda. Muvofiqlikni baholash obyektlari

Mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimi va xodimlar muvofiqlikni baholash obyektlaridir.

Muvofiqlikni baholash obyektlari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

23-modda. Muvofiqlikni tasdiqlash shakllari

Muvofiqlikni tasdiqlash texnik reglamentlarda yoki muvofiqlikni baholash qoidalarida belgilangan muvofiqlikni baholash tartib-taomillarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni tasdiqlash majburiy yoki ixtiyoriy ravishda bo'lishi mumkin.

Texnik reglamentlarda belgilangan muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

muvofiqlikni deklaratsiya qilish;

majburiy sertifikatlashtirish.

Muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlash ixtiyoriy sertifikatlashtirish shaklida amalga oshiriladi.

24-modda. Muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash

Muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash orqali ta'minlanadi.

Faqat O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqarilayotgan mahsulotgina muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash obyekti bo'lishi mumkin.

Muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya va muvofiqlik sertifikati teng yuridik kuchga ega hamda muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyaning yoki muvofiqlik sertifikatining amal qilishi vaqtida muomalaga chiqariladigan mahsulotga nisbatan mahsulotning yaroqlilik muddati yoxud xizmat muddati davomida O'zbekiston Respublikasining butun hududida amal qiladi.

Muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash ishlarining qiymati mahsulot kelib chiqqan mamlakatdan va (yoki) joydan, shuningdek arizachining maqomidan qat'i nazar, mustaqil ravishda belgilanadi.

25-modda. Muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlash

Muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlash arizachining tashabbusiga ko'ra arizachi va muvofiqlikni baholash organi o'rtasidagi shartnoma shartlari asosida amalga oshiriladi.

Mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimi hamda standartlarda va shartnomalar shartlarida qaysi boshqa obyektlarga nisbatan talablar belgilangan bo'lsa, o'sha obyektlar muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlash obyektlari bo'lishi mumkin.

Muvofiqlikni ixtiyoriy ravishda tasdiqlash standartlarga, shartnomalar shartlariga muvofiqlikni belgilash uchun amalga oshirilishi mumkin.

26-modda. Muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya

Muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya, agar texnik reglamentlarda nazarda tutilgan bo'lsa, muvofiqligi majburiy ravishda tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulotga nisbatan rasmiylashtiriladi.

Muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya ikki nusxada rasmiylashtiriladi.

Muvofiqlikni deklaratsiya qilish quyidagi sxemalardan biri bo'yicha amalga oshiriladi:

muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani o'z dalillari asosida qabul qilish;

muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani o'z dalillari hamda muvofiqlikni baholash organi va (yoki) akkreditatsiya qilingan sinash laboratoriyasi (bundan buyon matnda uchinchi taraf deb yuritiladi) ishtirokida olingan dalillar asosida qabul qilish.

Ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qiluvchi shaxslardir.

Seriyali ishlab chiqariladigan mahsulot va mahsulot turkumi uchun muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyaning amal qilishi muvofiqlikni tasdiqlash sxemasi bilan belgilanadi.

Rasmiylashtirilgan muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan shaxslarning arizasiga ko'ra, muvofiqlik sertifikatlarining va muvofiqlik to'g'risidagi

deklaratsiyalarning reyestrida akkreditatsiya qilish doirasi mahsulotning mazkur turini o‘z ichiga olgan muvofiqlikni baholash organi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya muvofiqlik sertifikatlarining va muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarning reyestrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran haqiqiy deb hisoblanadi.

Arizachilarning doirasi tegishli texnik reglamentda belgilanadi. Agar uchinchi tarafning mavjud emasligi muvofiqlikni tasdiqlash maqsadlariga erishilmasligiga olib kelsa, texnik reglamentda muvofiqlikni uchinchi taraf ishtirokida deklaratsiya qilish sxemasi belgilanadi.

Mahsulotning texnik reglamentlarda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun asos bo‘lib xizmat qilgan texnik hujjatlardan, shaxsiy sinash va o‘lchash natijalaridan va (yoki) boshqa hujjatlardan dalil sifatida foydalaniladi.

Muvofiqlikni shaxsiy dalillar va muvofiqlikni baholash organi ishtirokida olingan dalillar asosida deklaratsiya qilish chog‘ida arizachi o‘z tanloviga ko‘ra shaxsiy dalillaridan tashqari laboratoriyada o‘tkazilgan sinash va o‘lchash bayonnomalaridan foydalanishga, sifat menejmenti tizimining sertifikatini taqdim etishga haqli.

Sifat menejmenti tizimining sertifikatidan muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qilish chog‘ida dalillar tarkibida foydalanilishi mumkin, bundan shunday mahsulot uchun texnik reglamentlarda muvofiqlikni tasdiqlashning boshqacha shakli nazarda tutilgan hol mustasno.

Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning amal qilish muddati texnik reglamentda belgilanadi.

Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning amal qilish muddati tugaganidan keyin muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning bir nusxasi va dalillar sifatida foydalanilgan materiallar arizachida, boshqa nusxasi esa uni ro‘yxatdan o‘tkazgan muvofiqlikni baholash organida besh yil davomida saqlanadi.

Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, ularning amal qilishini to‘xtatib turish, qayta tiklash, tugatish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

27-modda. Muvofiqlik sertifikati

Muvofiqlik sertifikati muvofiqlikni baholash obyektlarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Muvofiqlikni baholash organi sertifikatlashtirishni arizachi bilan tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiradi.

Sertifikatlashtirish muvofiqlikni baholash organi tomonidan muvofiqlikni baholash obyektlarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash tartib-taomilidir.

Mahsulotning muayyan turlarini sertifikatlashtirish uchun qo‘llaniladigan sertifikatlashtirish sxemalari, arizachilarning doirasi tegishli texnik reglamentlarda belgilanadi.

Muvofiqlik sertifikati, basharti tanlangan muvofiqlikni tasdiqlash sxemasiga binoan barcha tartib-taomillarning bajarilishi ijobiy natijalar bergan bo‘lsa, muvofiqlikni baholash organi tomonidan arizachiga beriladi.

Muvofiqlik sertifikatini olishda ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi arizachi bo‘lishi mumkin.

Muvofiqlik sertifikatining shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikati muvofiqlik sertifikatlarining va muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyalarning reyestrida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati texnik reglamentlarda yoki muvofiqlikni tasdiqlash sxemalaridan kelib chiqqan holda, muvofiqlikni baholash qoidalarida belgilanadi.

28-modda. Muvofiqlik belgisi

Muvofiqlik belgisi muvofiqlikni baholash obyektlari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan

talablarga muvofiqlikni tasdiqlash tartib-taomilidan o‘tganligi to‘g‘risida xaridorlarni xabardor qilish uchun xizmat qiladi.

Muvofiqlik belgisi muvofiqlikni tasdiqlash tartib-taomilidan o‘tgan mahsulotni tamg‘alashda qo‘llaniladi.

Muvofiqlik belgisining shakli, unga doir texnik talablar va tamg‘alash tartibi milliy standartlarda belgilanadi.

Muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lgan ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi muvofiqlik belgisini milliy standartlarda belgilangan, o‘zi uchun qulay bo‘lgan har qanday usullarda qo‘llashga haqli.

Muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo‘lgan va texnik reglamentlarda belgilangan talablar bo‘yicha muvofiqligi tasdiqlanishdan o‘tmagan mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mahsulot mahalliy ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar tomonidan sertifikatlashtirilganda muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish organi bilan tuzilgan kelishuv asosida ushbu ishlab chiqaruvchilarga va import qiluvchilarga muvofiqlik belgisini qo‘llash huquqi beriladi hamda muvofiqlik belgisidan foydalanganlik uchun to‘lov undiriladi.

29-modda. Arizachining muvofiqlikni majburiy ravishda tasdiqlash chog‘idagi huquq va majburiyatlari

Arizachi quyidagi huquqlarga ega:

mahsulotning muayyan turlari uchun tegishli texnik reglamentda nazarda tutilgan muvofiqlikni tasdiqlash shaklini va sxemasini tanlash;

akkreditatsiya qilish doirasi arizachi sertifikatlashtirishni mo‘ljallagan mahsulotga nisbatan tatbiq etiladigan har qanday muvofiqlikni baholash organiga majburiy sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun murojaat qilish;

mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun texnik hujjatlardan foydalanish;

o‘ziga muvofiqlik sertifikatini bergan muvofiqlikni baholash organidan sertifikatlashtirish natijalarini tasdiqlaydigan hamda taqdim

etish shartlari, muddati sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi shartnomada belgilanadigan hujjatlarni hamda materiallarni olish.

Arizachi:mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini ta’minlashi;

muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo‘lgan mahsulotni muvofiqlikni tasdiqlash ishlari amalga oshirilganidan keyin muomalaga chiqarishi;

mahsulotga ilova qilinadigan hujjatlarda muvofiqlik sertifikati yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatishi;

davlat nazorati organlariga, shuningdek manfaatdor shaxslarga mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiqligi tasdiqlanganligi to‘g‘risida dalolat beruvchi hujjatlarni (muvofiqlik sertifikatini, muvofiqlik haqidagi deklaratsiyani yoki ularning ko‘chirma nusxalarini) yoxud muvofiqlik sertifikatining yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning ro‘yxatga olish raqami haqidagi axborotni taqdim etishi;

agar muvofiqlik sertifikatining yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning amal qilishi to‘xtatib turilgan yoxud tugatilgan bo‘lsa, mahsulotning realizatsiya qilinishini to‘xtatib turishi yoki tugatishi;

sertifikatlashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarishning texnik hujjatlariga yoki texnologik jarayonlariga kiritiladigan o‘zgartishlar to‘g‘risida muvofiqlikni baholash organini xabardor qilishi;

muvofiqligi tasdiqlanishdan o‘tgan va texnik reglamentlar talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotni ishlab chiqarishni davlat nazorati organlarining qarorlari asosida o‘n ish kuniga to‘xtatib turishi;

muvofiqlik sertifikatining yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning amal qilish muddati tugagan taqdirda, mahsulotning realizatsiya qilinishini to‘xtatib turishi yoki tugatishi shart, bundan mahsulotning qonunchilikka muvofiq belgilangan yaroqlilik muddati yoxud xizmat muddati davomida muvofiqlik sertifikatining yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning amal qilishi vaqtida chiqarilgan mahsulot mustasno.

30-modda. Mahsulotni sinash maqsadlari

Mahsulotni sinash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

texnik reglamentlarda va standartlarda ko'rsatilgan mahsulot namunasining muvofiqligini tasdiqlash tavsiflarini aniqlash;

agar sinash muvofiqlikni tasdiqlash doirasidagi tartib-taomil bo'lsa, muvofiqlikni tasdiqlash amalga oshirilishini ta'minlash.

Sinash, agar bu muvofiqlikni sertifikatlashtirish yoki deklaratsiya qilishda qo'llaniladigan muvofiqlikni tasdiqlash sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, muvofiqlikni baholash doirasidagi tartib-taomildir. Sinash, agar bu texnik reglamentlarda nazarda tutilgan bo'lsa, muvofiqlikni baholashning mustaqil shaklidir.

Sinash, agar bu muvofiqlikni sertifikatlashtirish yoki deklaratsiya qilish chog'ida qo'llaniladigan muvofiqlikni tasdiqlash sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, akkreditatsiya sohasiga muvofiq akkreditatsiya qilingan laboratoriya tomonidan amalga oshiriladi.

31-modda. Muvofiqlikni baholash organlariga qo'yiladigan talablar va ularning majburiyatlari

Muvofiqlikni baholash organi va uning xodimlari o'zi baholaydigan mahsulotni loyihalashtirish, ishlab chiqarish, yetkazib berish, o'rnatish, ishlatish yoki unga texnik xizmat ko'rsatish uchun javobgar bo'lmasligi kerak.

Majburiy sertifikatlashtirishni amalga oshirish chog'ida mahsulotni sinash va o'lchash akkreditatsiya qilingan sinash laboratoriyalari tomonidan o'tkazilishi kerak hamda ularning natijalari bayonnomalar tarzida rasmiylashtiriladi.

Muvofiqlikni baholash organlari sinash laboratoriyalariga arizachi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishga haqli emas.

Muvofiqlikni baholash organi sinash laboratoriyasi tomonidan berilgan bayonnomalar asosida muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida yoki uni berishni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

32-modda. Chet davlatlarning muvofiqlikni baholash organlari tomonidan berilgan muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O'zbekiston Respublikasida tan olish O'zbekiston

Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

33-modda. Mahsulotni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majburiy ravishda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan, xavf darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlarning ro‘yxatini tasdiqlaydi.

Mahsulotni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga faqat, agar mahsulot O‘zbekiston Respublikasida iste’mol qilish (foydalanish) uchun xavfsiz bo‘lsa, ruxsat beriladi.

Maxsus vakolatli davlat organi mahsulotni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga va mazkur mahsulotdan xavfsiz foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomani davlat tilida ishlab chiqishga doir talablarni belgilaydi.

34-modda. Muvofiqlikni baholash organini tayinlash (notifikatsiya qilish)

Tayinlash (notifikatsiya qilish) sohasi muvofiqlikni baholash tartib-taomillarining va mahsulot turlarining ro‘yxati bo‘lib, tegishli texnik reglamentga muvofiq ularga nisbatan muvofiqlikni baholash organi tayinlanadi.

Muvofiqlikni baholash organlari quyidagi hollarda muvofiqlikni baholash tartib-taomillarini tegishli texnik reglamentlarga binoan uchinchi taraf sifatida bajarish uchun tayinlanishi (notifikatsiya qilinishi) mumkin, basharti ular:

mulk shakllaridan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari — yuridik shaxslar bo‘lsa;

so‘nggi uch yil davomida mahsulotning muvofiqligini baholash ishlarini bajarish tajribasiga ega bo‘lsa;

belgilangan soha doirasida mahsulotni sinashni amalga oshirish uchun akkreditatsiya qilingan o‘z sinash laboratoriyalariga ega bo‘lsa;

muvofiqlikni baholash tartib-taomillarini tayinlangan (notifikatsiya qilingan) organlarni jalb etgan holda qo‘llash nazarda tutilgan tegishli texnik reglamentlarda belgilangan maxsus talablarga, bunday talablar texnik reglamentlarda belgilanmagan taqdirda esa O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan maxsus talablarga muvofiq bo‘lsa.

Tayinlovchi organ:

muvofiqlikni baholash organlari bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lmasligini ta’minlashi;

o‘zining tayinlash to‘g‘risidagi qarorlari beg‘arazligini kafolatlashi;

muvofiqlikni baholash organini tayinlashga taalluqli bo‘lgan har bir qarorning muvofiqlikni baholash organi bilan affillanmagan vakolatli shaxslar va muvofiqlikni baholashni amalga oshirayotgan shaxslar tomonidan qabul qilinishini ta’minlashi;

olingan axborotning maxfiyligini ta’minlashi kerak.

5-bob. Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat nazoratini amalga oshirish

35-modda. Davlat nazorati organlari

Texnik reglamentlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati davlat nazorati organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Davlat nazorati organlarining vakolatlari, ularning texnik reglamentlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratiga doir faoliyatini muvofiqlashtirish tartibi, shuningdek davlat nazorati organlarining akkreditatsiya organi bilan hamkorligi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat nazoratini amalga oshirish chog‘ida tekshirishlar qonunchilikda belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

Nazorat choralari texnik reglamentlarda belgilangan talablar asosida, mahsulot muomalaga chiqarilayotgan (iste’molchiga realizatsiya qilinayotgan) bosqichda amalga oshiriladi, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Agar texnik reglamentlarda mahsulotni loyihalashtirish, ishlab chiqarish, montaj qilish, ishga tushirish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish, realizatsiya hamda utilizatsiya qilish bilan bog‘liq jarayonlarga doir talablar mavjud bo‘lsa, ushbu talablarning bajarilishini ta’minlashga doir nazorat choralari ham qabul qilinishi kerak.

Namunalarni olish, tekshirish, sinash va (yoki) o'lchash tarzidagi nazoratni amalga oshirishda davlat nazorati organlari tegishli texnik reglamentlarda belgilangan sinash va o'lchash usullaridan foydalanadi.

Xavfni baholashning aniq mezonlari, davlat nazorati organlari tegishli cheklovchi choralarni tanlaydigan shartlar va holatlar belgilanishi kerak bo'lgan cheklovchi choralarni ko'rish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

36-modda. Davlat nazorati organlarining huquq va majburiyatlari

Davlat nazorati organlari quyidagi huquqlarga ega:

ishlab chiqaruvchidan, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilidan, sotuvchidan va import qiluvchidan muvofiqlik sertifikatining yoki muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyaning ro'yxatdan o'tkazish raqami haqida axborot taqdim etilishini, agar bunday hujjatlarning mavjud bo'lishi tegishli texnik reglamentda nazarda tutilgan bo'lsa, talab qilish;

qonunchilikda belgilangan tartibda nazorat tadbirlarini amalga oshirish;

texnik reglamentlar talablarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchiga, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakiliga, sotuvchiga va import qiluvchiga ko'rsatmalar berish;

muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish zarurligi to'g'risidagi axborotni sertifikatni bergan muvofiqlikni baholash organiga va maxsus vakolatli davlat organiga yuborish;

muvofiqlikni baholash organiga muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risida, deklaratsiyani qabul qilgan shaxsga muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish haqida ko'rsatma berish hamda muvofiqlik sertifikatining, muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyaning amal qilishini to'xtatib turish yoxud tugatish haqida ko'rsatma berilganligi to'g'risidagi axborotni akkreditatsiya organiga yuborish;

ishlab chiqaruvchini, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilini, sotuvchini va import qiluvchini ushbu Qonunda hamda qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikka tortish;

ishlab chiqaruvchidan, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilidan, sotuvchidan va import qiluvchidan mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligini majburiy tasdiqlashni amalga oshirish chog'ida foydalanilgan dalillar hamda boshqa hujjatlar taqdim etilishini talab qilish;

muvofiqlik sertifikatining, muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyaning amal qilishini qonunchilikda belgilangan tartibda to'xtatib turish, tugatish haqida qaror qabul qilish;

texnik reglamentlar talablariga javob bermaydigan mahsulotni muomalaga chiqarishni taqiqlash yoki to'xtatib turish, muomaladan chiqarish yoki chaqirib olish to'g'risida qaror qabul qilish hamda ushbu qaror haqida o'z vakolatlariga muvofiq tegishli davlat nazorati organlarini xabardor qilish va (yoki) ushbu mahsulotdan foydalanishni qoidabuzarliklar bartaraf etilguniga qadar taqiqlash;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralarni zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida qo'llash.

Davlat nazorati organlari:

nazorat tadbirlari davomida texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonunchilikni qo'llash bo'yicha tushuntirish ishlarini amalga oshirishi, mavjud texnik reglamentlar haqida xabardor qilishi;

tijorat sirini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor etmasligi;

qonunchilikda belgilangan nazorat tadbirlarini amalga oshirish va bunday tadbirlar natijalarini rasmiylashtirish tartibiga rioya etishi;

texnik reglamentlar talablarining buzilishlari oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tadbirlari natijalariga asosan choralar ko'rishi;

mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to'g'risidagi axborotni ishlab chiqaruvchiga, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakiliga, sotuvchiga va import qiluvchiga yuborishi shart.

37-modda. Davlat nazorati organlarining va ular mansabdor shaxslarining javobgarligi

Davlat nazorati organlari va ularning mansabdor shaxslari nazorat tadbirlari o'tkazilayotganda o'z vakolatlarini (xizmat vazifalarini) bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan yoki g'ayrihuquqiy

harakatlar (harakatsizlik) sodir etgan taqdirda, belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Davlat nazorati organlari aybdor bo‘lgan o‘z mansabdor shaxslariga nisbatan ko‘rilgan choralar to‘g‘risida huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan tadbirkorlik subyektlariga bir oy ichida xabar qilishi shart.

38-modda. Mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to‘g‘risidagi axborot

Muomalaga chiqarilgan mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to‘g‘risida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi yoki ijrochi mazkur axborot olingan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida bu haqda davlat nazorati organiga xabar qilishi shart.

Muomalaga chiqarilgan mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to‘g‘risidagi axborotni olgan ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi yoki ijrochi uni ishlab chiqaruvchiga o‘n kun ichida yetkazishi shart.

Ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi yoki ijrochi hisoblanmaydigan va muomalaga chiqarilgan mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to‘g‘risida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan shaxs ushbu axborotni davlat nazorati organiga yuborishga haqli.

Davlat nazorati organi muomalaga chiqarilgan mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to‘g‘risidagi axborotni olgach, axborot kelib tushganligi haqida ishlab chiqaruvchini, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilini, sotuvchini, import qiluvchini yoki ijrochini besh kun ichida xabardor qilishi shart.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq emas deb topilgan mahsulotlar reyestridan mahsulotni u mazkur reyestrga kiritilgan kundan e’tiboran olti oy ichida chiqarish, shuningdek mazkur mahsulotni ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi va import qiluvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va erkin muomalaga chiqarish taqiqlanadi.

39-modda. Mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to‘g‘risida axborot olingan taqdirda ishlab chiqaruvchining, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilining, sotuvchining va import qiluvchining majburiyatlari

Agar amalga oshiriladigan tadbirlar mazmunidan uzoqroq muddatni belgilash zarurati kelib chiqmasa, ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to‘g‘risidagi axborot olingan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida ushbu axborotning ishonchliligini tekshirishi shart. Ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi mazkur tekshiruv materiallarini davlat nazorati organining talabiga ko‘ra ushbu organga taqdim etishi shart.

Mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to‘g‘risidagi axborotning ishonchliligi tasdiqlangan taqdirda, ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi zarar yetkazilishining oldini olish bo‘yicha tadbirlar dasturini bunday axborotning ishonchliligi tasdiqlangan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida ishlab chiqishi va ushbu dasturni o‘z vakolatlariga muvofiq davlat nazorati organi bilan kelishishi shart.

Zarar yetkazilishining oldini olish bo‘yicha tadbirlar dasturi xaridorlarni (iste’molchilarni) zarar yetkazilishi xavfi mavjudligi va uni bartaraf etish usullari, shuningdek bunday tadbirlarni amalga oshirish muddatlari to‘g‘risida xabardor qilishga doir tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Agar zarar yetkazilishini bartaraf etish uchun qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirish zarur bo‘lsa, ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi zarar yetkazilishini bartaraf etishga doir barcha tadbirlarni o‘z hisobidan amalga oshirishi shart, ularni amalga oshirish mumkin bo‘lmagan taqdirda esa, mahsulotning chaqirib olinishi to‘g‘risida e’lon qilishi va xaridorlarga mahsulot chaqirib olinishi munosabati bilan yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplashi shart.

Mahsulotning nuqsonlarini bartaraf etish, shuningdek uni nuqsonlar bartaraf etiladigan joyga yetkazish hamda xaridorlarga va (yoki) iste'molchilarga qaytarish ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi tomonidan o'z hisobidan amalga oshiriladi.

Mahsulotni muomaladan chiqarish sotuvchilar tomonidan o'z tasarrufidagi tegishli mahsulotning ushbu mahsulotni ishlab chiqaruvchiga qaytarilishini va xaridorlarga (iste'molchilarga) bunday mahsulotni taklif etish tugatilishini nazarda tutadi.

Mahsulotni chaqirib olish xaridorlarga (iste'molchilarga) sotib bo'lingan tegishli mahsulotning uni ishlab chiqaruvchiga qaytarilishini nazarda tutadi.

Agar zarar yetkazilishi xavfini belgilangan tadbirlarni amalga oshirish orqali bartaraf etish mumkin bo'lmasa, ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi mahsulotni ishlab chiqarishni va realizatsiya qilishni darhol to'xtatishi, mahsulotni chaqirib olishi hamda mahsulot chaqirib olinishi munosabati bilan yuzaga kelgan zararlarning o'rnini xaridorlarga (iste'molchilarga) qoplashi, mahsulotga doir muvofiqlik to'g'risidagi sertifikatning yoki muvofiqlik haqidagi deklaratsiyaning amal qilishini darhol tugatishi shart.

Ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi zarar yetkazilishini bartaraf etishga doir tadbirlar dasturining butun amalga oshirilish davrida xaridorlarga (iste'molchilarga) zarur harakatlar to'g'risida tezkor axborot olish imkoniyatini o'z hisobidan ta'minlashi shart.

40-modda. Mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to'g'risida axborot olingan taqdirda davlat nazorati organlarining harakatlari

Mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to'g'risida axborot olingan taqdirda davlat nazorati organlari olingan axborotning ishonchliligini tekshirishni mumkin qadar qisqa muddatlarda amalga oshiradi.

Olingan axborotning ishonchliligini tekshirishni amalga oshirish chog'ida davlat nazorati organlari:

mahsulot to'g'risidagi yoki mahsulotga doir talablar bilan bog'liq bo'lgan mahsulotni loyihalashtirish, ishlab chiqarish, montaj qilish, ishga tushirish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish, realizatsiya hamda utilizatsiya qilish jarayonlari to'g'risidagi qo'shimcha axborotni, shu jumladan majburiy muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish chog'ida o'tkazilgan tadqiqotlar (sinash) va o'lchash natijalarini ishlab chiqaruvchidan, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilidan, ijrochidan, sotuvchidan, import qiluvchidan va boshqa shaxslardan so'rab olishga;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, shuningdek mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga so'rovlar yuborishga;

zarur bo'lganda, mutaxassislarni olingan materiallarni tahlil qilish uchun jalb etishga;

ishlab chiqaruvchidan, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilidan, sotuvchidan, import qiluvchidan mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini majburiy ravishda tasdiqlashni amalga oshirish chog'ida foydalanilgan dalillarni va boshqa hujjatlarni so'rab olishga haqli.

Mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi to'g'risidagi axborotning ishonchliligi tasdiqlangan taqdirda, davlat nazorati organi ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi tomonidan zarar yetkazilishini bartaraf etishga doir tadbirlar dasturini o'n kun ichida ishlab chiqish haqida o'z vakolatlariga muvofiq ko'rsatma beradi, uni bajarishga ko'maklashadi va uning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Davlat nazorati organi zarar yetkazilishini bartaraf etishga doir tadbirlar dasturining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish chog'ida:

zarar yetkazilishini bartaraf etishga doir tadbirlarni amalga oshirish muddatlari va tartibi to'g'risidagi axborotni tarqatishga ko'maklashadi;

ishlab chiqaruvchidan, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilidan, sotuvchidan, import qiluvchidan va boshqa shaxslardan zarar

yetkazilishini bartaraf etishga doir tadbirlar dasturida ko‘rsatilgan tadbirlar amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni so‘rab oladi;

zarar yetkazilishini bartaraf etishga doir tadbirlar dasturida ko‘rsatilgan muddatlarga rioya etilishini tekshiradi.

Texnik reglamentlar talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotdan foydalanish chog‘ida fuqarolarning hayotiga va sog‘lig‘iga zarar yetkazilishini yoxud shunday zarar yetkazilishi xavfini bartaraf etish bo‘yicha zudlik bilan choralar ko‘rish zarur bo‘lgan taqdirda, davlat nazorati organi:

ushbu mahsulotning realizatsiya qilinishini to‘xtatib turish to‘g‘risida ko‘rsatma beradi;

bu mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi va ushbu mahsulotdan foydalanish chog‘ida fuqarolarning hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilishi xavfi to‘g‘risida xaridorlarni (iste’molchilarni) ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi;

ushbu mahsulotni majburiy ravishda chaqirib olish to‘g‘risidagi da’vo arizasi bilan sudga murojaat qilish haqida qaror qabul qiladi.

Ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi davlat nazorati organining harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqli.

Davlat nazorati organi harakatlarining g‘ayriqonuniyligi to‘g‘risida sud qarori qabul qilingan taqdirda, davlat nazorati organining harakatlari tufayli ishlab chiqaruvchiga, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakiliga, sotuvchiga, import qiluvchiga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishi lozim.

41-modda. Mahsulotni majburiy ravishda chaqirib olish

Ushbu Qonunda nazarda tutilgan ko‘rsatma bajarilmagan taqdirda, davlat nazorati organi o‘z vakolatlariga muvofiq, shuningdek zarar yetkazilishini bartaraf etishga doir tadbirlar dasturi ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi tomonidan bajarilmaganligi haqida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan boshqa shaxslar mahsulotni majburiy ravishda chaqirib olish to‘g‘risidagi da’vo arizasi bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Mahsulotni majburiy ravishda chaqirib olish to‘g‘risidagi da’vo arizasi qanoatlantirilgan taqdirda, sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay javobgar tomonidan ommaviy axborot vositalari orqali yoki boshqacha usulda xaridorlar (iste’molchilar) e’tiboriga yetkaziladi.

Javobgar sudning qarorini sud tomonidan belgilangan muddatda bajarmagan taqdirda, sudning qarorini bajarish qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda da’vogar mahsulotning majburiy ravishda chaqirib olinishi to‘g‘risida xaridorlarni (iste’molchilarni) ommaviy axborot vositalari orqali yoki boshqacha usulda xabardor qilishga haqli.

6-bob. Ishlab chiqaruvchining, sotuvchining, import qiluvchining majburiyatlari

42-modda. Ishlab chiqaruvchining majburiyatlari

Ishlab chiqaruvchilar:

xavfsiz mahsulotni muomalaga chiqarishi;

muvofiqlikni baholash tartib-taomilining amalga oshirilishini texnik reglamentga muvofiq ta’minlashi;

texnik hujjatlarni tuzishi va muayyan vaqt davomida ularni saqlashi;

muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani texnik reglamentga muvofiq tuzishi va taqdim etishi hamda uni ko‘rsatilgan vaqt davomida saqlashi;

agar texnik reglamentda nazarda tutilgan bo‘lsa, ushbu Qonun talablariga binoan muvofiqlik belgisini qo‘yishi shart.

Ishlab chiqaruvchi mahsulotga texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq mahsulotni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi turkum yoki seriya raqamini qo‘yishi shart. Agar mahsulotning o‘lchami yoki boshqa xususiyatlari tufayli ishlab chiqaruvchi turkum yoki seriya raqamini qo‘ya olmasa, u o‘rovda yoki mahsulotga ilova qilinadigan hujjatlarda ko‘rsatilishi kerak.

Ishlab chiqaruvchining ayrim majburiyatlari shartnomaga muvofiq ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Ishlab chiqaruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

43-modda. Sotuvchining majburiyatlari

Sotuvchi:

mahsulotga texnik reglamentga muvofiq muvofiqlik belgisi qo'yilganligini tekshirishi;

texnik reglamentga muvofiq davlat tilidagi qo'shimcha hujjatlar va mahsulot xavfsizligi to'g'risidagi axborot mavjudligini tekshirishi;

saqlash va transportda tashish shart-sharoitlari mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini xavf ostiga qo'ymasligini mahsulot realizatsiya qilinguniga qadar kafolatlashi shart.

Agar sotuvchi mahsulot texnik reglamentlar talablariga javob bermaydi deb hisoblasa, u mahsulotni texnik reglament talablariga muvofiqlashtirish maqsadida tuzatish choralarini ko'rishi shart.

Agar ko'rilgan tuzatish choralaridan keyin mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi bartaraf etilmasa, sotuvchi ishlab chiqaruvchini, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilini yoki import qiluvchini, shuningdek davlat nazorati organlarini bu haqda xabardor qilishi shart.

44-modda. Import qiluvchining majburiyatlari

Import qiluvchi:

texnik reglament talablariga javob beradigan mahsulotni bozorda joylashtirishi;

mahsulotni muomalaga chiqarishda ishlab chiqaruvchi nazarda tutilgan muvofiqlikni tasdiqlash tartib-taomilini amalga oshirganligini, texnik hujjatlarni ishlab chiqqanligini, texnik reglament talablariga muvofiq mahsulotga muvofiqlik belgisini qo'yganligini kafolatlashi;

mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiq emasligini bartaraf etish uchun saqlash yoki transportda tashish shart-sharoitlarini nazorat qilishi shart.

Agar import qiluvchi mahsulot texnik reglament talablariga javob bermaydi deb hisoblasa, u mahsulot bozorga joylashtirilguniga qadar uning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tuzatish choralarini ko'rishi shart.

Agar ko'rilgan tuzatish choralaridan keyin mahsulotning texnik reglamentlar talablariga muvofiq emasligi bartaraf etilmasa, import

qiluvchi bu haqda ishlab chiqaruvchini va davlat nazorati organlarini xabardor qilishi shart.

45-modda. Yuqori xavf tug‘diradigan mahsulot to‘g‘risida tezkor ravishda o‘zaro xabar berish tizimi

Yuqori xavf tug‘diradigan mahsulot to‘g‘risida axborot almashish maqsadida davlat nazorati organlari o‘rtasida yuqori xavf tug‘diradigan mahsulot haqida tezkor ravishda o‘zaro xabar berish tizimi yaratiladi va faoliyat ko‘rsatadi.

Yuqori xavf tug‘diradigan mahsulot to‘g‘risida tezkor ravishda o‘zaro xabar berish tizimi davlat nazorati organlari yuqori xavf tug‘diradigan mahsulotni aniqlagan taqdirda, ular tomonidan taqdim etiladigan xabarlardan shakllantiriladi.

Yuqori xavf tug‘diradigan mahsulot to‘g‘risidagi xabar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

tegishli mahsulotni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ma’lumotlarni;

mahsulot keltirib chiqaradigan xavfning tavsifini, bunday mahsulot namunalarini sinash natijasini;

xavfni bartaraf etish uchun ko‘rilgan choralarning (agar bunday choralar ko‘rilgan bo‘lsa), shu jumladan ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi va (yoki) import qiluvchi tomonidan o‘z tashabbusiga ko‘ra ko‘rilgan choralarning xususiyati va davomiyligi to‘g‘risidagi axborotni;

ushbu mahsulotning kelib chiqishi va bozorga yetkazib berilishi zanjiri haqidagi axborotni;

xalqaro, mintaqaviy va chet el xabar qilish tizimlari yordamida yoki boshqa davlatlarning vakolatli organlaridan boshqacha tarzda olingan ma’lumotlarni.

Yuqori xavf tug‘diradigan mahsulot to‘g‘risida tezkor ravishda o‘zaro xabar berish tizimidagi ma’lumotlar davlat nazorati organlari, bojxona organlari, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi

ustidan davlat nazorati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari foydalanishi uchun ochiq bo'lishi kerak.

Yuqori xavf tug'diradigan mahsulot haqida tezkor ravishda o'zaro xabar berish tizimining faoliyat ko'rsatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

7-bob. Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

46-modda. Qonunchilikda va texnik reglamentda belgilangan majburiy talablarga rioya etilmagan taqdirda ishlab chiqaruvchining, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilining, sotuvchining, import qiluvchining javobgarligi

Belgilangan tartibda ogohlantirish olganidan keyin texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi huquqbuzarlikni davom ettirganlik yoki bartaraf etmaganlik uchun jismoniy shaxslar qonunchilikka muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Belgilangan tartibda ogohlantirish olganidan keyin texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi huquqbuzarlikni davom ettirganlik yoki bartaraf etmaganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi tomonidan qonunchilikda va texnik reglamentda mahsulotga doir nazarda tutilgan majburiy talablarga rioya etilmagan taqdirda, ularga nisbatan:

huquqbuzarlik birinchi marta sodir etilganda — majburiy talablarga muvofiq bo'lmagan, realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining ellik foizigacha miqdorda jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi;

xuddi shunday huquqbuzarlik ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan jarima tarzidagi moliyaviy sanksiya qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil davomida takroran sodir etilganda — majburiy talablarga muvofiq bo'lmagan, realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining yuz foizigacha miqdorda jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo'llaniladi, bundan mahsulotni ishlab chiqaruvchilar, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakillari, sotuvchilar yoki import qiluvchilar sodir etilgan huquqbuzarlikda aybdorligini tan olgan va moliyaviy sanksiyalar summasi bir oy muddatda ixtiyoriy ravishda to'langan hollar mustasno.

Undirilgan jarima summasining ellik foizi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining budjetdan tashqari jamg'armasiga, qolgan qismi esa O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga yo'naltiriladi.

Agar mahsulotga, uni ishlab chiqarish jarayonlariga yoki usullariga nisbatan qonunchilikda va texnik reglamentda belgilangan majburiy talablarga ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi tomonidan rioya etilmaganligi natijasida fuqarolarning hayotiga yoki sog'lig'iga, jismoniy yoki yuridik shaxslarning mol-mulkiga, davlat mulkiga, atrof-muhitga, hayvonlarga yoki o'simliklarga zarar yetkazilsa yoki shunday zarar yetkazilishi xavfi yuzaga kelsa, ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi, import qiluvchi, ijrochi yetkazilgan zararning o'rnini qonunchilikka muvofiq qoplashi hamda boshqa shaxslarga, ularning mol-mulkiga, atrof-muhitga zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida choralar ko'rishi shart.

Zararning o'rnini qoplash majburiyati shartnoma yoki taraflardan birining arizasi bilan cheklanishi mumkin emas.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquqbuzarliklar uchun jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyani qo'llash to'g'risidagi qaror ustidan ushbu Qonunga muvofiq shikoyat qilinishi mumkin.

Jarimani to'lash yuridik shaxslarni mahsulot xaridorlariga (iste'molchilariga) yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

47-modda. Muvofiqlikni baholash organlarining javobgarligi

Muvofiqlikni baholash qoidalarini buzgan muvofiqlikni baholash organi va uning mansabdor shaxslari, agar mazkur kamchilik texnik reglamentlar talablariga javob bermaydigan mahsulotni ishlab

chiqarishga yoki arizachiga zarar yetkazilishiga, shu jumladan muvofiqlik sertifikatini berish asossiz ravishda rad etilishi, muvofiqlik sertifikatining yoxud muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning amal qilishi to‘xtatib turilishi yoki tugatilishi natijasida foydaning yo‘qotilishiga olib kelsa, qonunga hamda sertifikatlashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Akkreditatsiya qilingan sinash laboratoriyalari (markazlari) tadqiqotlarning (sinashning) va o‘lchash natijalarining ishonchsizligi yoki noto‘g‘riligi uchun qonunga hamda shartnomaga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Muvofiqlikni baholash natijalari bo‘yicha huquqbuzarliklar aniqlangan hollarda huquqbuzarlik aniqlanganligi to‘g‘risida davlat nazorati organlarining mansabdor shaxslari tomonidan bayonnoma tuziladi, bayonnoma ma’muriy jazoni va jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalarni qo‘llash uchun asos bo‘lib, rahbarning, boshqa mas’ul mansabdor shaxslarning tushuntirishlari hamda huquqbuzarlik sodir etilganligi bilan bog‘liq hujjatlar bilan birga uch ish kuni ichida sudga topshiriladi.

Huquqbuzarliklar uchun jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar miqdori huquqbuzarlikning xavf darajasiga va davomiyligiga qarab quyidagicha belgilanadi:

mahsulotning muvofiqligi noto‘g‘ri deklaratsiya qilinganligi, muvofiqligi tasdiqlanishi shart bo‘lgan, ilk bor muomalaga chiqarilayotgan mahsulotning muvofiqligi noto‘g‘ri deklaratsiya qilinganligi yoki standartlar mavjud emasligi natijasida yoki ushbu mahsulotga nisbatan texnik reglamentlar talablari qo‘llanilganligi uchun mavjud standartlarni qo‘llab bo‘lmasligi natijasida mahsulot shaxsiy dalillar asosida noto‘g‘ri deklaratsiya qilinganligi aniqlanganda — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdorida jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar;

muvofiqlik sertifikatini berishni asossiz ravishda rad etganlik, muvofiqlik sertifikatining yoxud muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyaning amal qilishini asossiz ravishda to‘xtatib turganlik yoki

tugatganlik uchun — bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravari miqdorida jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar;

sertifikatlashtirish ishlarini bajarishda belgilangan tartib-taomillar buzilgan taqdirda — bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravari miqdorida jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar;

sinash laboratoriyasi tomonidan mahsulotning muvofiqligini baholash maqsadida amalga oshirilgan sinash natijalarining noto‘g‘ri taqdim etilganligi va xolislikni ta’minlamasligi aniqlanganda — bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravari miqdorida jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquqbuzarliklar uchun jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalarni qo‘llash to‘g‘risidagi qaror ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalarni to‘lash yuridik shaxsni mahsulot iste’molchilariga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

48-modda. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlarni moliyalashtirish

Texnik reglamentlarni ishlab chiqishni, qayta ko‘rib chiqishni, texnik reglamentlarni qo‘llashga doir uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishni, davlat nazoratini amalga oshirishni, shuningdek vakolatli davlat organlarining standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturida nazarda tutilmagan texnik reglamentlarni ishlab chiqishga oid ishlarni budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

49-modda. Nizolarni hal etish

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

50-modda. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish

O‘zbekiston Respublikasining quyidagi qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritilsin:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan “Metrologiya to‘g‘risida”gi 1004-XII-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan O‘RQ-614-sonli Qonuni tahririda) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 4, 254-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) 28-moddasiga quyidagi o‘zgartishlar kiritilsin:

Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

1) O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi 1006-XII-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, № 2, 50-modda);

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida”gi 1007-XII-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, № 2, 51-modda);

3) O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 125-II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, № 7-8, 217-modda.) IV bo‘limi;

4) O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 25-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 482-II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 5, 67-modda) IX bo‘limi;

5) O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 6-aprelda qabul qilingan “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish tartib-taomillari soddalashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining

ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-31-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 4, 157-modda) 1-moddasi;

6) O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 10-oktabrda qabul qilingan “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi hamda ularning moliyaviy javobgarligi erkinlashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-59-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 10, 536-modda) 6-moddasi;

7) O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 23-aprelda qabul qilingan “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘RQ-213-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009-yil, № 4, 140-modda);

8) O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 4-oktabrda qabul qilingan “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi O‘RQ-354-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, № 10, 262-modda);

9) O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 7-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi O‘RQ-355-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, № 10, 263-modda) 6-moddasi;

10) O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 11-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-381-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014-yil, № 12, 343-modda) 5-moddasi;

11) O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni

yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-391-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015-yil, № 8, 312-modda) 43-moddasi;

12) O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi O‘RQ-401-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, № 1, 2-modda) 1-moddasi;

13) O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-405-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, № 4, 125-modda) 22-moddasi;

14) O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-416-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, № 12, 383-modda) 20 va 24-moddalari;

15) O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi O‘RQ-436-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 6, 300-modda) 32-moddasi;

16) O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi O‘RQ-446-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 9, 510-modda) 68 va 72-moddalari;

17) O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-dekabrda qabul qilingan “Ba’zi davlat organlarining faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-597-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 12, 891-modda) 15 va 18-moddalari;

18) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-666-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 1, 13-modda) 9-moddasi;

19) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-683-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) 38, 194 va 219-moddalari.

51-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

52-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

53-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran olti oy o‘tgach kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh., 2023-yil 27-fevral,

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g`risida. PF-60-son farmoni (28.01.2022 y).

1.O‘zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to‘g`risida»gi qonuni (7.10.2022 y).

3.O‘zbekiston Respublikasining «Metrologiya to‘g`risida»gi qonuni (21.04.2020 y).

4.O‘zbekiston Respublikasining «Texnik jihatdan tartibga solish to‘g`risida»gi qonuni (27.02.2023 y.)

5. O‘z DSt-1.1-92 Standartlashtirish miliy tizimi. O‘zbekiston davlat standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartiblari.

6. O‘z DSt 8.010093 O‘zbekiston Respublikasi o‘lchamlar birligini ta’minlash davlat tizimi. Metrologiya. Atamalar va ta’riflar.

7. O‘z DSt 8.002-92 O‘zbekiston Respublikasining o‘lchamlar birligini ta’minlash davlat tizimi. Metrologik tekshiruv va nazorat.

8.O‘z RH 51-094-98 -O‘zbekiston- sertifikatlashtirish milliy tizimi. Mahsulotni identifikatlashtirish bo‘yicha yo‘riqnoma.

9.O‘z RH 51-104: 2000 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion tekshiruvini o‘tkazish tartibi.

10. ГОСТ1.0-92 Правила проведения работ по межгосударственной стандартизации. Общее положения.

11.O‘z RST 8.002-92 O‘zbekiston Respublikasining o‘lchamlar birligini ta’minlash davlat tizimi. Metrologik tekshiruv va nazorat.

12. O‘z DSt 8.0100-93 O‘zbekiston Respublikasi o‘lchamlar birligini ta’minlash davlat tizimi. Metrologiya. Atamalar va ta’riflar.

13.Аристов А.И. “Метрология, стандартизация, сертификация”.: Учебное пособие / М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013.-256с.

14.F.A.Axmedjanova, SH.Karimova, D.Mirzaaxmadov. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya xizmati.: O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, SamISI, 2021.-180 b.

15.Graeme Knowles. Quality Management. Ventus publishing Aps, 2011.

www.standart.uz
www.ziyonet.uz
www.lex.uz
www.my.gov.uz

ISBN: 978-9910-702-15-0

